

**X. B. Yunusov,  
A. A. Elmurodov,  
M. X. Begmatova,  
A. A. Nurniyozov,  
Y. Sh. Tashpulatov,  
Sh. Sh. Shernazarov**

**O'SIMLIKLAR EKOLOGIYASI  
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR**



**o'quv qo'llanma**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

X. B. Yunusov, A. A. Elmurodov, M. X. Begmatova,  
A. A. Nurniyozov, Y. Sh. Tashpulatov, Sh. Sh. Shernazarov

O'SIMLIKLAR EKOLOGIYASI FANIDAN AMALIY  
MASHG'ULOTLAR

o'quv qo'llanma

Oliy ta'lif muassasalarining 60710400 – Ekologiya  
va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar  
bo'yicha) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nashr matbaa markazi, 2024

**UO'K: 581.5**

**KBK: 28.580**

**X. B. Yunusov, A. A. Elmurodov, M. X. Begmatova,**

**A. A. Nurniyozov, Y. Sh. Tashpulatov, Sh. Sh. Shernazarov.**

**O'simliklar ekologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar.**

**O'quv qo'llanma. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chovchilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 156 bet.**

**Mualliflar:** X.B.Yunusov - SamDVMCHBU, Biotexnologiya kafedrasи b.f.d. professori

**A.A.Elmurodov-** SamDVMCHBU, Biotexnologiya kafedrasи q.x.f.d. professori

**M.X Begmatova** - SamDVMCHBU, Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrasи (PhD) dotsenti

**A.A Nurniyozov-** Biotexnologiya kafedrasи (PhD) dosenti

**Y.Sh.Tashpulatov-** Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Fundamental va gumanitar fanlar kafedrasи (PhD) dotsenti

**Sh.Sh. Shernazarov** - SamDVMCHBU, Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrasи (PhD) dotsenti

**Taqrizchilar:**

**X.Q. Haydarov** - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Biokimyo instituti Botanika kafedrasи professori, b.f.d

**N. Xalilov** – Samarqand davlat veterinariyameditsinasi, chovchilik va biotexnologiyalar universiteti Agrotexnologiya fakulteti O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish kafedrasи mudiri, q.x.f.d, professor

**ISBN: 978-9910-9180-6-3**

### **Annotasiya**

Tabiatdan va resurslardan oqilona foydalanish, tabiiy atrof-muhitni asrashni ilmiy asoslari va amaliy metodlarini aniqlash hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot davrida muhim dolzarb omil hisoblanadi.

Atrof-muhit muhofazasi niroyatda muhim. Yashash uchun tabiatni asrashimiz, tabiiy resurslarni oqilonan boshqarishimiz, ulardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, bugungi kunda yer sharidagi ko'plab ekotizimlar zaxirasi deyarli butkul tugab, ortga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yuz tutgan, boz ustiga aholi nufusi o'sib borayotgan, iqtisodiy taraqqiyotga ehtiyoj kun sayin ortayotgan vaziyatda atrof muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa sanaladi. Ushbu o'quv qo'llanma 60710400 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

### **Аннотация**

Рациональное использование природы и ресурсов, определение научных основ и практических методов охраны природной среды является важным фактором современности в период бурно развивающегося развития.

Зашита окружающей среды чрезвычайно важна. Чтобы жить, нам необходимо беречь природу, разумно распоряжаться природными ресурсами и экономно их использовать. Также сегодня, в ситуации, когда резерв многих экосистем на земном шаре практически полностью исчерпан и достиг необратимого уровня, численность населения быстро растет, а потребность в экономическом развитии возрастает с каждым днем, сохранением окружающей среды считается более актуальной задачей, чем когда-либо. Данное учебное пособие предназначено для студентов специальности 60710400 – Экология и охрана окружающей среды (по сетям и отраслям).

### **Annotation.**

Rational use of nature and resources, determination of scientific foundations and practical methods of environmental protection is an important factor of our time in the period of rapidly developing development. Environmental protection is extremely important. In order to live, we need to protect nature, manage natural resources wisely and use them economically. Also today, in a situation where the reserve of many ecosystems on the globe is almost completely exhausted and has reached an irreversible level, the population is growing rapidly, and the need for economic development is increasing every day, preserving the environment. is considered a more urgent task than ever. This textbook is intended for students majoring in 60710400 - Ecology and Environmental Protection (by networks and industries).

## KIRISH

Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, san va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi. Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Atmosferani ifoslantiruvchi asosiy manbalardan biri ishlab chiqarish korxonalaridir. Respublikamizda joylashgan o'nlab kimyo zavodlarining hammasida ham atrof muhitga chiqarilayotgan zararli chiqindilar muammozi hal etilgan emas. Ekologik muammolarning birinchisi – biosfera tabiiy jarayonlar uchun xosdir. Masalan, vulqonlar otilishidan hosil bo'ladigan o'zgarishlar natijasida global miqyo'sida zararlar kelib turadi. Ekotizimda muvozanat tezroq tiklansada, lekin ularning oqibatlari ancha vaqt bilinib turishi mumkin. Ekologik holatlarning ikkinchi shakli – tabiiy hodisalar bo'lib, u inson faoliyati ta'sirida yuz beradi. Inson ishlab chiqarish faoliyatining umumbashariy xarakteri bilan bog'liq quyidagi ekologik o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Yer yuzidagi o'rmonlar hajmi har yili 11 mln. gektarga qisqarib bormoqda. Osiyo va Lotin Amerikasi tropik mintaqalaridagi o'rmonlarda esa, yangilanib turadigan o'simlik resurslarning asosiy zahiralari to'plangan. Bundan tashqari, sayyoramizning boyligini tashkil etgan bu o'rmonlar biosfera an'anaviy - Planeta o'pkasini funksiyalarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega.

O'simliklar ekologiyasi fani ekologiya va atrof muhofazasi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan muhim fanlardan biridir. Bu fandan talabalarga o'simliklarning yashash muhitlari, hayotiy formalari, muhitga moslashishi, ekologik amplitudasi, ekologik valentlik va tolerantlik, cheklovchi omillar, Libixning minimum qoidasi, yorug'lilik, harorat va namlikka nisbatan ekologik

guruhlari, o'simliklar hayotida atmosfera, suv, tuproqning zarur sharoit ekanligi, tabiiy va sun'iy o'simlik jamoalari, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish, muhofazaga olingan hududlar to'g'risida nazariy ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

Shunday ekan, tabiiy o'simliklardan to'g'ri va samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, ular o'sadigan muhitlarni muhofaza qilish, ularni tabiiy ko'payishi uchun antropogen omillarni tomonidan salbiy ta'sirni kamaytirish orqali ularni saqlab qolish va insonlar ehtiyoji uchun keng foydalanish imkoniyatini yaratish mumkin.

## 1-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: O'simliklar ekologiyasi fanining maqsadi, vazifalari.**

**Mashg'ulotning maqsadi:** o'simliklar ekologiyasi fanining maqsadi, vazifalari muhofaza qilish chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot berish va talabalar bilimini yanada mustahkamlashdan iborat.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlamalari, tarqatma materiallar, jadvallar.

**Ish tartibi:** Bioekologiya—ekologiyaning dastlabki ma'noda, tirik organizmlarning, yani, individlar, populyatsiyalar, biotsenozlar va boshqalarning o'zaro va atrof-muhit bilan munosabatlarini o'rjanuvchi biologik qismi hisoblanadi. Shu bilan birga u zamonaviy ekologiyaning biologik negizi hamdir. Zamonaviy ekologiyada bioekologiya quyidagi tuzilishga ega:

1. Tizimli ekologiya
2. Sistematisk guruhlar ekologiyasi
3. Evolyutsion ekologiya
4. Paleoekologiya

Bioekologiyaning taraqqiyoti va tuzilishi quyida keltirilgan sxemada tasvirlangan:

1. Tizimli ekologiya

Endoekologiya:

- a) molekulyar
- b) hujayra va to'qimalar

v) fiziologik

s) konsortsion

Ekzoekologiya:

- a) autekologiya
- b) demekologiya
- v) populyatsiyalar ekologiyasi
- s) mahsus ekologya
- d) sinekologiya

- e) biotsenologiya
  - j) biogeotcenologiya
  - z) global ekologiya
  - k) geoekologiya
2. Sistematisk guruhlar ekologiyasi
    - a) o'simliklar ekologiyasi
    - b) hayvonlar ekologiyasi
  - v) mikroorganizmlar ekologiyasi (prokariotlar ekologiyasi, zamburug'lar ekologiyasi)
  3. Evolyutsion ekologiya
  4. Paleoekologiya

**Muammoli savol ? O'simliklar ekologiyasi fanining vazifalarini tushuntirib bering?**

O'simliklar ekologiyasi fanining rivojlanish bosqichlarini o'rghanish.

O'simliklar ekologiyasi fani ekologiya fani tizimidagi qadimiy fan sohalaridan biridir. O'simliklar ekologiyasi - o'simlik individlari va jamoalarining atrof-muhit omillari bilan munosabatlarini o'rGANUVchi fan hisoblanadi. O'simliklar ekologiyasi fanining predmeti bo'lib, o'simliklarning o'zaro bir-biri bilan va ular yashab turgan muhitning sharoitlari bilan munosabatlarining yig'indisi yoki strukturasi tushuniladi.

O'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida Rossiya'dagi tuproqshunoslikka va botanikaga doir tadqiqotlar faqat fitotsenologiyaning kelib chiqishiga emas, balki P.A. Kostichev, A.A. Izmailskiy, V. Dokuchayevlarning o'simliklar bilan tuproqning o'zaro aloqasi haqidagi ekologik g'oyalarining shakllanishiga ham yordam berdi.

Akademik B. A. Keller sobiq sovet ekologiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U o'simliklarni o'rGANISHNING ekologik metodlarini bayon etdi. Bu bilan u geobotanikaga ekologik qatorlar metodini, sistematiskaga ekologik-geografik metodlarning asoslarini kiritdi.

Keyinchalik ekologik fiziologiya L.A. Ivanov (yorug'likning ta'siri), N.A. Maksimov (qurg'oqchilikka chidamlilik), V.I.

Lyubimenko, A.A. Nichiporovich, O.V. Zalenskiy, V.A. Voznesenskiy (fotosintez ekologiyasi), I.I. Tumanov (sovucca chidamlilik), P.A. Genkel (sho'rga chidamlilik) ishlarida rivojlantirildi.

Fanning maqsadi va vazifalarini o'rganish.

O'simliklar ekologiyasi fanining maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'simlik turlarini ko'paytirish;
- Kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish;
- Turli joylarda o'suvchi o'simliklarni tarqalishini o'rganish;
- Turli ekologik muammolarni oldini olish;

O'simliklarni bioekologik o'rganish ikkita asosiy metodga – kuzatish bilan tajribaga asoslanadi. Kuzatishlar va laboratoriya sharoitida o'tkaziladigan tajribalar xilma-xil bo'lganligidan visual kuzatish usullari ham nihoyatda turli-tumandir. Bularni puxta egallab olish uchun asosiy metodologik tushunchalar - biologik kuzatishlarni qanday olib borish, dala va laboratoriya tajribalari qanday qo'yilishi, tajriba va kontrol variantlar, tajriba natijalarining aniqligi va boshqalar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Tadqiqotchi ana shu asosiy metodologik tushunchalarni yaxshi bilib olgan taqdirdagina o'z ishini muvaffaqiyatli chiqishiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Kuzatish - mavjud hodisaning biror holati, uning aniq belgilari yoki xossalarni aniqlab olishdir. Hodisalarning xossalari yoki holatlariga oid miqdor yoki sifat o'zgarishlarini qayd qilib borish uchun o'lchashning oddiy hamda mukammal vositalaridan foydalaniadi. Biroq, kuzatishlar hodisaning miqdor yoki sifat tomonlarini ta'riflasa-da, lekin uning mohiyatini ochib berilmaydi. Kuzatish ayrim hodisa, belgi yoki xossa o'rtaqidagi bog'lanishni aniqlashga va hatto o'sha hodisalarni oldindan aytib berishga imkon beradi. Biroq, kuzatish tadqiqotning mustaqil metodi bo'libgina qolmay, balki uning bir qadar murakkab metodi – ayrim hollarda faol kuzatish tadqiqotning muhim qismini ham tashkil etadi.

Tajriba - hodisani o'rganishning shunday yo'liki, bunda tadqiqotchi o'sha hodisani sun'iy yo'l bilan yuzaga keltiradi yoki uning

mohiyati, kelib chiqish sabablari va boshqa hodisalar bilan o'zaro bog'lanishini aniqlab olish uchun sharoitni o'zgartiradi. Tajriba tadqiqotning yetakchi metodi bo'lib, kuzatish koppelyatsiya, o'zgartirilgan sharoitni qayd qilish va natijalarni hisobga olishni o'z ichiga oladi. Har qanday aniq ilmiy tajribaning asosiy xususiyati uni takror qo'yib ko'rish mumkinligidir.

Bilish nazariyasini nuqtai nazaridan olganda kuzatish va tajriba eksperiment mohiyati jihatidan bir-biridan farq qiladi. Kuzatish tashqi dunyoni aks ettiradi, ongimizga tashqi dunyodan singib boradi, faktlarni qayd qiladi, tajriba esa oldin miyada o'ylab olinadi, u tafakkurimiz mahsuli bo'lib, faktlar bilan, amalda tekshirib ko'rishni talab etadigan go'yo bir gipoteza, mo'ljal, taxmin yoki faraz deb hisoblanadi.

Kuzatishga qaraganda tajribaning ko'p afzalliklari bor. Tajriba barcha tabiiy fanlarda hukmron tekshirish metodi bo'lib qolgan. Chunonchi, tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan hodisa tabiatda qachon boshlanishini kutib o'tirmasdan, shu hodisani o'zi yuzaga keltirib, gavdalantirib ko'rishi, ularni tarkibiy qismlarga bo'lib chiqishi va yana birlashtirib tarkib toptirish, o'sha hodisalarni chuqurroq o'rganishga, sabab va oqibatini aniqlashga imkon beradigan qo'shimcha sharoitni yaratishi mumkin. Tadqiqotning xarakterli xususiyati shundaki, tegishli tajriba sharoitini yaratishni oldindan o'ylab, miyada pishitib olinishidir. Oldindan mo'ljallangan ana shu ish doimo tajribaning eng qiyin qismi bo'ladi, u tadqiqotchidan zo'r bilim va ijodiy fikrni talab etadi. Tadqiqotni boshidan oxirigacha fikran tasavvur qilish, hodisani o'rganishga halal beradigan ortiqcha narsalarni bartaraf etish zarur.

Qiyosiy tadqiqotning muhim vazifasi tajribada, o'rganilayotgan variantlarga sifat jihatidan baho berish va miqdorini aniqlashdir. Tajribaning qiyos qilib, taqqoslاب ko'rildigan bir yoki bir necha varianti kontrol yoki standart deb qabul qilinadi. Tajriba va kontrol variantlarning majmuasi tadqiqotning sxemasini tashkil etadi.

Laboratoriya tajribasi - ob'ektlarga ma'lum omillarning va ularning o'zaro ta'sirini o'rganish maqsadida laboratoriya sharoitida olib boriladigan tadqiqot. Laboratoriya tajribalari sun'iy yo'l bilan yuzaga keltirilib, idora etiladigan sharoitda o'tkaziladi. O'simlikshunoslikka oid

muhim masalalar laboratoriya tajribasi yordamida hal qilinadi. Masalan, urug'chilikda urug'larning optimal unib chiqish sharoitini urug'larning biologik xossalari, ularning unib chiqishidagi biologik jarayonlarni aniqlash uchun laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi.

Vegetatsion tajriba - tajriba variantlari o'rtasidagi farqni aniqlash, o'rganilayotgan omillarning o'simlik hosildorligiga va uning sifatiga ko'rsatadigan ta'sirini miqdor jihatidan baholash maqsadida vegetatsion uylar, issiqxonalar, iqlim kameralari va boshqa inshootlarda, ya'ni nazorat qilib tursa bo'ladigan sharoitda olib boriladigan tadqiqot. Vegetatsion tajribaning zarur sharti tajriba o'simligi bo'lishidadir.

Qishloq xo'jaligidagi dala tajribasi alohida uchastkada olib boriladigan tadqiqot hisoblanadi. Dala tajribasining asosiy vazifasi tajriba variantlari bo'yicha farqlarni aniqlash, tashqi muhit omillari, o'simliklarning o'stirish sharoiti, ekinlarni yetishtirish usullarini hosil va uning sifatiga ko'rsatadigan ta'sirlarni miqdor jihatidan baholashdan iboratdir.

Dala tajribasi nazariy tadqiqotlarni qishloq xo'jalik praktikasi bilan bog'laydi. Dala tajribasida o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi va hayot faoliyati tuproq, iqlim omillari va agrotexnika tadbirlari bilan bog'liq holda kompleks tarzda o'rganiladi. Hosil va unga ta'sir etadigan omillar o'rtasidagi bog'lanishni faqat dala tajribasi yo'li bilangina aniqlash mumkin. Bundan tashqari, masalan, tuproqni ishlash va o'simliklarni parvarish qilish, almashlab ekishni joriy etish, o'g'itlash va gerbitsidlardan foydalanish, yig'im-terimni mexanizatsiyalash va boshqa bir qancha masalalar dala tajribasi yo'li bilan o'rganiladi. Dala sharoitida olib borilgan tajriba natijalarining ishonchli bo'lishi quyidagi muayyan metodik talablarning aniq bajarilishiga bog'liq:

- 1) tajribaning tipikligi;
- 2) yagona tafovut printsipiga rioxva etilishi;
- 3) tajribaning mahsus uchastkada olib borilishi;
- 4) hosilning hisobga olinishi va tajribaning mohiyat e'tibori bilan aniqligiga ishonch bo'lishi.

Dala tajribasi tipikligi yoki xarakterli belgisi shu tajriba o'tkaziladigan sharoitning mazkur tumandagi tuproq-iqlim va

agrotexnika sharoitiga mos kelishidadir. Har qanday dala tajribasi tipik tuproq-iqlim sharoitida o'tkazilishi kerak. Olib borilgan ishlar natijalariga ko'ra soz tuproqli yerlardan foydalanish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, qumli tuproqlarda o'tkaziladigan tajribada tuproq unumdarligini oshirish yo'llarini izlab o'tirishning hojati yo'q. Dala tajribasi maxsus uchastkada o'tkazilishi kerak degan talab ham har bir dala tajribasi uchun zarur shartdir.

Nav sinashga doir tajribalarda genetik jihatdan har xil bo'lgan o'simliklar bir xil sharoitda bir-biriga qiyoslab ko'rildi, bunday tajribalar ekin navlari va duragaylarini xolis baholash uchun xizmat qiladi. Mazkur tajriba natijalariga asoslangan holda yuqori hosili, sifati jihatidan qimmatli ekin navlari va ularning duragaylari rayonlashtiriladi va ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganish.

O'simliklar ekologiyasi biologiya fanlaridan fiziologiya bilan chambarchas bog'liq. Lekin fiziologiya sohasidagi tadqiqotlar qat'iy nazorat qilinadigan sharoitda o'tkaziladi, ekologlar esa doimiy ravishda o'zgarib turadigan tabiiy sharoit bilan bog'liq holda ish olib boradilar. O'simliklarni tabiiy sharoitda boshqa organizmlardan yakkalab qo'yib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ekolog hamma vaqt o'rganilayotgan tur bilan konkurentlik qiladigan boshqa turlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olishi kerak. Bu esa kuzatish olib borishni ancha murakkablashtirib yuboradi, chunki mazkur turning hayot kechirishi uchun o'rganilayotgan muhit omillariga qaraganda senozda qatnashayotgan boshqa vakillar katta rol o'ynaydi. Fiziologlar yaratgan qonuniyatlar tabiatda boshqacha namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, ekologiya, ayniqsa amaliy ekologiya xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan bir vaqtda ko'pchilik fiziologlar (L. A. Ivanov, V. N. Lyubimenko, N. A. Maksimov, G. Lyundegord va boshqalar) bevosita tabiatda kuzatish olib borganlar.

#### Topshiriqlar:

- 1.O'simliklar ekologiyasi fanining rivojlanish bosqichlarini o'rganish.
- 2.Fanning maqsadi va vazifalarini o'rganish.
- 3.Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganish.

## Topshiriqni mustaqil bajaring !

B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

### Muhokama savollari

1. Biokologiya fani nimani o'r ganadi?
2. Fanning bo'limlari to'g'risida aytib bering?
3. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Fanning rivojlanish tarixi ?
5. Fanga xissa qo'shgan olimlar ?

### 2-AMALIY MASHG'ULOT

**Mavzu:** O'simliklar ekologiyasining qisqacha tarixi .

**Mashg'ulot maqsadi:** o'simliklar ekologiyasi fanining rivojlanish tarixi, fanga hissa qo'shgan olimlar, ularning ilmiy ishlari haqida talabalarga tushuncha berish .

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlamnalari, tarqatma materiallar, jadvaljar.

**Ish tartibi:** Tirik organizmlarning atrof-muhitga munosabati qadim zamonlarda ham ma'lum bo'lgan. Chunonchi, o'simliklarning


yashash sharoitiga munosabati haqidagi ma'lumotlarni cramizgacha bo'lgan 372-278- yillarda Teofrast Yerezischiy va yangi eraning 23-79-yillarida Katta Pliniy keltirib o'tgan edi. Teofrast Aleksandr Makedonskiy bilan birligida yurishlarida yiqqan materiallarini ishlab chiqib, Osiyo, Afrika va Evropa o'simliklarni o'zaro taqqosladi, keyin o'simliklarning shakli va o'sishi iqlim, tuproq sharoitiga hamda o'stirish usullariga bog'liqligini qayd qilib o'tdi. O'simliklarning ekologik klassifikatsiyasini taklif etdi, keyinchalik XIII asrda Albert Velikiy ekologik masalalarga to'xtalib, o'simliklar qishki tinim davrining sabablari, ular oziqlanish, tuproq sharoitiga, quyosh issiqligiga bog'liq holda o'sishi va ko'oayishi to'g'risidagi fikrlarni bayon qildi. Uyg'onish davrida geografiya sohasida erishilgan yutuqlar ham biologiyadan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular tabiiy fanlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keyinroq, XVI-XVIII asrlarda o'sha davrning ko'zga ko'ringan botaniklardan bo'lgan Chezal'pino, Turnefor, Djon Rey, Karl Linney va boshqalarning ishlarida ekologiyaga doir ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. XVIII-XIX asrlarda ulug' rus olimlari akademiklar S.V.Krasheninnikov (1711-1755), I.Gmelin (1709-1755), P.S.Pallas (1741-1811) ham o'z ishlarida ko'plab ekologik ma'lumotlarni kiritganlar. Akademik I.I.Lepexin (1740-1802) mo'tadil iqlim hududlari, tropik va cho'llar landshafti o'simliklarini ta'riflagan, shuningdek, o'simliklarning tarqalishi iqlimga bog'liqligini va baland tog' hamda tundra o'simliklarning o'xshashligini ko'rsatib o'tgan. Agronom G.A. Bolotov (1738-1833) mevali daraxtlarning urug' ko'chatiga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqdi va o'simliklar hayotida mineral tuzlarning rolini ko'rsatdi. Shuningdek, u o'simliklarning yashash joyidagi klassifikatsiyasini yaratdi: o'z ishlarida o'simliklarning o'zaro munosabati masalalari ustida ham to'xtalib o'tdi.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida ko'pchilik ekologlar jamoaga o'xshash joyni egallagan, bir -biriga ekologik yaqin turgan turlar mustahkam yashay olmasliklari mumkin degan xulosaga kelgan edilar. Bu fikrlar keyinchalik bir ekologik taxmonda uchraydigan 2 ta tur orasidagi raqobatchilik modelini matematik tuzib chiqilganda ham o'z tasdig'ini topdi. (V.Volterra va T.F.Gauze). Ekologik taxmon

to‘g‘risidagi hozirgi zamon tushunchasi 1957.1965 Dj.Xatchinson tomonidan tuzilgan ekologik taxmon modeliga asoslanganlar.



Teofrast



Djon Rey,

Tashqi muhit bilan organizm uzviy bog‘langan bo‘lib usiz organizm yashay olmaydi. Tashqi muhitudan organizm birinchidan ozuqa oladi, ikkinchidan organizmning yer yuzasida tarqalishi ham ularning tashqi muhit sharoitlariga chidamliligiga (moslashganligiga) bog‘liqdir. Issiq va quruq iqlim sharoiti organizmlarning yashashini chegaralaydi, xuddi shunday har qanday organizm ham shimolning sovuq iqlim sharoitlarida yashay olmaydi. Tirik organizmlarning shakli va vazifalari ham tashqi muhitga moslashadi.



Karl Linney



Stepan Petrovich Krasheninnikov

Rossiyada o'simliklar ekologiyasini rivojlanishida Ch.Darvinning izdoshi, rus olimi rus botanik geografiyasining asoschisi bo'lgan A.N.Beketovning (1825-1902) ishlari katta rol o'ynaydi. U, "Geografiya rastenniy" deb nomlangan asarida (1896) tarixiy rivojlanishda o'simliklarning tashqi sharoitlar yig'indisiga moslashuvi, ya'ni biologik kompleks haqidagi tushunchani shakllantirdi. Beketov ekologiya maqsadlarida olib borilgan tadqiqotlarning ahamiyatini ta'kidlab o'tdi va o'simliklarning ekologik-fiziologik klassifikatsiyasini taklif etdi. U iqlim omiliga, ayniqsa, yorug'likning shakl hosil qiluvchi xususiyatiga e'tibor berdi va turlarning ekologik tarqalishi haqidagi masalani o'rta tashladi.

O'zbekistonda ekologik kuzatishlarning asoschilarini va tashkilotchilarini Ye. P. Korovin (o'simliklar) va D.A.Kashkarovlar bo'lgan. Ye.P.Korovin 1930 – yillarda o'simliklar jamoasi va muhitni birlgilikda o'rganish kerakligini aytdi. Bundan ilmiy kuzatishlar, o'sha vaqtida O'rta Osiyo davlat universiteti qoshida olib borildi. O'sha davrda cho'l hududi o'simliklarini o'rganish maqsadida kompleks ekspozitsiyalar tashkil qilindi va Ye.P.Korovin va I.I.Granitov rahbarlik lavozimlarida cho'l hududida fitomelirativ ishlari olib borildi, birinchi tajribalar o'tkazildi.



*Професор Гранитов И.И. на полевых занятиях со своим аспирантом.*

**Muammoli savol ?** O'simliklar ekologiyasiga fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot bering ?

### **Topshiriqlar :**

1. O'simliklarning ekologiyasi fan sifatida shakllanishini o'rganish .
2. Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan chet el olimlarini o'rganish.
3. Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbek olimlarini o'rganish.

**Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			

### **Muhokama savollari**

- 1.O'simliklar ekologiyasi fan sifatida shakllanishi haqida tushuncha bering ?
- 2.Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan chet el olimlarining ishlari haqida ma'lumot bering ?
- 3.Fanning rivojlanishiga hissa qo'shgan o'zbek olimlari haqida ma'lumot bering ?
- 4.Kashkarovning ishlari haqida aytib bering ?
- 5.Teofrast ishlari haqida gapirib bering ?

### **3-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU: O'simliklarga ekologik omillar ta'siri.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarga ekologik omillar ta'siri to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Ekologik omillarga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari ekologik omillar deyiladi.

Ekologik omillar 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:

1. *Abiotik omillar* - anorganik tabiat sharoitining yoki o'lik tabiatning yig'indisi. Bularga harorat, yorug'lik, namlik, suv, tuproq, relyef kiradi.

2. *Biotik omillar*: Bunga tirik tabiat elementlari (tirik organizmlarning bir-biriga va yashash muhitiga ta'siri) kiradi. Biotik omillar fitogen va zoogen omillarga bo'linadi.

*Fitogen omillar* deganda yuksak va tuban o'simliklarning organizmiga ta'siri e'tiborga olinsa, *zoogen omillar* deganda esa organizmga barcha hayvonlarning ta'siri nazarda tutiladi.

3. *Antropogen omillar* - bu inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan omillar, ya'mi odamlarning o'simlik va hayvon turlari yoki ular guruhlarining tuzilishiga ko'rsatgan ta'siridir. Tirik organizmlarga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ana shu omillarning ayrim organizmlarga ko'rsatgan ta'siri natijasi esa xilma-xildir. Omilning organizm hayoti uchun eng qulay darajasi - *optimal* daraja deyiladi. Har qanday ekologik omillarning eng yuqori darajasi *maksimum* va eng qo'yli darajasi *minimum* bo'ladi. Tabiiyki, har bir tirik organizm uchun u yoki bu ekologik omilning o'z maksimumi, minimumi va optimumi bo'ladi. Chunonchi, uy pashshasi +7°C dan +50°C gacha yashashi mumkin. Ular uchun yashashning optimum darajasi + 36-40°C ni tashkil etadi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, ekologik omillar organizmlarga kompleks ta'sir etgandagina ular yuqori natija beradi. Bu omillarning birortasi o'z vaqtida bo'lmasa yoki yetishmasa organizmlarning normal o'sishi va rivojlanishi tugal o'tmaydi. Demak, ekologik omillarning har biri organizm uchun zarur bo'lib, ularning birini ikkinchisi almashtira olmaydi. Shu sababli ekologik omillar organizm hayotida bir xil ahamiyatga egadir. Chunonchi, o'simliklar hayotidan misol keltirsak, g'o'zani o'strish va parvarish qilishda o'g'it bermasdan faqat suv berish bilan g'o'zani to'la rivojlantirib bo'lmaydi. Yoki buning aksi ham xuddi shunday natijalarga olib keladi.

Organizmnning hayot faoliyatini susaytiruvchi omilga *cheklovchi omil* deyiladi. Organizmlarga ta'sir qiluvchi omillarning bittasi cheklovchi omil

bo'lishi mumkin. Chunonchi, hayvonlar va o'simliklarning Shimol tomonga qarab tarqalishi issiqlikning yetishmasligi natijasida Janubga tarqalishi esa, namlikning yetishmasligi tufayli kechadi. Demak, organizmlarning Shimolga tarqalishida cheklovchi omil bo'lib harorat hisoblansa, aksincha, Janub tomonga tarqalishida esa cheklovchi omil bu namlikdir.

Omlining faqatgina yetishmasligigina emas, balki ortiqchaligi ham cheklovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ekologik omillarni o'rganish sohasida Yu.Libix ko'p tajribalar o'tkazdi. Uning yozishicha (1840) ekinlarning hosildorligi ko'pincha ular uchun ko'p kerak bo'lgan elementlar ( $\text{SO}_2$  yoki  $\text{N}_2\text{O}$ ) bilan cheklanmaydi, aksincha tuproqda kam uchraydigan va o'simliklar uchun juda kam miqdorda kerak bo'lgan elementlar bilan cheklanadi. Demak, o'simliklarning o'sishi tuproq tarkibida minimum miqdorda uchraydigan elementga (masalan, rux elementiga) bog'liq degan xulosa Libixning "*Minimum qonuni*" deb yuritiladi. Libixning ko'rsatishicha u yoki bu omillarning organizmda yetishmasligigina emas, balki issiqlik, yorug'lik va suv kabi omillarning ortiqchaligi ham cheklovchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

U yoki bu turning yashash imkoniyati bo'lgan ma'lum bir omlining o'zgaruvchan chegarasi *tolerantlik* deyiladi.

Ba'zi bir organizmlarning tolerantlik xususiyati ma'lum bir omilga nisbatan chegaralangan bo'lsa, boshqa xil omilga nisbatan esa keng doirada bo'lishi mumkin. Masalan uy pashshasi (chivini) 7 °S dan to 50 °S issiqlikkacha bardosh berib yashashi mumkin. Uning tolerantlik chegarasi keng. Bunday organizmlarni *evriterm* organizmlar deyiladi. Boshqa xil organizmlarning tolerantlik chegarasi tor bo'lishi mumkin, ularni *stenoterm* organizmlar deyiladi. Tolerantlik qonunini 1913 yilda V.Shelford (Shelford, 1913) asoslab bergen. Bu qonunga muvofiq maksimum chegaralovchi omillarning ta'siri minimum chegaralovchi omillar ta'siri bilan bir xildir.

**Muammoli savol ?** "*Tolerantlik*" qonunini to'ldiruvchi omillar nimalardan iborat?

### **Topshiriqlar:**

- 1.Ekologik omillar guruhlarini aniqlab jadvalni to‘ldiring.
- 2.O‘simliklarga ekologik omillar ta’sirini o‘rganish.
- 3.O‘simliklar hayotida chekllovchi omillar rolini o‘rganish.

**Abiotik omillar**

**Biotik omillar**

**Antropogen omillar**

### **Muhokama savollari**

1. Tashqi muhitdan organizmlar nima oladi va ular o‘z navbatida tashqi muhitga qanday ta’sir ko‘rsatadilar?
2. Ekologik omillar deganda nimani tushunasiz ?
3. Biotik, abiotik va antropogen omillarni tushuntiring ?
4. Tolerantlik nima? Unga misollar keltiring ?
5. Yu.Libixning minimum qonunini tushuntiring ?
6. Biotik omillar va ularning organizm uchun ahamiyati nimadan iborat ?
7. Tabiiy sharoitda organizmlarning bir-biriga ko‘rsatadigan turli xil ta’sirlariga misollar keltiring ?
8. Antropogen omillar va ularning biosferaga ta’siri nimalardan iborat?

### **4-AMALIY MASHG‘ULOT**

**MAVZU: O‘simliklarga biotik omillar ta’siri.**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Talabalarga o‘simliklarga biotik omillar ta’siri haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlannmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** O'simliklar tabiiy sharoitda kamdan-kam hollarda tevarak-atrofdan himoyalangan tur sifatida o'sadi va faqat abiogen omillar kompleksi ta'sirini sezadi. Odatda, o'simliklar guruh hosil qilib, boshqa komponentlar bilan birga, ya'ni hayvonlar, mikroorganizmlar, tuproq va boshqalar bilan u yoki bu darajadagi murakkab ekotizim tarkibiga kiradi. O'simliklar hayvonlar, mikroorganizmlarning o'zaro ta'siri alohida guruhni tashkil etuvchi biotik omillarni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, biotik omil deganda, barcha tirik organizmlarning yashash jarayonida o'zaro va bir-biriga nisbatan ma'lum darajada munosabatda bo'lishi hamda ta'sir ko'rsatishi tushuniladi. Shuni ham aytilish kerakki, yer yuzidagi barcha o'simlik va hayvonlar turining hamda mikroorganizmlarning hayot faoliyati bir-biriga bog'liq holda kechadi. Shunga ko'ra, tabiatda biron ta o'simlik yoki hayvon, yoki bo'limasa mikroorganizm turi yakka holda yashashi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmasdan hayot kechirishi mumkin emas. Qisqasi, o'simliklar qoplamini tashkil etadigan barcha o'simliklar guruhi, tuproqdag'i, suvli muhitdagi mikroorganizmlar, Shuningdek, hayvonlar guruhi doim o'zaro ta'sir etib hayot kechiradi.

Biotik omillar quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganiladi:

- a) o'simliklarning o'simliklarga ta'siri;
- b) hayvonlarniig o'simliklarga ta'siri;
- v) mikroorganizmlarning o'simliklarga ta'siri;
- g) yuqoridagi uch guruh organizmlarning o'zaro ta'siri.

O'simliklarning o'simliklarga ta'siri

O'simliklarning o'simliklarga bevosita ko'rsatadigan ta'siriga quyidagilar kiradi: parazitizm, simbioz holat, bir o'simlikning boshqasiga mexanik ta'siri, bir o'simlik boshqasini siqib chiqarishi, lianalar va epifitlar.

Parazitizm ta'sir ko'rsatish deganda, Shuni tushunish kerakki, bunda bir o'simlik (parazit) boshqa o'simlik tanasi hisobiga yashaydi. Ko'pgina tuban o'simliklar yuksak o'simliklarda parazitlik qilgan holda hayot kechiradi, ayniqsa ular orasida zamburug' va bakteriyalar

ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu xildagi o'simliklar xo'jayin o'simlikka zaharlaydigan darajada ta'sir qiladi, asta-sekin nimjon qilib qo'yadi, ko'pincha esa nobud qiladi. Ular boshoqdosh va o't o'simliklarnigina emas, balki daraxt hamda butalarni ham nobud qiladi. Hayvonlar tarqalishida aniq o'simlik guruhlari fitotsenozlari bilan bog'langan bo'ladi. Hayvonlar va o'simliklarning o'zaro munosabatini o'rganishda hayvonlarning o'simliklarga ko'rsatadigan foydali va zararli ta'sirini farq qilish kerak bo'ladi. Yovvoyi hayvonlar, chamasi, zarardan ko'ra ko'proq foya keltiradi. Hayvonlar keltiradigan asosiy zarar o'simliklarni yeb tugatish, payhon qilishdan iborat. Lekin ko'pincha hayvonlarning o'simliklarni yeyishi foydali bo'ladi.



*I-rasm*

#### **Topshiriqlar:**

1. O'simliklarni o'simliklarga ta'sirini o'rganish.
2. Hayvonlarning o'simliklarga ta'sirini o'rganish.
3. Mikroorganizmlarning o'simliklarga ta'sirini o'rganish.

#### **Mavzu yuzasidan test savollari:**

1. Konkurensiyaga chidamli turlar nima deb aytildi?

- A) Patient
- B) Eksplerent
- C) Violent
- D) Kserofit

2. Konkurensiyaga chidamsiz bo'sh joylarni egallovchi turlar nima deyiladi?

- A) Patient
- B) Eksplerent
- C) Violent
- D) Kserofit

3. Qiyinchiliklarga bardosh beruvchi turlar nima deyiladi?

- A) Patient
- B) Kserofit
- C) Violent
- D) Eksplerent

4. Biotop nima ?

- B) Turlarning yashab turgan o'mi
- B) Biosnozning yashab turgan o'mi
- S) Popuyatsyaning o'mi
- D) Tug'ilish, o'lish, immigratsiya

5. Regressiv popuyasiya nima?

- A) Zichligi oshgan populyatsiya
- B) Zichligi kamaygan populyatsiya
- S) Yosh organizmlar paydo bo'lmayotgan yo'qolish xafi bor populyatsiya
- D) Migratsiya oshgan populyasiya

6. Progressiv populyatsiya nima?

- A) Tarkibida yosh organizmlari ko'p rivojlanib borayotgan populyasiya
- B) Zichligi oshgan populyasiya
- S) Migratsiya oshgan populyasiya
- D) Migratsiya kamaygan populyasiya

### **Muhokama savollari**

1. Biotik omillarning o'simliklar hayotidagi ijobiylari salbiy ta'siri?

2. O'simliklarining bir biroviga ta'siri?

3. Tekinxo'r o'simliklarni xarakterlang?

4. O'simliklar bilan simbioz xolatda yashovchi organizmlar?

5. Hayvonlarning o'simliklarga ta'sirini izohlab bering?

## 5-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: O'simliklarga abiotik omillar ta'siri.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarga abiotik omillar ta'siri haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishfannmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Bizning ona sayyoramizda mavjud bo'lgan hayvonlar, o'simliklar hamda hayot kechirayotgan boshqa organizmlar yoki jonzotlarning soni, serobligi va geografik tarqalishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi har qanday tashqi omillar ekologik omillar deb ataladi.

O'z tabiatiga ko'ra, shuningdek, tirk organizmlarga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha ekologik omillar juda xilma-xildir. Muhitning barcha omili shartli ravishda uchta katta guruhga ajratiladi. Bular abiotik, biotik va antropogen omillardir.

Abiotik omillar - bu notirik, yani jonsiz tabiat omillaridir. Bu omillar 3 guruhga bo'lib o'rjaniladi.

1. Iqlimiyl: quyosh nuri, harorat, havo namligi, shamol, radiatsiya, gravitatsiya, bosim.


2. Tuproq-edafik: tuproqning mexanik va kimyoviy tarkibi, uning fizik xususiyatlari.

3. Orografik: yer sharining rel'ef sharoitlari.

Bu omillar organizmga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Masalan, yorug'lik va issiqlik bevosita ta'sir ko'rsatsa, relyef bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar - yoritilganlik, namlik, shamol va boshqalarining ta'sirini belgilaydi.

Iqlim omillari - bu guruhga yorug'lik, harorat, havo namligi, shamol, radiatsiya, bosim, tortishish kuchi kabi omillar kiradi. Iqlim omillari o'simlik dunyosiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarga nisbatan o'simliklar ma'lum darajada javob reaksiyasini beradi. Muhitning harorati o'simliklarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uning ta'sirida o'simlik tanasidagi issiqlik balansi, fiziologik jarayonlar kechish o'zgaradi. Turli o'simliklar iqlim omillariga turlicha moslashgan bo'ladi. Shuning uchun ular turlicha miqdordagi omillarni qabul qiladi. Muhit omillarining organizmlarga eng qulay darajasi – optimum deyiladi. Optimumdan ortiq yoki kam darajadagi omil ta'siri organism hayot faoliyati pasayadi va maksimum yoki minimum darajada ta'sir qilsa hayot faoliyati to'xtaydi. Organizmlarning abiotik omillarning quyi va yoqori darajasiga moslashuvi chidamlilik chegarasi yoki ekologik valentligi deb ataladi.



*2-rasm Abiotik omillarni ta'siri*

Darsni mustahkamlash uchun o'quvchilarni guruhgaga ajratib olamiz.

1-Guruh- Robert Guk

2-Guruh – Charliz Darven

3-Guruh- Mendel

Suvda yashovchi hayvonlarning ekologik guruhlari va ularning vakillarini juftlang. Ekologik guruhlar: 1) plankton; 2) nekton; 3) bentos. Vakillar: a) cho'rtan; b) meduza; d) kambala; e) osminog; f) krab; g) dafniya; h) qisqichbaqa.

O'z fikringizni aytинг.

1. Nima sababdan qish va yoz oylarida baliqlaming ko'plab qirilishi kuzatiladi? Buning oldini olish chora-tadbirlarini aytинг.

**Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Jadvalni to'ldiring va hayvonlarning yashash muhitiga moslanishlarini yozing.

<b>Hayvonlar</b>	<b>Moslanishlar</b>
Kasatka	
Beluga	
Manta	
Dengiz toshbaqasi	
Meduzalar	
Aktiniyalar	
Ignalari	

2. Biologik diktant. Ro'yxatda berilgan atamalarni jadvalga mos ravishda joy- lashtiring. Atamalar: muhit, plankton, moslanish, ekologik omillar, yashash muhiti, nekton, gidrobiontlar, bentos.

<b>Nº</b>	<b>Atama ma'nosi</b>	<b>Atama</b>
1	Faol harakatlanuvchi, oqimga qarshi tura oladigan organizmlar	
2	Organizmlarga to'gri va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi elementlar	
3	Suvda yashovchi organizmlar	
4	Tabiatning tirik organizmlarga ta'sir ko'rsatadigan va ularda moslanishlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladigan har qanday tarkibiy qismi	
5	Tabiatning biotik va abiotik komponentlari yigindisi	
6	Muayyan muhitda organizmlarning yashab qolishi va nash qoldirishi	
7	Suv qa'tida yashovchi, mustaqil harakatlana olmaydigan organizmlar	
8	Suv tubida yoki suv tubidagi qumlarda yashovchi organizmlar	

## Muhokama savollari

1. Abiotik omillar haqida tushuncha bering.
2. Abiotik omillar tavsiflanishini tushuntirib bering.
3. O'simliklarga biotik omillar ta'siri haqida tushuntiring.
4. Ekologik omillar guruhini tushuntirib bering.
5. Iqlim omillari haqida ma'lumot bering.

## 6-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU:** O'simliklarning ekologik guruhlarini o'rghanish.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarning ekologik guruhlari to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmalari, tarqatma materiallari va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Har bir inson o'zi yashaydigan ekotizimga mos keladigan ma'lum mahorat va morfologik xususiyatlarni rivojlantiradi. Shunga asosan o'simliklar ekologik guruhlarga bo'linadi.

### 1. Tuproq substratiga nisbatan

Ushbu mezonga ko'ra, o'simliklarning beshta asosiy guruhi mavjud. Bunga quyidagilar kiradi:

- asosan kislotali tuproqlarda o'sadigan o'simliklar - oksilofitlar;
- tuzlarga boy tuproqda yashovchi o'simliklar - halofitlar;
- qumda yoki uning ustunligi bilan tuproqda o'sadigan organizmlar - psamofitlar;
- tik jinslarda yashovchi tosh o'simliklar - litofitlar;
- tog'li hududlarda - xazzofitlar.

### 2. Namlikka nisbatan

O'simlikning namlikka bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, o'simliklarni quyidagi ekologik guruhlarga bo'lish mumkin:

- gidrofitlar - suv yaqinida o'sadigan o'simliklar;
- mezofitlar - tuproqda o'sadigan, quruq va ho'l bo'limgan o'simlik organizmlari;

- kserofitlar - suvning to'liq yo'qligi yoki uning oz miqdori sharoitida o'sadigan o'simliklar.

### Oksilosifitlar

Ushbu toisaga deyarli barcha sfagnum botqoq o'simliklari kiradi. Bunga chakalak, paxta o'tlari, sfagnum moxlari, mitti qayinlar, bulutlar va quyosh botqoqlari kiradi. O'simliklar yuqori kislota bilan quruq torfda o'sadi. Ularning ko'plari uchun morfologiyaning o'ziga xos xususiyati gubkali to'qimalardan tashkil topgan hujayralararo bo'shilqlarning mavjudligi.

### Galoftitlar

Ushbu o'simlik guruhiga tuz miqdori yuqori (0,5% dan ortiq) bo'lgan joylarda o'sadigan organizmlar kiradi. Bunday joylarga dengizlar, okeanlar va sho'r botqoqlar kiradi. Bularga keng tarqalgan gumburlash, sho'rlangan chinor, Gmelining kermek va boshqa ko'plab o'simliklar kiradi. Galofitlarning xarakterli xususiyati yuqori konsentrangan vakuolali sharbatni toplash qobiliyatidir, keyinchalik u kristalli tuz konlari shaklida tashqariga chiqadi.

### Psamofitlar

Boshqa yo'l bilan, bu organizmlar "harakatlanuvchi qumlarning o'simliklari" deb nomlanadi. Bularga qumli akatsiya, qumli tosh, saksovul, qandim kiradi. Qoida tariqasida, ushbu guruhga kiradigan barcha o'simliklar yalang'och ildizlarga va kam rivojlangan barglarga ega. Ba'zida asirlari umuman bo'lmasligi mumkin.

### Litofitlar

Yuqorida aytib o'tganimizdek, litofitlar toshli tuproqlarda yashaydi. Ushbu o'simliklarning ildizlari substratga kirib, uni yo'q qilishi mumkin. Shunday qilib, bu o'simliklar tuproqni talab qiladigan boshqa o'simliklar uchun substrat tayyorlaydi. Ushbu guruhning odatiy vakili - qarama-qarshi bargli saksovul.

### Xazmofitlar

Xasmofitlar toshli yoriqlarga chuqr kirib borishi mumkin bo'lgan uzun ildizlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Aynan shu xususiyat o'simliklarning toshloq yerlarda qolishiga imkon beradi. Ushbu o'simliklar suv uchun injiq emas va uzoq vaqt davomida namlik

etishmasligi mumkin. Ushbu guruhning odatiy vakillariga qarag'ay, toshli eman, archa, saksovul kiradi.

#### Gidrofitlar

Gidrofitlar erga faqat pastki qismlari bilan birikadigan suv o'simliklari. Ushbu ekologik tur daryolar, ko'llar, suv havzalari qirg'og'ida va suv bo'lgan joylarda o'sadi. Bunga botqoq va botqoqli yerlar kiradi. Ushbu turdag'i o'simliklar yaxshi rivojlangan ildiz tizimiga va suv o'tishiga imkon beradigan mexanik to'qimalarga ega. Gidrofitlarga qamish, chastuha, suv zambaklar, shoxli barglar kiradi.

#### Mezofitlar


Mezofitlar eng keng tarqalgan o'simlik guruhlaridan biridir. Bu o'rtacha namlik bo'lgan tuproqlarda o'sadigan quruqlik o'simliklari. Ular gidrofitlar va kserofitlar orasidagi oraliq pozitsiyani egallaydi. Bularga o'tloq timoti, liliya, lilac, goldenrod kiradi.

#### Kserofitlar

Ushbu guruh o'simliklari juda quruq tuproqda yashashga moslashgan. Ular quyidagi morfologik belgilari bilan tavsiflanadi:

- qalin kaifikula;
- tor barglar yoki ularning yo'qligi;
- balog'at yoshi.

Ushbu ekologik guruhning taniqli vakillari orasida saksovul, supurgi, tamarisk kiradi.




3-rasm O'simliklarni ekologik guruhlari

**Muammoli savol ? O'simliklarning ekologik guruhlarini haqida ma'lumot bering?**

### **Topshiriqlar:**

1. O'simliklarning ekologik guruhlarini o'rganish.

**O'SIMLIKLARNING EKOLOGIK GURUHLARI**



2. O'simliklarda ekologik guruhlarni tartibga solishni o'rganish.
- 3.O'simliklarning ekologik guruhlarining hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash.

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

<b>№</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
1			
2			
3			
4			
5			

### **Muhokama savollari**

1. Ekologik guruh haqida tushuncha tushuncha bering ?
2. O'simliklarda ekologik guruhlarlari haqida ma'lumot bering ?

- 3.O'simliklarning ekologik guruhlarining hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushuntirib bering ?
4. Kserofitlar haqida ma'lumot bering?
5. Mezofitlar haqida ma'lumot bering?

## 7-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: O'simliklar olamida moslanishlar.

**Mashg'ulot maqsadi:** o'simliklar olamida moslanishlar haqida talabalarga tushuncha berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmalari, tarqatma materiallar,jadvallar.

**Ish tartibi:** O'simlikning o'ziga xos atrof-muhit sharoitlariga moslashishi fiziologik mexanizmlar (fiziologik moslashuv), organizmlar (turlar) populyatsiyasida esa irsiy o'zgaruvchanlik, irsiyat va seleksiya (genetik moslashish) mexanizmlari orqali ta'minlanadi. Atrof muhit omillari tabiiy va tasodifiy o'zgarishi mumkin. Muntazam ravishda o'zgarib turadigan atrof-muhit sharoitlari (yil fasllarining o'zgarishi) o'simliklarda ushbu sharoitlarga genetik moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

Adaptatsiya - bu tirik organizmlarning ma'lum atrof-muhit sharoitlariga moslashish jarayoni. Moslashuvning quyidagi turlari mavjud:

1.Iqlim va boshqa abiotik omillarga moslashish (barglarning tushishi, ignabargli daraxtlarning sovuqqa chidamliligi).

2.Oziq-ovqat va suv olishga moslashish (cho'lda o'simliklarning uzun ildizlari).

3.Yirtqichlardan himoyalanishga va kasalliliklarga va parazitlarga (o'simliklardagi parchalar) qarshilik ko'rsatishga qaratilgan moslashish.

4.Moslashish, hayvonlarda sherik izlash va jalb qilishni ta'minlash va o'simliklarda changlanish (hid, gullardagi yorqin rang).

5.Hayvonlardagi migratsiyaga moslashish va o'simliklarda urug'larining tarqalishi (shamol o'tkazish uchun urug'lar uchun qanotlar, urug'lar uchun tikanlar).

**Muammoli savol ? Moslanish darajasi haqida ma'lumot bering ?**

Turli xil o'simlik turlari salbiy sharoitlarda qarshilik va omon qolishni uchta asosiy usul bilan ta'minlaydi: ularga salbiy ta'sirlarni oldini olishga imkon beradigan mexanizmlar (tinchlik, efemiya va boshqalar); mahsus konstruktiv qurilmalar yordamida, atrof-muhitning zararli ta'sirini yengishga imkon beradigan fiziologik xususiyatlari tufaylidir. Mo'tadil zonalarda yillik qishloq xo'jaligi o'simliklari, nisbatan qulay sharoitlarda o'z ontogenezini yakunlab, barqaror urug'lar ko'rinishida (tinchlik davri) bo'ladi. Ko'p yillik o'simliklar tuproq va qor qatlami bilan muzlashdan himoyalangan yer osti saqlash organlari (piyozbosh yoki ildizpoya) shaklida qishlashadi. Mo'tadil zonalarning mevali daraxtlari va butalari, o'zlarini qishki sovuqdan himoya qilib, barglarini to'kishadi.

O'simliklardi noqulay atrof-muhit omillaridan himoya qilish strukturaviy moslashuvlar, anatomik tuzilish xususiyatlari (kutikula, po'stloq, mexanik to'qimalar va boshqalar), mahsus himoya organlari (tuklar, tikanlar), harakat va fiziologik reaksiyalar, himoya moddalar ishlab chiqarish bilan ta'minlanadi. (qatronlar, fitontsidlar, toksinlar, himoya oqsillari).

Tuzilmaviy moslashuvlarga mayda barglar va hattoki barglarning yo'qligi, barglar yuzasida mumsimon kutikula, ularning zinch tushishi va stomataning botishi, suv zahirasini saqlaydigan suvli barglar va poyalar borligi, erektoid yoki osilgan barglar va boshqalar kiradi. Atrof muhitning noqulay sharoitlariga moslashishga imkon beradigan turli xil fiziologik mexanizmlarga ega. Bu suvli o'simliklarning fotosintezining o'ziga xos turi, suv yo'qotilishini minimallashtiradi va dashtdagi o'simliklarning omon qolish usullari cho'lda o'simliklarning yashashi uchun juda muhimdir va h.k.

### **Topshiriqlar:**

1. Moslanishlar ko‘rinishlarini o‘rganish.
2. Moslanishlarning nisbiyligini o‘rganish
3. O‘simliklar olamida moslanishlar darajasini o‘rganish.

### **Test savollari:**

1. Maxmud Qoshg‘ariy asarlarida nechta o‘simlik turi haqida ekologik ma’lumotlar berilgan?

- A) 200
- B) 250
- S) 300
- D) 480

2. Organizmlarning muhitiga moslashishi:

- A) Adaptatsiya
- B) Evribiont
- S) Stress
- D) Gomeostaz

3. Produtsentlarning roli:

- A) Anorganik birikmalar xisobiga organik moddalar xosil qiladi
- B) Tayyor organik moddalarni parchalaydi
- S) O‘lik moddalarni parchalaydi
- D) Anorganik elementlar zaxirasini yaratadi

4. O‘simliklarning hayotiy shakllari:

- A) Daraxt, buta, chala buta, o‘t o‘simliklar
  - B) Bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik
  - S) Chala buta, suv o‘simliklari, yaylovlari
  - D) Cho‘l, tropik, tundra «hududi o‘simliklari
5. O‘zR “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida” qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 1997 yil
- B) 1999 yil
- S) 2001 yil
- D) 2006 yil.

## Muhokama savollari

- 1.Moslanishlar haqida tushuncha bering ?
- 2.Moslanishlarning nisbiyligi haqida ma'lumot bering ?
- 3.O'simliklar olamida moslanishlarni tushuntiring ?
4. Adaptatsiya nima?
- 5.Migratsiya deganda nimani tushunasiz?

## 8-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU:** Atrof-muhit omillarinit o'simliklar ko'payishiga ta'siri.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga atrof-muhit omillarining o'simliklarning ko'payishiga ta'siri to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** Atrof-muhit deganda, odatda, tirik organizmlarga ta'sir ko'rsatadigan va ular bilai birga bo'ladigan tashqi muhit sharoiti majmuasi tushuniladi. Tirik organizmlar bilan ularni o'rabi turgan muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir, moddalar va energiya almashinuvni hamda organizmlarning doimiy ravishda o'zgarib turadigan hayot sharoitiga moslashuvi ularning yer yuzida hayot kechirishiga imkon beradi.O'simliklarning tashqi muhit sharoiti bilan o'zaro munosabati ekologiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi. shunga ko'ra, ekologiyaning asosiy vazifasi organizmlar bilan uni qurshab olgan tashqi muhit omillarining o'zaro munosabatini o'rganish, aniqlash, targ'ib etish va ko'rsatishdan iborat.


almashish jarayoni tezlashib ketadi va natijada havoning harorati tez tushadi. Agar havoning harorati yuqori bo'lsayu, havoning harakat tezligi past bo'lsa bu jarayon sekinlashadi, natijada issiq havoning inson organizmiga ta'siri kuchayadi. Havoning harorati, nisbiy namligi va tezlik o'lchamlarini inson uchun eng ma'qul o'zaro munosabatlari, yuqoridagi noxush holatlarni oldini olishga xizmat qiladi va muhitning mutanosibligi deb yuritiladi.

MXMT mehnat jarayonida ikki ko'rinishdagi mikroiqlim sharoitni tashkil etadi.

- a) O'ta mutanosib (eng ma'qul);
- b) Ruxsat etsa buladigan (qoniqarli).

Bularning ta'sirida insonning vujudida harorat almashinishi va mehnat qiliш qobiliyatining buzilmasligini ta'minlangan buladi. Bunday sharoitda haroratning mo'tadilligi to'la ta'minlanadi va mehnat qobiliyati yuqori buladi.

Olimlarimiz, shartli ravishda iqlim mutanosibligini aniqlash uchun effektli va ekvivalent-effektli haroratlar ko'rinishidagi nisbiy birliklar tavsiya etilganlar.

- a) effektli harorat deb, binodagi havoning nisbiy namligi me'yor darajasida bo'lib, uning tezligi nolga teng bo'lgan holatini aks etuvchi haroratga aytildi.
- b) ekvivalent-effektli harorat deganda esa, binoda ma'lum nisbiy namlikka va har xil tezlikka ega bo'lgan havoning haroratiga aytildi.

#### **Blits savollar**

1. Iqlim omillari haqida ma'lumot bering.
2. Mikroiqlimni shakllantiruvchi omillarni tushuntiring.

### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan o'lingan ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Topshiriqlar:**

1. Iqlimni shakllantiruvchi omillarni o'rganish.
2. Miqroiqlim izlanishlarini olib borishni o'rganish.

### **Muhokama savollari**

1. Iqlimni shakllantiruvchi omillar haqida tushuncha bering ?
2. Mikroiqlim haqida ma'lumot bering ?
3. Miqroiqlim izlanishlarini olib boorish haqida tushuncha bering ?
4. Okeanlar haqida ma'lumot bering ?
5. Iqlim o'zgarishi va erroziya.

## **19-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU:** Turli joylarda o'suvchi o'simliklarning morfologik xususiyatlarini taqqoslash.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga turli joylarda o'suvchi o'simliklarning morfologik xususiyatlarini taqqoslash to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** O'simliklar morfologiyasi, fitomorfologiya — botanikaning bo'limi; o'simliklarning tuzilishi va forma hosil bo'lishi jarayonlaridagi qonuniyatlarni o'rghanadigan fan. O'simliklar morfologiyasining tarixiy taraqqiyoti davomida undan o'simliklar anatomiyasи, o'simliklar embriologiyasi, sitologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Tabiatdagi o'simliklarning morfologik jihatdan turli tumanligini aniqlash; tuzilishi, organlar va organlar sistemasining o'zaro joylashuvi qonuniyatlarini o'rghanish; o'simliklarning umumiy tuzilishi va ayrimi organlarining individual rivojlanishida (ontomorfogenez) o'zgarishini tadqiq etish; o'simlik dunyosining evolyutsion rivojlanishida organlarning paydo bo'lishini izohlash (filomorfogenez); forma hosil bo'lishida turli xil tashqi va ichki omillar ta'sirini o'rghanish O'simliklar morfologiyasining asosiy muammolaridan hisoblanadi.

Morfologik tadqiqotlarning asosiy metodlari - tasvirlash, chog'ishtirma va eksperimental metodlardir. Birinchisi o'simlik organlari va organlar sistemasini tasvirlaydi (organografiya), ikkinchi metodda tasvirlangan material tavsiflanadi va h.k. Eksperimental metodda nazorat etiladigan tashqi muhit kompleksi sun'iy hosil qilinadi hamda bu sharoitda o'simliklarning morfologik reaksiyasi va boshqalar o'rGANILADI. O'simliklar morfologiyasi botanikaning boshqa bo'limlari: o'simliklar paleobotanikasi, o'simliklar sistematikasi va filogeniyasi, o'simliklar fiziologiyasi, o'simliklar ekologiyasi, o'simliklar geografiyasi va geobotanika, genetika va o'simlikshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

O'simliklar morfologiyasi juda qadimdan o'rGANILA boshlangan. 17-asrda O'simliklar morfologiyasini nazariy umumlashtirish sohasida dastlabki ishlar qilingan (italiyalik olimlar A.Sezalpin, M.Malpigi, nemis olimi I.Yung). Lekin O'simliklar morfologiyasi soha sifatida 18-asr oxirlarida shakllandi. Bu vaqtida "O'simliklar metamorfozi haqida tajriba" kitobi nashr qilinib, bunda I.V.Gyote "morfologiya" terminini fanga joriy etishni taklif etdi.

O'simliklar morfologiyasining eksperimental metodi (termin K.A.Timiryazev tomonidan taklif etilgan, 1890)ning rivojlanishiga A.N.Beketov katta hissa qo'shdı; u o'simlik organlarining fiziologik funksiyalari va tashqi muhit ta'sirini forma hosil bo'lishida muhim omil deb hisobladi. Rus botanigi N.F.Levakovskiy quruqlikda yashovchi o'simlik novdalarining suv muhitidagi holatini eksperimental o'rgandi (1863), nemis fiziologi G.Fyoxtin o'simlik formasiga turli tabiiy sharoit ta'sirini eksperimental kuzatdi (1878—82) hamda o'simliklarda qutblik hodisasini ochdi.

Nemis botaniklari G.Klebs (1903) va K. Gyobel (1908) organlarning o'sish formasi aniq omillar (yorug'lik, namlik, oziq) ga bog'liq ekanligini tajribada aniqlashdi va sun'iy metamorfoz hosil qilishdi. Ekologik o'simliklar morfologiyasi o'simliklar geografiyasi va ekologiyasi bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Daniyalik E.Varming va K.Raunkiyer, nemis botanigi A.Shimper mazkur yo'nalishga asos solishdi. Chog'ishtirmamorfologik yo'nalish V.Trollya (GFR) va uning shogirdlari ishlari bilan boshlandi. Yopiq urug'lilarning morfologik evolyutsiyasini rus botanigi A.L.Taxtajyan tavsiflab berdi. Ontogenetik va eksperimental yo'nalish o'simliklar fiziologiyasi bilan birga jadal rivojlandi (morfogenez). Morfogenez to'g'risida amerikalik olim E.Sinnot ishlarida bataysil ma'lumot beradi. Yuksak o'simliklarda organo va gistogenczning asosiy manbai hisoblangan novda va ildiz o'sish konusini o'rGANISH bo'yicha bajarilgan ishlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Mazkur sohadagi nazariy umumlashmalar shved olimi O.Shyupp (1938), amerikalik - A.Foster va uning xodimlari (1936- 54), K.Esau (1960-65), nemis G.Guttenberg (1960-61), anglialik - F.Klous (1961)ga tegishli.


O'zbekistonda anatomik metod keng qo'llanishi asosida morfogenez sohasida muhim ishlar olib boriddi; qiyin ekologik sharoitda yashovchi ob'yektlarda organogenez etaplar va ularning tashqi muhitga bog'liqligi to'g'risidagi ta'lilot shular jumlasidandir. Chog'ishtirma ekologik O'simliklar morfologiyasi sohasidagi ma'lumotlar faqat forma hosil bo'lish qonuniyatini tushuntirish bilan birga ulardan amaliyotda foydalanishga imkon berdi. Ontomorfogenez, ekologik va eksperimental

O'simliklar morfologiyasi sohasidagi tadqiqotlar o'tmonchilik va o'tloqchilikning biologik asoslarini yaratishda hamda manzarali o'simliklar yetishtirish usullarini ishlab chiqishda ahamiyatga ega. Botanika bog'laridagi introduksiyalash ishlarida ontogenetik va ekologik O'simliklar morfologiyasi ma'lumotlariga asoslaniladi va ayni vaqtida bu ishlar yangi nazariy xulosalar uchun material beradi. O'zbekistonda "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazida ham O'simliklar morfologiyasining turli sohalarida tadqiqot ishlari olib boriladi.

### **Topshiriqlar:**

- 1.Turli joylarda o'suvchi o'simliklarni o'rGANISH.
- 2.O'simliklarning morfologik xususiyatlari
- 3.O'simliklarning morfologik xususiyatlarini aniqlab, o'xshashlik jihatlarini va bir – biridan farqlarini venn diagrammasi orqali amalga oshiring.,

### **Venn diagrammasi**



### **Muhokama savollari**

- 1.Turli joylarda o'suvchi o'simliklar haqida tushuncha bering ?
- 2.O'simliklarning morfologik xususiyatlari haqida ma'lumot bering ?
- 3.O'simliklarning morfologik xususiyatlarini taqqoslash haqida tushuncha bering ?
4. Morfologik tadqiqotlarning asosiy metodlari

5. Tabiatdagি o'simliklarning morfologik jihatdan turlitumanligini aniqlash

## 20-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: O'simliklarning namlik omiliga nisbatan ekologik guruhlarini o'rGANISH

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarning namlik omiliga nisbatan ekologik guruhlari to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** O'tgan asrning oxirida A. Shimper va Ye. Varming suv rejimiga munosabatiga ko'ra, o'simliklarni 3 ta ekologik guruhga: gigrofitlar, mezofitlar va kserofitlarga bo'lishni taklif etganlar. Biz yuqorida aytib o'tgan quruq iqlim sharoitida o'sadigan o'simliklar uchun tipik bo'lган morfologik belgilari bu guruhlarning har qaysisi uchun u yoki bu darajada xosdir. Quyida bu guruhlarga mansub o'simliklarning gigromorf, mezomorf va kseromorf tuzilishi haqida fikr yuritamiz.

A.P. Shennikov (1950) Shimper va Varmingdan keyin o'simliklarni quyidagi guruhlarga bo'ladi: 1) gigrofitlar-soya va yorug'da o'sadigan; 2) kserofitlar-bular sukkulentlarga-suv zapas qiladigan to'qimalari bo'lган seret, sersuv o'simliklarga va sklerofitlarga-quruqroq, ingichka, qattiq o'simliklarga bo'linadi; 3) psixrofitlar-shimolda yoki baland tog'li zonada nam va sovuq joylarda o'sadigan o'simliklar; 4) kserofitlar-shimolda yoki baland quruq va sovuq joylarda o'sadigan o'simliklar; 5) mezofitlar-namgarchilik o'rtacha bo'ladigan sharoitda o'sadigan, gigrofitlar bilan kserofitlar orasidagi o'simliklar. Ushbu klassifikatsiyasiga asoslanib, o'simliklarning quyidagi asosiy tiplari bilan tanishamiz.

Gigrofitlar. Gigrofitlarga quruqlikda o'sadigan o'simliklar kiradi, ularning ontogenezi suv bilan yaxshi ta'minlangan va havo namligi yetarli bo'lган sharoitda o'tadi. Shuning uchun ular quruqlikda yashash

uchun hech qanday alohida anatomiq-morfologik yoki fiziologik moslashuvga ega emas. Tropik o'rmonlarning nam va issiq sharoitida o'sadigan, shuningdek, bizdagi salqin o'rmonlarda tarqalgan o'simliklar gigrofitlarning tipik vakillari hisoblanadi. «Gigrofitlar» degan nomning o'zi ular suv bug'i bilan to'yingan havo sharoitida o'sishini ko'rsatadi. Mo'tadil zonadagi gigrofitlarni 2 guruhga bo'lish mumkin: a) soya o'rmonlarda o'sadigan yupqa bargli gigrofitlar (adoksa, cho'pxina va boshqalar) havoning yerga yaqin qatlamidagi namni saqlaydi. Havo quruq bo'lsa, ular tez so'lib qoladi, b) ochiq joylarda o'sadigan yorug'sevlar gigrofitlar uchun tuproq va havo doim nam bo'lishi kerak (kalujnitsa, boltiriq va boshqalar). Ular suv rejimining o'zgarib turishiga kam moslashgan bo'lib, tez so'lib qoladi va suv bilan yaxshi ta'minlangan sharoitda ularning hayot faoliyati keskin pasayib ketadi. Bu o'simliklarning kam shoxlanadigan ildizi va barglari parenxima bilan ta'minlangan bo'ladi. Barglaridagi ustunsimon parenxima va sklerenxima kuchsiz rivojlangan, kutikułasi esa bilinmaydi. Og'izchalari ko'pincha barglarining ikkala tomonida joylashadi, lekin ular orqali transpiratsiyaning tartibga solinishi kuchsiz ifodalangan. Bularning hammasi barglarning va butun o'simlikning gigromorf tuzilish belgilaridir.

**Muammoli savol ?** Namlikka nisbatan o'simliklarini ekologik guruhlarini tushuntirib bering ?

#### **Topshiriqlar:**

- 1.O'simliklarning ekologik guruhlarini o'rganish.
- 2.O'simliklarning namlik omiliga nisbatan ekologik guruhlarini o'rganish.

**Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

Nº	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			

2			
3			
4			
5			

### Muhokama savollari

- 1.O'simliklarning va namlik haqida tushuncha bering ?
- 2.O'simliklarning ekologik guruhalarni tushuntiring ?
- 3.O'simliklarning namlik omiliga nisbatan ekologik guruhalarni o'rganish haqida tushuncha bering ?
- 4.Gigrofitlar nima?
5. Namlikka nisbatan o'simliklarini ekologik guruhalarni tushuntirib bering ?

### 21-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: O'simliklarning tuproq sho'rланishiga chidamliligi bo'yicha ekologik tavsifini o'rganish.**

**Mashg'ulot maqsadi:** talabalarga o'simliklarning tuproq sho'rланishiga chidamliligi bo'yicha ekologik tavsifini o'rganish to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** Yer yuzasi tuproqlarining deyarli to'rtidan bir qismini u yoki bu darajada sho'rланади. Gumiid iqlimli oblastlarda tuproqlarning oson eruvchan tuzlar bilan sho'rланishi ayrim hollardagina ro'y beradi, masalan, ular bu tuzlarga boy bo'lgan sizot suvlarning yuqoriga ko'tarilishi natijasida sho'rланади (masalan, dengiz qирғоqlarida). Lekin tuproq yuvilishi uchun yog'in-sochin suvlari yetishmaydigan va tuzlarga boy bo'lgan suvning yuqoriga ko'tarilish oqimini keltirib chiqaradigan bug'lanish ustunlik qiladigan issiq, arid iqlimli oblastlarda tuproqning

sho'rlanishi tabiiy hol bo'ladi, shunga ko'ra, sho'rlangan tuproqlar Janubiy rayonlardagi dasht va cho'l zonalarida keng tarqalgan.

Sho'rlangan tuproqlar, odatda, tuzlar tarkibiga va sho'rlanish darajasiga qarab bir-biridan farq qiladi. Birinchi holda asosan anionlar hisobga olinadi va tuzlar tarkibiga ko'ra sulfat-sodali, xlorid-sulfatli, sulfat-xloridli, xloridli sho'rlanish farq qilinadi. Nitratli sho'rlanish kamdan-kam holda uchraydi. Sho'rlanish darajasi bo'yicha olganda, tuproq gorizontidagi oson eruvchan tuzlar miqdori 0,25% dan kam bo'lsa, bunday tuproqlar sho'rlanmagan hisoblanadi. Agar tuproq profilining 150 sm gacha chuqurligida bunday gorizont uchramasa, tuproq umuman sho'rlanmagan hisoblanadi. Agar tuproq tarkibidagi tuzlar miqdori uning umumiyligi massasidan 0,25% dan ko'proqni tashkil qilsa va bu xildagi gorizont tuproq profilining 80-150 sm chuqurligida uchrasha, bunday tuproq kuchsiz sho'rlangan tuproq hisoblanadi. Tuzlar tuproqning 30-80 sm chuqurligida uchrasha, bunday tuproq sho'rxoksimon, 5-30 sm chuqurlikda uchrasha, sho'rxok tuproq deb ataladi. Nihoyat, tuproqning eng ustki gorizonti tarkibidagi tuzlar miqdori kamida 1% ni tashkil etsa, bunday tuproq sho'rxok deb ataladi. Alohida galofit, odatda, sho'ra o'simliklar qoplami bular uchun xosdir. Sho'rxoklar asosan yaxshi eruvchan tuzlar bilan sho'rlangan bo'ladi. Bularga kalsiy xlorid (eruvchanligi 74,5%), magniy xlorid (54,5%), magniy sulfat (36,0%), osh tuzi (36,0%), natriy sulfat, natriy karbonat (21,5%), natriy bikarbonat (9,0%) va boshqalar kiradi. Sho'rxoklarda natriy tuzlari ko'p bo'ladi. Agar tuproq faqat xloridlar va sulfatlar bilan sho'rlangan bo'lsa, u vaqtida tuproq eritmasining reaksiyasi neytralga yaqin bo'ladi. Soda bilan sho'rlanganda (G'arbiy Sibirda, Qozog'istonning shimoli-sharqida) tuproq eritmasining pH 9-11 ga yetishi mumkin. Lekin tabiatda ko'pincha tuzlar yuvilib ketishi kuzatiladi, ya'ni sho'rmning kamayishi sodir bo'ladi. Masalan, iqlim namlanishi yoki ko'pincha sizot suvlar sathi pasayishi natijasida shunday bo'ladi. Sho'rmning yuvilishi, ya'ni oson eriydigan (ayniqsa natriyli) tuzlar ishqoriyligining pasayishi bilan, sho'radan iborat o'simlik qoplami (masalan, janubiy dashtlarda) asta-sekin shuvoq so'ngra g'alladoshlar bilan almashinadi. Bu protsess sho'rtoblanish deyiladi,

bunda hosil bo'lgan tuproq sho'rtob deb ataladi. Sho'rtoblar ko'pchilik hollarda sho'rtob qatlam ostida joylashgan gorizontdagи eruvchan tuzlar bilan sho'rangan va pH ning qiymati neytralga yaqin bo'ladi. O'simliklar uchun sho'rtob gorizontning strukturasi ham ahamiyatga ega. Quruq holatda bu gorizont kuchli darajada zinchashgan, nam holatda strukturasiz va surkaluvchan bo'ladi.

Sho'rangan tuproqlar evolyutsiyasi sho'r yuvish protsessida, odatda, sho'rtob bosqichida to'xtab qolmaydi. Sizot suvlar sathining keyinchalik pasayib borishi natijasida sho'rtob bilan sizot suvlar o'rtasidagi aloqa uzilib qolishi mumkin. Bunda oson eriydigan tuzlar asta-sekin qatlamning eng pastki qismiga yuvilib tushadi. Sho'rtob o'simliklari asta-sekin dasht o'simliklari bilan almashinadi, ya'ni sho'rtobning dashtlashish protsessi boradi. Evolyutsiyaning boshqa yo'nalishida esa sizot suvlar sathi pasaymagan holda (agar sho'rtob qatlam mikrorelefning pastida joylashgan bo'lsa), bu yerga suvlar oqib kelib, uni yuvadi. Buning natijasida solod hosil bo'ladi, bu protsessning o'zi solodlanish deb ataladi. Dasht zonasining janubida va chala cho'llarda sho'rtob va sho'rxoklar asosan mikrorelefga bog'liq bo'lib, shu regiondagи o'simliklarniig tipik xususiyatini, ya'ni uning kompleksligi va xilma-xilligini ifodalaydi. Ortiqcha miqdordagi tuzlarning o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar Rossiyada birinchi marta 1875-1885 yillarda A.F. Batalin tomonidan olib borilgan. U oltingugurt va xlor tuzlari ta'sirida o'simliklarda keskin morfologik-anatomik o'zgarishlar ro'y berishini tajribada ko'rsatdi. Ontogenetz protsessida o'simliklarning sho'rangan substratga moslashib borishini isbotlovchi dalillar ham ana shu olimga tegishlidir. Keyinchalik sho'rga chidamlilik bo'yicha B.A.Keller, I.M.Tulaykov, V.A. Kovda, P.A.Genkel, B.P. Stroganov, Shtoker (Stocker), Arnold (Arnold), Bernstein (Bernstein) va boshqalar tomonidan muhim tadqiqotlar olib borildi.

**Muammoli savol ?** Tuproq sho'ranganishini keltirib chiqaruvchi omillarni tushuntirib bering ?

**Topshiriqlar:**

1. Tuproq sho'rlanishini o'rganish.
2. Tuproq sho'rlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish
3. O'simliklarning tuproq sho'rlanishiga chidamliligi oshirish yo'llarini o'rganish.

### Mavzuni mustahkamlash.

Mavzu yuzasidan olingan ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+		?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### Muhokama savollari

1. Tuproq sho'rlanishi haqida tushuncha haqida tushuncha bering ?
2. Tuproq sho'rlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushuntiring ?
3. O'simliklarning tuproq sho'rlanishiga chidamliligi haqida tushuncha bering ?
4. Tolerantlik nima?
5. Kserofitlar haqida ma'lumot bering?

### 22-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU:** Adir sharoitida kserofit o'simliklarning ekologik tasnifini o'rganish

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga adir sharoitida kserofit o'simliklarning ekologik tasnifini o'rganish haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Adirlar - O'rta Osiyo tog'larining past-baland etaklari. Adir uchlarmchi va to'rlamchi davrlarning tog' jinslaridan tashkil topgan. Adir Farg'ona, Hisor, Surxondaryo vodiylarida ko'proq konglo-merat va chaqir toshlardan iborat bo'lib, ba'zi joylarida lyoss (soz tuproq) bilan qoplangan. Adimi ko'p joylarda soy hamda jarlar kesib o'tib, ayrim-ayrim qismlarga bo'lib yuborgan. Adirning dengiz sathidan baland 400-500 m dan 1000-1500 m gacha. Adir mintaqasi balandroq tog' etaklaridan ko'pincha kambar tektonik botiqlar orqali ajralgan bo'ladi. Adir Farg'ona vodiysi atrofidagi tog' eta-klarida juda aniq namoyon bo'lgan (mas, Avval adirlari). Qashqadaryo, Zarafshon vodiylari atrofida ham bor. Landshafda chala cho'l va cho'llardan iborat. Bahor 195paytida Adirda o'tlar, lolalar o'sib yotadi. Xo'jalikda Adirdan erta bahorda yaylov sifatida foydalaniladi, yog'in ko'proq tushadigan Adirda (Hisor, Zarafshon vodiylarida) g'alla yetishtiriladi. Ay-rim joylarda suv chiqarib bog'lar bunyod etil-gan. Kopetdog' va Qrim tog'larini etaklari-dagi shunday balandliklar bayirlar deb yuritiladi.

Kserofit o'simliklarining qurg'oqchilikka evolyutsion (filogenetik) moslashuvi quyidagi mexanizmlarning shakllanish yo'lidan o'tdi: — normal hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan to'qimalarning hidratisiyasini ta'minlash; - suvsizlanish sharoitida metabolizmning normal borishiga moslashishni rivojlantirish;

- qattiq suvsizlanishdan keyin optimal sharoitida hujayra tuzilmalari va funktsiyalarini samarali tiklash (ta'mirlash); quruq davr boshlanishidan oldin ontogenezning tez yakunlanishi. Ushbu qurilmalarning ko'pchiligini ko'rsatish mumkin kserofitlar misolida. Ilgari kserofitlar suvni tejamkorlik bilan istemol qiladigan transpiratsiya tezligi past bo'lgan o'simliklar ekanligiga ishonishgan. Biroq, o'sha paytdan beri ushbu qoidadan ko'plab istisnolar aniqlandi. Turli xil sistematik guruhlardagi o'simliklarda bir xil iqlim sharoitlariga, masalan, qurg'oqchil va issiq iqlimga moslashish turli yo'llar bilan sodir bo'ldi, bu divergensiya (lotinchay divergere - ajralish) deb nomlandi. Shu bilan birga, shunga o'xhash moslashish usullari turli xil taksonlarning

o'simliklarida ham mumkin, ammo iqlimi o'xhash bo'lgan hududlarda o'sadi. Shunga o'xhash hodisa konvergentsiya (lotinchadan. convergere - yaqinlashish,) deb ataladi. Masalan, Afrikaning o'simliklari ham, Meksikaning kaktuslari ham suv yetishmasligi sharoitida o'z organlarida to'planib, tirik qoladilar. Evolyutsiya jarayonida kserofitlarning turli guruhlari paydo bo'lib, ular kuchli suv tanqisligi sharoitida omon qolish mexanizmlarida farqlanadi. Birinchi tur - sukkulentlar (soxta kserofitlar). Bularga kaktuslar, agavlar, yosh, aloe, sedum kiradi. Bu suvni poyada, bargda yoki ildizda saqlaydigan ko'p yillik o'simliklardir (9.4-rasm). Shuning uchun ularning nomi kelib chiqdi: lotincha sukkulentus - suvli. Bu organlar yuqori darajada rivojlangan suv saqlaydigan parenxima tufayli qalinlashadi. Yomg'irdan keyin ularda suv saqlanadi, bu o'simlikning ehtiyojlarini uzoq vaqt qoplaydi. Taxminan 10 m balandlikdagi ustunli kaktusning poyasida 3000 litrgacha suv bo'lishi mumkin. Baobabning balandligi 20 m dan ortiq va magistral diametri 2 m bo'lgan baobabning ulkan namunalari yog'ochda ba'zan 120 ming litrgacha suvgaga ega, shuning uchun quruq mavsumda barglarini to'kadigan daraxt uzoq vaqt qurg'oqchilikka osonlikcha bardosh bera oladi. Ildizli sukkulentlarda (ceiba mayda bargli) ildizlarda diametri 30 sm gacha bo'lgan shishlar hosil bo'ladi. Yomg'irli mavsumda ularning shimgichli yadosida suv to'planadi.

#### **Topshiriqlar:**

1. Adirlarning ekologik sharoitini o'rganish.
2. Adir sharoitida kserofit o'simliklar o'sishi va rivojlanishini o'rganish.
3. Adir sharoitida kserofit o'simliklarning ekologik tasnifini o'rganish.

**Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			

3			
4			
5			

### Muhokama savollari

1. Adirlarning ekologik sharoiti haqida tushuncha bering ?
2. Adir sharoitida kserofit o'simliklar o'sishi va ekologiyasi haqida ma'lumot bering ?
3. Adir sharoitida kserofit o'simliklarning ekologik tasnifini o'rganish haqida tushuncha bering ?
4. Adir mintaqasida tarqalgan o'simliklar?
5. Adirlarning ekologik sharoitini o'rganish.

### 23-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: O'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'sirini aniqlash.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'sirini aniqlash haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlammalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Iqlim, eng avvalo, quyosh nuriga bog'liq. Quyosh nuri o'simliklarning fiziologik funksiyasi, tuzilishi, o'sish va rivojlanishi tezligiga turli darajada (me'yoriy, kuchli, kuchsiz) ta'sir ko'rsatadi. Quyosh nurining biologik ta'siri intensivligi, spektral tarkibi, fasliy va kunlik davriyligi bilan belgilanadi. Bunga bog'liq holda tirik organizmlardagi moslashuvchanlik xususiyati - fasliy va mintaqaviy xarakterga ega bo'ladi. Yo'rug'lik o'simliklarning o'sishida, yani, hujayra va to'qimalarda boradigan o'sish jarayonlari va organlarning hosil bo'lishiga bevosita xizmat qiladi. Quyosh radiatsiyasining 42%ni atmosfera orqali qaytariladi, 15%ni atmosferani isitish uchun sarflanadi, faqatgina 43%ni yer yuzasiga kelib tushadi. O'simliklarda quyidagi hayotiy jarayonlar yorug'lik ta'sirida amalga oshadi:

1. Fotosintez – yetib kelgan yorug'likning 1-5%i sarf bo'ladi va ozuqa zanjirining energiya manbai hisoblanadi, xlorofill sintezida muhim rol o'yaydi.
  2. Transpirasiya – yetib kelgan yo'rug'likning 75% i ishlanadi, bu infraqizil nurlar ta'sirida analga oshadi.
  3. Fototropizm, fotonastiya o'simliklarda kerakli yorug'lik bilan ta'minlash uchun sodir bo'ladi.
  4. Fotoperiodizm - kunning uzun-qisqaligiga o'simliklarning moslashishi
  5. Moddalarning sintezi va pigmentasiya jarayonlari
- Quyosh nuri 2 xil: ko'rindigan va ko'rindigani nurlardan tashkil topgan. Ko'zga ko'rindigan nurlar yo'rug'lik spektrini tashkil qiluvchi 7 xil rangni – kamalak ranglarini o'z ichiga oladi.

#### Yorug'lik va fotosintez

Quyosh energiyasi yorug'lik tartibi (rejimi) ni yaratadi. U geografik kenglik va relefga bog'liq ravishda o'zgaradi. Yerning aylanishi bilan bog'liq holda yorug'lik tartibi aniq kunlik va mavsumiy davriylikka ega.

#### Tempyeratura va suv rejimi optimal bo'lqanda hamda CO<sub>2</sub> ning havodagi miqdoriga bog'liq holda fotosintez intensivligi

O'simliklar guruhlari	CO <sub>2</sub> ning yutishi	
	mg.dm. <sup>-2</sup> ch <sup>-1</sup>	mg.m <sup>-2</sup> (quruq massa) ch <sup>-1</sup>
Qishloq xo'jalik ekimlari	20-40	30-60
Yorug'sevlar o'tilar	20-50	30-80
Soyada o'sadigan o'tlar, bahorgi geofitlar	4-20	10-30
Bug'doydoshlar	6-12	15-30(50)
Cho'llaming o't o'simliklari	20- 40(60)	15-25(30)
Daraxtilar soyadagi barglar	10-20 (25)	
yorug'dagi barglar	5-10	3-18
Doim yashil minabargli daraxtlar	4-15	
Cho'l binalari	(4) 6-20	(3) 10-20

Kecha va kunduzning ma'lum davomiyligining davriy o'zgarishi natijasida organizmning yoritishning sutkalik tartibiga reaksiyasi fotodavriylik (fotoperiodizm) deyiladi. Fotodavriylik biologik soatlar

mexanizmi bilan bog'liq. Organizmlar funksiyalarini siklik o'zgartirishga qodir. Biologik soatlar xuddi ana shu jarayonda namoyon bo'ladi. Biologik soatlar atrof-muhitdagi o'zgarishlarga mos holda fiziologik muammoni belgilab beradi. O'simliklardagi sutka (kun) lik fotodavriylik fotosintez jarayonlarini nazorat qiladi. Fotosintez jarayoni yerdag'i hayotning asosiy manbai hisoblanadi.



Fotosintez mahsuldarligi deganda, sutka davomida barg massasi yoki sathi birligi hisobiga yutilgan CO<sub>2</sub> ning umumiy miqdori tushuniladi. U o'simlikning assimilyatsiya-dissimilyatsiya faoliyatni ko'rsatkichi hisoblanadi, bu ko'rsatkich o'simliklar tomonidan organik moddalar to'planishini baholashda asosiy rol o'yndaydi.

#### **Topshiriqlar:**

1. Yorug'likning o'simliklarga ta'sirini o'rghanish.
2. O'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'sirini o'rghanish.
3. Yorug'lik va fotosentezni o'rghanish.

#### **Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

<b>Nº</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
1			
2			
3			
4			
5			

#### **Muhokama savollari**

1. Yorug'likning o'simliklarga ta'siri haqida tushuncha bering ?

2. O'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'siri haqida tushuncha bering ?
3. Yorug'lik va fotosentez haqida ma'lumot bering ?
4. Yorug'lik va fotosintez
5. Transpirasiya nima?

## 24-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: O'simliklarning yuqori haroratga chidamliligini aniqlash.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarning yuqori haroratga chidamliligini aniqlash haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlannmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Umuman quruqlikdagi organizmlar suv organizmlariga nisbatan evriterm hisoblanadi. O'simliklar harakatsiz bo'lgani uchun yashash muhitini haroratiga ko'proq bog'liq holda hayot kechiradi. Juda sovuq va juda issiq o'lkalarda o'sadigan o'simliklar 60-900°C gacha harorat o'zgarishiga chiday oladi. Yomg'irli tropik o'lkalardagi o'simliklar esa harorat +5+80°C gacha pasaysa nobud bo'lishi mumkin. O'simliklar tana haroratini boshqarishga qobiliyatli emas. Tanada hosil bo'ladigan energiya tezda suv bug'latishga sarflanadi yoki tashqi muhitga tarqatiladi. Shuning uchun ularning hayotida tashqaridan keladigan issiqlik muhim ahamiyatga ega. Quyosh qizdirgan vaqtida o'simlik tanasi harorati atrof-muhit haroratidan yuqori bo'lishi mumkin. Yoki suv bug'latish kuchli bo'lishi natijasida o'simlik harorati havo haroratidan past bo'lishi mumkin. Havo harorati yuqori bo'lganda o'simlik o'zini suv bug'latish orqali issiqdan saqlaydi. Issiqlik yetishmaydigan sharoitga moslashishga qarab o'simliklarni uch guruhga ajratish mumkin.

1. Sovuqqa chidamsiz o'simliklar. Bu o'simliklar 00C dan yuqoriroq haroratda nobud bo'ladi. Bularga tropik o'rmon o'simliklari, iliq dengizlardagi suvo'tlar kiradi.

2. Ayozga chidamsiz o'simliklar. Bu o'simliklar hujayrasidagi suv muzlay boshlasa nobud bo'ladi va -5 -70 C gacha sovuqqa chidaydi. Bularga ba'zi subtropiklardagi doimiy yashil o'simliklar kiradi.
3. Sovuqqa chidamli o'simliklar. Bular mavsumiy iqlimga ega, qishi sovuq bo'lgan viloyatlarda o'sadigan o'simliklardir. O'simliklar yuqori haroratga moslashganligiga qarab quyidagi guruhlarga ajratiladi.
  - 1.Issiqqa chidamsiz o'simliklar - +30+400C da nobud bo'lishi mumkin. Bularga suvo'tlar, suvda yashaydigan gulli o'simliklar kiradi.
  - 2.Issiqqa chidamli eukariotlar - quruq iqlim o'simliklari +50+550C haroratgacha chidaydi.
  - 3.Issiqqa chidamli prokariotlar - bakteriyalar va ba'zi ko'k-yashil suvo'tlar- +85+900C gacha chidashi mumkin.

Urug'larning unib chiqishidagi temperatura chegarasi turlarning geografik jihatdan kelib chiqishini ta'riflashda kerak bo'ladi. Odatda, turning tarqalish areali bir qancha keng bo'lsa, mazkur tur urug'larning unib chiqishi uchun zarur temperatura

intervali ham shuncha uzun bo'ladi. V. Larxer (1978) ma'lumotiga ko'ra, o'simliklarning urug'i 15-300 da, mo'tadil zona o'simliklarining urug'i 8-250 da va baland tog' o'simliklarining urug'i 5-300 da eng yaxshi unib chiqar ekan. Har xil o'simliklar urug'ining unib chiqishi uchun zarur bo'lgan minimal, optimal va maksimal temperaturalarga doir ma'lumotlarni umumlashtirish mumkin bo'lar edi, lekin bu ko'rsatkichlar nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, o'z navbatida, boshqa bir qator omillarga ham bog'liq bo'ladi. Temperatura urug'larning unib chiqish tezligiga ham ta'sir ko'rsatadi: odatda, temperatura ko'tarilishi bilan urug'larning unib chiqishi jadallahshadi.

Atmosferaning pastki qatlamlari isiganda zichligi pasayadi va isigan havo yuqoriga ko'tariladi, ular o'rnini esa ancha sovuq havo massasi egallaydi. Bundan tashqari, issiqlik energiyasi havo oqimi orqali va gorizontal yo'nalishda nisbatan issiq joydan nis-batan sovuq joyga tomon harakat qiladi. Gazlar aralashmalari orqali bu xildagi issiqlik almashinuvi konveksiya deb ataladi. O'simliklarning issiqlik rejimi uchun mazkur sathga tushayotgan issiqlik energiyasini undan qaytarilayotgan issiqlik energiyasiga nisbatini aniqlash juda muhimdir.

Bu nisbatning protsent hisobidagi miqdori «albedo» deb ataladi (bu termin yorug'lik energiyasiga nisbatan ham ishlataladi). Issiqlik energiyasining o'lchov birligi Joul (J) bilan ifodalanadi. Bir kalloriya 4,186 J ga teng.

Ko'p kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, kunduzgi temperatura bilan tungi temperaturaning almashinuvi o'simliklar uchun katta ahamiytga ega ekan. Kun chiqishi va botishi muhit omillarining ritmik o'zgarishiga sabab bo'ladi. Kun chiqishi bilan havoning namligi pasayadi, yorug'lik ko'payadi, havoning temperaturasi ko'tariladi. Kunning ikkinchi yarmidan ancha keyin yuqorida aytilganlarga teskari holat yuz beradi. Ko'pchilik o'simliklar temperaturaning bu xildagi almashinuviga shunchalik moslashgan bo'ladiki, mo'tadil kengliklarda tipik bo'lgan tungi past temperatura juda zarur omil hisoblanadi. Temperaturaning har kuni bu xilda ritmik almashinib turishiga o'simliklarning moslashuvi termoperiodizm deb ataladi. O'zgaruvchan temperatura ko'p fiziologik protsesslarni tezlashtiradi. Masalan, A.A. Avakinning (1936) ko'rsatishicha, kunduzgi temperatura 26,5 0C, kechasi 17 0C bo'lgan sharoitda pomidor normal gullagan va ko'plab yirik meva tukkan. Temperatura muttasil 26,5 0C bo'lgan sharoitda uncha yaxshi rivojlanmagan. Ko'pchilik o'tloq o'simliklari urug'i ham almashinib turadigan temperatura sharoitida ancha yaxshi unib chiqadi. Demak, temperatura ritmik ravishda almashinib turishi, ya'ni o'simliklarning har xil rivojlanish bosqichlari uchun xos bo'lgan optimum darajada bo'lishi natijasida organizmning normal funksiyalari saqlanib turadi. Organizmlar o'z evolyutsiyasi davomida temperatura almashinib turishiga moslashgan bo'ladi.

**Muammoli savol ?** Issiqlik yetishmaydigan sharoitda o'suvchi o'simliklarni tushuntirib bering ?

### Topshiriqlar:

1. Haroratning ekologik omil sifatida o'mini o'rganish.
2. O'simliklarning harorat omiliga nisbatan moslanishlarini o'rganish.
3. O'simliklarning yuqori haroratga chidamliligini aniqlashni o'rganish.

## Topshiriqni mustaqil bajaring !

B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

### Muhokama savollari

1. Haroratning ekologik omil sifatida o'rni haqida tushuncha bering ?
2. O'simliklarning harorat omiliga nisbatan moslanishlari haqida tushuncha bering?
3. O'simliklarning yuqori haroratga chidamliligini aniqlash ma'lumot bering ?
4. Sovuqqa chidamsiz o'simliklar.
5. Ayozga chidamsiz o'simliklar.

### 25-AMALIY MASHG'ULOT

#### **MAVZU: O'simliklarning hayot shakllari tasnifi bilan tanishish.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarning hayot shakllari tasnifi bilan tanishish to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** XX asming boshlarida (1903, 1905, 1907) Raunkiyer shu vaqtgacha keng tarqalgan sistemasini taklif etdi. U o'z sistemasida hayotiy shakllar yilning noqulay sharoitida hayot kechirishiga qarab farq qilishiga asoslandi. Lekin moslashuv belgilaringning bu kompleksidan ham bittasi, ya'ni yangilanish kurtaklari yoki novdalar uchki qismining

noqulay sharoit davomida yer (yoki suv yuzasiga nisbatan joylashuvi tanlab olingan. Dastlab hayotiy shakllar 5 tipga bo'lingan.

1. Fanerositlar (R) - kurtaklari yuqorida (30 sm), ochiq joylashgan;
2. Xamefitlar (Ch) - noqulay davrda yangilanish kurtaklari tuproq yuzasiga yaqin (20-30 sm) joylashgan;
3. Gemikriptofitlar (N) - yangilanish kurtaklari va novdalarning uchki qismi bevosita tuproq yuzasida, to'shamma ostida joylashgan;
4. Kriptofitlar (K)-«yashirin», yer ustki poyalari to'liq nobud bo'ladi, yangilanish kurtaklari yer ostida har xil chuqurlikda saqlanib qoladi. Kriptofitlar quyidagi guruhchalarga bo'linadi:
  - a) geofitlar (G) - yer ostki, ildizpoyali, piyozli va hokazo;
  - b) gelofitlar - botqoqlik, ochiq poyalari suv yuzasida, yangilanish kurtaklari suv ostida joylashgan;
  - e) gidrofitlar-butun o'simlik suv ostida bo'ladi.
5. Terofitlar (Th) - noqulay davrda urug' shaklida bo'ladigan bir yilliklar. Hayot formalarning bu tiplari guruhchalarga bo'linadi:  
fanerositlar balandligi bo'yicha mego, mezo, mikro va napofanerositlarga bo'linadi;  
gemikriptofitlar esa to'pbargi bor-yo'qligiga qarab, to'pbargililarga va to'pbargsizlarga bo'linadi;

Ko'pchilik avtorlar Raunkiyer guruhlarini yana qandaydir qo'shimcha belgilari bo'yicha bo'lib, uni to'ldiradilar va kengaytiradilar. Lekin shuni ta'kidlash ham kerakki, Raunkiyerning hayotiy shakllari yerning florasi va o'simliklari juda qadimgi davri tarixida differensiyalangan o'simliklar strukturasining asosiy modellari bo'lib hisoblanadi. Ular tarqalish oblasti va iqlim sharoitidan qat'iy nazar, har bir palmada bir yillik terofitlardan tashqari, hayotiy yirik takson doirasida takrorlanaveradi (masalan, formalarning barcha guruhlari aniqlangan).

Raunkiyer statistik metodni qo'llab, hayotiy shakllar guruhlari iqlim sharoitiga bog'liq holda tarqalishini ko'rsatdi. Turli oblast va zonalar uchun o'z guruhlarning protsent hisobida tarqalishini hisoblab, biologik spektor deb atalgan oddiy metodni taklif etdi.

1918 yilda Gams hayotiy shakllarning batafsil ishlangan sistemasini taklif etdi. U o'simliklarning yashash joyining harakteri, oziqlanish usullari, harakatlanish xususiyati va boshqalardan foydalangan holda, hayotiy shakllarni 3 ta tipga bo'ldi:

I tip bir xil muhitda yashaydigan va unga birikkan organizmlar, ya'ni mazkur substratda (suv, havo va tuproqda) yashaydigan organizmlar;

II tip har muhitda yashaydigan organizmlar (tuproqda ildiz oladi, yer ustki qismlari havoda bo'ladi). Bu yerda ham Raunkiyerdagi kabi guruhchalarga bo'linadi;

III tip harakatchan organizmlar (tuban hayvonlar). Game sistemasi asosan sinekologik hisoblanadi, chunki u organizmlarning tarqalishini ko'rsatadi, bu esa o'simlik guruhlarinining tuzilishi ni va biotsenologiyaning boshqa masalalarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

#### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingen ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

#### **Topshiriqlar:**

1. O'simliklarning hayotiy shakllarini o'rganish.
2. O'simliklarning hayot shakllarini hosil bo'lishini o'rganish.
3. O'simliklarning hayot shaklli tasnifi o'rganish.

## Muhokama savollari

1. Hayotiy shakl haqida tushuncha haqida tushuncha bering ?
2. O'simliklarning hayot shakllari hosil bo'lishi haqida ma'lumot bering ?
3. O'simliklarning hayot shakllari tasnifi bilan tanishish haqida tushuncha bering ?
4. O'simliklarning hayotiy shakillarini sanab bering?
5. O'simliklarning hayotiy shakillarini o'rghanish.

## 26-AMALIY MASHG'ULOT

**MAVZU: O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash.**

**Mashg'ulot maqsadi:** O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** termostat, torzion tarozi, qog'oz qopchalar, qaychi, daftar, qalam, chizg'ich.

**Ish tartibi:** O'simliklardagi suv miqdori suv rejimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri xisoblanib, o'simlikning suv balansi boshqarilish yo'llini tuShunishga yordam beradi. Suv mikdorining o'zgarishi o'simlikning o'sish sharoiti va o'simlik turlari hamda ontogenez bosqichiga bog'liq bo'ladi.

Ishning maksadi. O'simliklar tarkibidagi suvning mikdorini mavsum davomida o'rghanishdan iboratdir.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. O'simlik uchun suvning axamiyatini tushunadi.
2. Kun davomida suvning miqdori qanday o'zgarishini bilib oladi.
3. Suv miqdorini aniqlaydi va xisoblay oladi.

Ishni bajarish.

Tajriba maydonida yoki xonaga o'simlik xo'l lattaga o'ralgan xolda tezda olib kelinadi. Ish odatda soat 7-8 larda boshlanadi. Namuna o'rtacha 10 ta o'simlikdan olinadi. Bu olib keelingan narmunadan foydalilanilgan xolda suvning miqdori, suv yetishmasligi va suvni saqlash qobiliyati kabi suv rejimining asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Barg va assimilyatsion novdalardagi suvning miqdori (%) da umumiy qabul kilingan tortish usuli bilan aniqlanadi. Buning uchun 5-10 tagacha barg bo'laklari tarozida tortiladi (takrorlanishi 3 marta), og'irligi daftarga yozib olinadi, oldindan raqamlangan qog'oz qopchalarga solinadi.

Barglardagi suvning miqdorini xar 2 soatda aniqlash orqali kun davomida barglardagi suvning sarflanishini kuzatish mumkin. Qopchadagi material (namuna) termostatda 105°С da o'zgarmas og'irligiga kelguncha quritiladi va qurigandan keyingi og'irligi xam tortilib, daftarga yozib olinadi. Suvning umumiy mikdori (%) da formula asosida hisoblab ish jadvalni to'ldirish bilan yakunlanadi va xulosa qilinadi.

**Muammoli savol ? O'simliklarda transperatsiya jarayonini tushuntirib bering ?**

Suvning umumiy miqdori (X) foizda quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$X = 100x(v-s)$$

v-a bu yerda: a - bo'sh qopchaning og'irligi, g;

v - qopchaning ho'l xolatdagi o'simlik bilan birgalikdagi og'irligi, g;

s - qopchaning quruq xolatdagi o'simlik bilan birgalikdagi og'irligi, g.

Jadval-1

**O'simlik bargidagi suvning mikdorini aniqlash**

t/r	O'simlik nomi	Bargning og'irligi		Suvning mikdori. %
		dastlabki	kuritilgaundan keyingi	

### **Topshiriqlar:**

1. Barg va uning tuzilishini o'rganish
2. Suv ekologik omil sifatidagi o'mini o'rganish.
- 3.O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash.

### **Test savollari:**

1. Atmosfera xavosining tarkibi  
A) Kislarod va uning ahamiyati  
V) Karbonad angidridni aylanishi  
S) Atmosferadagi o'zgaruvchi komponentlarning ahamiyati  
D) Havoning fizik va boshqa xossalaringin ahamiyati
2. Sho'rlik ekologik omiliga nisbatan tor darajada tarqalgan turlar nima deylildi?  
A) Evrigidrid V) Stenogalin S) Stenoterm D) Evrigalin
3. Shovqin ekologik omili organizmlarga qanday tasir qiladi?  
A) Ijobjiy ta'sir qiladi V) Ta'sir qilmaydi S) Salbiy ta'sir qiladi D) Na salbiy na ijobjiy
4. Og'ir metallarni tuproqqa avtomobil gazlari bilan kelib tushishi tiriklikka qanday salbiy ta'sir qiladi?  
A) Tuproqni ifloslantiradi  
V) O'simliklarga ta'sir qiladi  
S) Xayvonlarga ta'sir qiladi  
D) Tuproqdagagi mikroorganizmlarni o'ldirib tabiatdagi moddalarni aylanma xarakatini to'xtatadi, o'simlmk va xayvonlarga ta'sir qilada
5. Atmosfera qatlamlarining to'g'ri tartibini ajrating.  
A) stratosfera, mezosfera, troposfera, ekzosfera, termosfera  
V) troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera, ekzosfera  
S) stratosfera, troposfera, termosfera, ekzosfera  
D) ekzosfera, termosfera, stratosfera, mezosfera, troposfera,
6. Atmosfera tarkibida kislorod necha foiz.  
A) 21%  
V) 10%  
S) 15 %  
D) 18%

7. Namlık ekologik omiliga nisbatan keng darajada tarqalgan turlar nıma deyiladi ?

A) Stenogidrid V) Evrigidrid S) Evriterm D) Stenoterm

8. Namlık ekologik omiliga nisbatan tor darajada tarqalgan turlar nıma deyiladi ?

A) Stenogidrid V) Evrigidrid S) Evriterm D) Stenoterm

9. Qanday suvlar o'simliklар tomonidan oson qabul qilinadi?

A) Kapillyar V) Bog'langan S) Gravitszion D) Tuzli

10.Qaysi tuproqning suvni o'zida saqlash qobiliyatı baland?

A) Loy tuproq V)Qumlik tuproq S)Shag'alli tuproq D)Sho'r tuproq

11. Qaysi tuproqning suvni o'zida saqlash qobiliyatı baland?

A) Qumlik tuproq V) Qumlok tuproq S) Loy tuproq D) Shag'al tuproq

12. Namlık ekologik omiliga nisbatan tor ekologik valentlikka ega bo'lgan turli misol keltiring.

A) Archa V) Chinor S) Qamish D) Beda

13. O'zbekistonda o'simliklarning qurg'oqchilikga nisbatan ekologik klassifikatsiyasini kim bergen?

A) Granitov V) Korovin S) Zokirov D) Raximov

Keyslar banki

Keys. O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash. O'simliklar tarkibidagi suvning mikdorini mavsum davomida o'rghanadi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagи muammoni keltirib chiqqagan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlashdan kelib chiqib bir nechta usulda dastur kodini taqdim eting (individual holda).

### Muhokama savollari

1. Barg va uning tuzilishi haqida ma'lumot bering ?

2. Suv ekologik omil sifatida, haqida tushuncha bering ?

3.O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash haqida tushuncha bering ?

4. O'simliklarda transperatsiya jarayonini tushuntirib bering ?

## 5. Barg va uning tuzilishini o'rganish

### 27-AMALIY MASHG'ULOT

#### MAVZU: Transpiratsiya jadalligini aniqlash.

**Mashg'ulot maqsadi:** Yoz oylarida o'simliklarning suvni tejab sarflash xususiyatlarini o'rghanishdan iboratdir.

**Kerakli ashyolar va jibozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** Transpiratsiya o'simlik tanasida sodir bo'ladigan eng muhim fiziologik jarayonlardan biridir. O'simlik tanasi orqali suvning bug'lanishiga transpiratsiya deyiladi. Transpiratsiya jadalligi deb muayyan barg yuzasidan ma'lum vaqt davomida bug'latilgan suv miqdoriga aytildi.

Identiv o'quv maqsadlari.

- 1.Talaba suv rejimi nimaligini bilib oladi.
- 2.Transpiratsiya jadalligini tushunadi va aniqlay oladi.
- 3.O'simlikning yoz oylaridagi xolatini taxlil qila oladi.

**Kerakli jixozlar:** termostat, gorzion tarozi, sekundomer, qaychi, daftar, qalam, raqamlangan qog'oz xaltachalari, chizg'ich.

Ishni bajarish.

Ish A.A. Ivanov uslubi bo'yicha bajariladi. Transpiratsiya jadalligi gorzion tarozi yordamida barglarni tezlik bilan tortish yo'li orqali aniqlanadi. Bunda kun davomida, xar 2 soatda (takrorlanishi 3-5 marta), ya'ni ertalabki soat 8 dan kechqurungi soat 20<sup>00</sup> gacha o'simlik bargining dastlabki og'irligi, so'ngra 3 minutdan keyingi og'irligi tortiladi va daftarchaga yozib olinadi hamda og'irligi ma'lum bo'lgan bu barg raqamlangan qog'oz qopchalarga solinadi. Xar 2 soatda bargni tortishdan avval xavo xarorati va xavoning nisbiy namligi Asman psixometri orqali o'lchanib turiladi va ko'rsatkichlar daftarga yozib boriladi. Ishning oxirida raqamlangan qopchalarga solingan o'simlik barglari termostatda 105°S da og'irligi o'zgarmagunga qadar quritiladi va quritilgandan keyingi og'irligi ham tortiladi (namunadagi suvning

miqdori aniqlanadi). Og'irligi yana daftarga yozib olinadi va quyida keltirilgan formula asosida transpiratsiya jadalligi hisoblanadi, jadval to'ldiriladi, xulosa qilish bilan ish yakunlanadi.

Transpiratsiya jadalligini xisoblash (mg g s. xisobida)

U r	O'simlik noma	Xar 2 soatdagi og'irligi						Transpiratsiya jadalligi
		8		10		12		
I		Dastlabki og'irligi	Keyingi og'irligi	Dastlabki og'irligi	Keyingi og'irligi	Dastlabki og'irligi	Keyingi og'irligi	
I								
S								

Transpiratsiya jadalligi (TJ) quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$TJ = (a-b) \times 20 \times 1000 \text{ a}$$

a - dastlabki og'irligi b - Z1 dan keyingi og'irligi

Keystar banki

Keys. Transpiratsiya jadalligini aniqlashni o'rghanadi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

Transpiratsiya jadalligini aniqlashdan kelib chiqib bir nechta usulda dastur kodini taqdim eting (individual holda).

Transpiratsiya (ot.trans orasidan, oralab va spiro - nafas olaman, nafas chiqaraman) - o'simliklarning suv bug'latishi. Muhim fiziologik jarayonlardan bo'lib, o'simlikning to'xtovsiz nam olib turishiga yordam beradi, tuprokdan mineral tuzlarning kelib turishini ta'minlaydi, to'qimalar harorati, turgor darajasi va protoplazmaning tarangligini boshqarib turadi. Asosiy transpiratsiya organi barg bo'lib, undagi mezofill hujayralari hujayralar oralig'iga doim suv bug'ini ajratib, so'ngra uni barg og'izchalari (og'izcha transpiratsiya si) yoki kutikula (kutikula transpiratsiya.si) orqali atmosferaga tarqatadi. Transpiratsiya kattaligi tashqi muhit sharoitlari - yoritilganlik, tuproq va havo harorati, namligi, shamol kuchi, shuningdek, kamroq darajada o'simlik turi va navlarning biologik xususiyatlari bog'liq. Tashqi muhit sharoitlari transpiratsiyaning sutkalik va mavsumiy jadalligiga ta'sir ko'rsatadi.

Maksimal transpiratsiya, mavsumming eng issiq davrlarida va kunning yarmigacha, minimal transpiratsiya, saharda va qishda kuzatiladi. Transpiratsiya, jadalligi turli suv va oziq, rejimlarida o'simliklarning suv bilan ta'minlanish darajasini va ularning mahsulдорligini tavsiflab beradi. U 1 dm<sup>2</sup> barg sathidan ma'lum vaqt birligida (mg. dm<sup>2</sup>/soat) bug'langan suv miqdori bilan aniqlanadi. 1 l suv sarflanganda o'simlik hosil qiladigan quruq modda miqdori transpiratsiya unumdorligi, 1 g quruq modda hosil qilish uchun o'simlik sarf etadigan suv transpiratsiya koefitsiyenti deyiladi. 1 g quruq modda hosil qilish uchun g'o'za 400—700, kuzgi bug'doy 500 g gacha, suli 415—500, tariq, 200—280 g suvni bug'latadi. Shu sababli tuproqda namlikni saqlashga mo'ljallangan agrotexnika tadbirlari bilan bir qatorda maydon birligiga to'g'ri keladigan ekin tuplari qalinligini shakllantirish muhim ahamiyatga ega (yana qarang o'simliklarning suv rejimi).

### **Muhokama savollari**

1. Transpiratsiya haqida tushuncha bering ?
2. Transpiratsiya jadalligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida ma'lumot bering?
3. Transpiratsiya jadalligini aniqlash haqida ma'lumot bering ?
4. Transpiratsiya jadalligini aniqlash
5. Bargda suv tanqisligini aniqlash usullari.

## **28-AMALIY MASHG'ULOT**

**MAVZU:** Bargda suv tanqisligini aniqlash.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga bargda suv tanqisligini aniqlash haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** O'simlik barglari, suv quyiladigan idishchalar (vannacha), uyali gubkalar, qaychi, filtr qog'oz, sellofan, daftar, qalam, chizg'ich, qog'oz qopchalar.

**Ish tartibi:** O'simliklarning hayotiy faoliyatini cheklovchi omillarning asosiyлari bizning sharoitlarimizda yuqori harorat va namlikning yetishmasligi hisoblanadi.

Noqulay sharoitga chidamli o'simlik turlarini bilishda ularda suv tanqisligini aniqlash zarurati tug'iladi. Buning yordamida esa o'simliklarning suv yetishmasligiga bo'lgan javob reaksiyasini aniqlash mumkin.

Ishning maqsadi. O'simlik turlarida suv tanqisligini aniqlash orqali, talabalarda o'simliklarning muayyan sharoitdagи xolati xaqida ko'nikma hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

O'simliklarda suv tanqisligi ko'rsatkichini aniqlay oladi;

Suv tanqisligi natijasida o'simliklarda bo'ladigan o'zgarishlarni tushunib yetadi.

Ishni bajarish.

Ish I. Catsky metodi asosida, kun davomida 3 maxal, ya'ni ertalab, tush payti va kechqurun bajariladi. Takrorlanishi 3 marta 2-3 dona, uzunligi 1-2 sm keladigan butun barglarning bandi kesilgan xolda dastlabki og'irligi tortiladi, daftarga yoziladi hamda og'irligi tortilgan barglar suvli kameraga, ya'ni uyali gubkachaga joylashtiriladi. Doimo nam xoldagi kamerani xosil qilish uchun uyali gubkachaning usti avvalo filtr qog'izi, keyin sellofan bilan yopiladi. 5-6 soat o'tgandan keyin barglarning joylarini almashtirmasdan gubkadan olib, filtr qog'ozida ozgina nami tortib olinadi, yana og'irligi tarozida tortiladi va daftarga yoziladi, keyin raqamlangan qog'oz xaltachalarga solinib, termostatga quritish uchun qo'yiladi. Quritilgandan keyin ham quruq massasining og'irligi yozib olinadi. Ish shu tartibda soat 13 va 18 da ham bajariladi. Olingan ma'lumotlar asosida jadval tuziladi hamda to'liq to'yinishga nisbatan bargdagi suv tanqisligi % xisobida formula asosida hisoblanadi. Ish jadvalni to'ldirish, xulosa qilish bilan yakunlanadi.

Bargdagi to'liq to'yinishga nisbatan suv tanqisligi (ST) O. Shtoker (Stoskeg) formulasi bo'yicha hisoblanadi.

ST = (suvgi shimgardan keyingi og'irligi - suvgi shimgunga qadar og'irligi) x 100 (suvgi shimgandan keyingi og'irligi - quruq og'irligi).

### O'simlikdagi suv tanqisligini aniqlash (tulq to'yinishga nisbatan % hisobida)

Nº	O'simlik nomi	Dastlabki og'irligi	To'yingandan keyingi og'irligi	Dastlabki og'irligi	To'yinganda keyinchi og'irligi	Dastlabki og'irligi	To'yinganda keyingi	Quyiq og'irligi	Suv taqisligi
1									
2									
3									

#### Keyslar banki

Keys. O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash. O'simliklar tarkibidagi suvning miqdorini mavsum davomida o'rGANADI.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).

O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlashdan kelib chiqib bir nechta usulda dastur kodini taqdim eting (individual holda).

#### Muhokama savollari

1. O'simliklar hayotida suvning ahamiyati haqida ma'lumot bering ?
2. Bargdag'i suv va uning asosiy vazifasi haqida tushuncha bering ?
3. Bargda suv tanqisligini aniqlash haqida ma'lumot bering ?
4. O'simlik bargidagi suvning miqdorini aniqlash
5. O'simliklarning muayyan sharoitdagi holati

### 29-AMALIY MASHG'ULOT

#### MAVZU: Tuproq namligini aniqlash.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga tuproq namligini aniqlash haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** tuproq turi, maxsus qutichada joylashtilrilgan idishlar (byukslar), tozalagich (pichoq, skalpel va), termostat, tarozi, pylonka bo'lagi yoki oddiy fanercha, daftar, qalam, chizg'ich.

**Ish tartibi:** Har xil iqlim omillari bilan bir qatorda tirik organizmlar hayotida tuproq ham muhim rol o'ynaydi. Tuproq - yunoncha «edafos» so'zidan olingan. Tuproq deganda, yerning g'ovak, unumdar yuza qavatini tushunamiz.

Tuproqda uchrovchi barcha tirik organizmlar hayoti jarayonida bir-biriga nisbatan turli xil munosabatda bo'lib o'zaro ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'simlik, xayvon va mikroorganizmlar o'rtaisdagi murakkab munosabatlar natijasida tuproqdagi gumus va mineral moddalar miqdori o'zgarib turadi.

Tuproqning ekologik omil sifatida o'simliklarga ta'siri haqida shuni aytish kerakki, tuproq o'simlikni o'zida tutib turadi va uni ozuqa bilan ta'minlaydi. O'simlik tuproqdan suv va unda erigan mineral va organik moddalarni oladi.

Tuproqning kimyoviy xossalardan biri uning kislotaligi bo'lib, bu vodorod ionlarining kontsentratsiyasi bilan ifodalanadi. Tuproq eritmasida musbat zaryadlangan ( $N^+$ ) vodorod ionlari ko'p bo'lsa, tuproq kislotali, agar manfiy (ON) zaryadlangan gidroksil ionlari ko'p bo'lsa, tuproq ishqorli bo'ladi. Tuproqdagi bu ionlarning miqdorlari teng bo'lsa, tuproq eritmasi neytral reaktsiyada bo'ladi.

O'simlikda yer osti organlarining rivojlanishi tuproqning vodorod ionlari kontsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Braun-Blanke klassifikatsiyasi bo'yicha: kislotali tuproqda yaxshi o'sadigan o'simlik turlariga - atsedofillar, ishqoriy tuproqlarda o'suvchi o'simlik turlariga - bazofillar, neytral tuproqda o'suvchi turlarga esa - neytrofillar deb ataladi.

O'simliklarning tuproqda bo'ladigan turli tuzlarga munosabati ham har xildir. Ba'zi o'simliklar karbonat tuzlari ko'p tuproqlarda yaxshi o'sadi va ularga kaltsefillar deyiladi.

Kislotali muhitga ega bo'lgan tuproqda o'suvchi o'simlik kaltsiy tuzlarini yoqtirmaydi va ular kaltsefoblar deb ataladi. (trosf moxlari, otqulok, choy, kashtan kabilar kiradi.)

Oson eruvchi tuzlarga boy bo'lgan tuproqlarda (sho'r yerlarda) o'suvchi o'simliklar galofitlar deyiladi. Qumli tuproqlarda psammofitlar deb atalgan o'simliklarning ekologik guruxi tarqalgan. Psammofit o'simliklarning barglari ensiz, katak yoki odatda reduktsiyalangan, meva va urug'lari qumda o'rmalab yoki sharmol yordamida tarqaladi va ko'pincha sharsimon ko'rinishda bo'ladi. Sho'rlanmagan yerlarda o'suvchi o'simliklar - glikofitlar deyiladi.

Ishning maqsadi. Vegetatsiya davomida o'simlik qay darajada namlik bilan ta'minlanganligini bilish. Tuproq namligini aniqlashni o'rganish.

Identiv o'quv maqsadlari.

- 1.Tuproqning ahamiyatini anglay biladi.
- 2.O'simlikning vegetatsiya davomida qanchalik darajada namlik bilan ta'minlanganligini tushunadi.
- 3.Tuproq namligini aniqlash usulini bilib oladi.

Ishni bajarish.

Tuproq namligi A.A.Rode uslubi bo'yicha o'simifiklar ekilgan maydonlarda va jamoada vegetatsiyasi davomida o'rganiladi. Agarda tuproq namligini aniqlash uchun namuna olingan kuni dalada kuchli yog'ingarchilik bo'lsa, u holda kuzatishni keyingi kunlari davom ettirish kerak.

Dala sharoitida tuproq namunasini olishni shunday olib borish kerakki, bunda bir kunning o'zida 1-1,5 metr chuqurlikdan tuproq namunasi olinadi. Uning dastlabki og'irligi tortilib, termostatga quritish uchun qo'yib ulgurilishi kerak. Tuproq namunasi 0-10-20 sm, ya'ni har 10 smdan takrorlanishi kamida 3 martadan olinadi. Har 10 sm chuqurlikdan tuproq namunasini olish hisobi tuproq turi yordamida ko'rsatilgan belgi asosida olib boriladi. Tur bilan namuna olingandan keyin, uni asta-sekin plynka parchasiga tozalagich yordamida to'qiladi, olingan tuproq namunasi idishchalarga solinganda, uning yarim xajmini egallashi kerak. Namuna idishchalarga tezda solinadi, atrofi artilib,

qopqog'i yopiladi. Xar safar tuproq namunasi olingandan keyin tur asbobini tozalab turish kerak. Namuna olib bo'lingandan keyin hosil bo'lgan chuqurlikni o'zining tuprog'i bilan ko'mib qo'yiladi.

Tuproq namunasi tashqi tomondan sonlar yozilgan oldindan og'irligi ma'lum bo'lgan idishlarga olib bo'lingach, bu idishlar qopqog'i kutichaga joylashtiriladi. Tezda xonaga keltirilib, texnik tarozida tuproq namunasi solingen bokslarning og'irligi tortiladi, daftarga yoziladi va termostatga quritish uchun qo'yiladi. Termostatga byukslar og'zi ochiq xo'lda qo'yiladi. Xar qaysi boksning qopqog'i byuks tagiga qo'yiladi.

Chunki idish qopqog'i bilan birligida (tuproqsiz) tortilgan bo'ladi. Quritish ishlari 100-105°C haroratda olib boriladi. Xarorat undan yuqori bo'lsa, tuproq tarkibidagi organik moddalar qo'yib ketishi kuzatiladi. Termometr 100°С ni ko'rsatgandan keyingina quritish vaqtি belgilanadi. Termometr esa termostatga uni qizishidan oldin quyib qo'yiladi. Quritish vaqtি tuproqning xiliga qarab belgilanadi. Masaian, qumloq tuproq - 6 soat, soz tuproq - 7 soat, torf tuproq - 10-12 soat davomida quritiladi. Keyin uning og'irligi tortiladi va daftarga yozib olinadi. Ikkinci marta yana 2 soat davomida termostatga qo'yiladi, quritiladi, yana daftarga og'irligi yoziladi. Agarda ikkinchi marta tortilganda, tuproq namunasi solingen bokslarning og'irligi birinchi marta tortilgandagi ko'rsatkichlarga yaqin, ya'ni deyarli o'zgarmasa, tortishni (termostatda quritishni ham) to'xtatish kerak. Bokslar barcha xisoblash ishlari tamom bo'lгандан keyin tuproqdan tozalanadi, latta bilan yaxshilab artiladi va yana maxsus qutichalarga joylashtirib qo'yiladi. Olingan tuproq namunasi quyidagi tartibda daftarga yozib olinadi va hisoblanadi:

#### Maydonchaning №

**Maydonchadagi o'simlik nomi, vaqtি, kuni, oyи, yili yoziladi.**

Tuproq namunasi olib chukurligi, soi	Idishchala r sofi ogirligi, g.	Tuproq bilan birligida ogirligi, g.	Namunada gi tuproq ogirligi, g.	Kuritish kuritilganidan ke yinegi ogirlik, g.	2-marta kuritish	Buglangan suv, g.	Namunada gi kuruk tuproq, g.	Tuproq nafligi, %

Tuproq namunasidagi suvning miqdori tuproqning massasiga nisbatan foizlarda hisoblanadi:

$$X = (a-b) \times 100 \% a$$

bunda: a - tuproq namunasining dastlabki og'irligi, g b - tuproq namunasining quritilgandan keyingi og'irligi, g Mashg'ulot tuproq namligini vegetatsiya davomida aniqlash, jadval asosida xisoblash va xulosa qilish bilan yakunlanadi.

### **Muhokama savollari**

1. Tuproq namligi haqida tushuncha bering ?
2. Namlik va boshqa omillarning o'simliklarga ta'siri haqida tushuncha bering ?
3. Tuproq namligini aniqlash haqida tushuncha bering ?
4. O'simliklarning tuproqda bo'ladigan turli tuzlarga munosabati
5. Kislotali muhitga ega bo'lgan tuproqda o'suvchi o'simliklar

### **30-AMALIY MASHG'ULOT**

#### **MAVZU: Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish.**

**Mashg'ulot maqsadi:** talabalarga biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlammalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** O'rmon eng yuqori biologik mahsuldarlik bilan ajralib turadi. U asosiy qismini ishlab chiqaradi organik moddalar er yuzida va kislorodning ulkan zavodidir. O'rmonni muhofaza qilishdagi ahamiyati suv resurslari va tuproq. O'rmon yer usti oqimlarini er osti suvlariga aylantiradi. O'rmondagi qor ochiq joyga qaraganda sekinroq eriydi, shuning uchun erigan suvning daryolarga oqimi tartibga solinadi, bu esa toshqinlarning oldini oladi. O'rmonlar dalalarni quruq shamollardan himoya qiladi. Shuningdek, ular tuproqda namlikning to'planishiga hissa qo'shadi, suvning er usti oqimini kamaytiradi,

tuproqning erigan qor va yomg'ir suvlari bilan yuvilishi va yuvilishining oldini oladi.

O'rmon shamol kuchini zaiflashtiradi, qorning erib ketishini oldini oladi, tuproqni va kuzgi ekinlarning ko'chatlarini muzlashdan himoya qiladi. Shunday qilib, o'rmon umuman iqlimni yaxshilaydi. O'rmon zonasida ckinlar hosildorligi holati o'rmon bilan belgilanadi.

O'rmon o'zining alohida qiymati va universal iqtisodiy va ekologik abhamiyatini ko'rsatib, "yashil oltin" deb nomlanadi. O'rmon yog'och, oziq-ovqat, texnik va dorivor xom ashyo bilan ta'minlaydi. O'rmonlarda ko'plab qimmatbaho ov hayvonlari va qushlar, ko'plab qo'ziqorinlar va rezavorlar mavjud. O'rmon inson salomatligi manbai.

O'rmonlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash butun tabiatni muhofaza qilish tizimining eng muhim bo'g'indir. O'rmonlarni muhofaza qilish kesishni qat'iy ilmiy tartibga solishni, o'rmon zararkunandalarini va kasalliklariga qarshi keng qamrovli kurashni, yong'inlardan himoya qilishni nazarda tutadi.

#### Muammoli savol ? Biologik resurs to'g'risida tushuncha bering ?

O'rmonlarni muhofaza qilish o'rmon xo'jaligini tashkil etishni takomillashtirish, uni to'g'ri joylashtirish, o'rmon hosildorligini oshirish bilan bog'liq. Daraxt o'rmonda juda uzoq vaqt o'sadi. Archa faqat 120-200 yoshda pishgan hisoblanadi. Shuning uchun o'rmonni tiklash uchun g'amxo'rlik eng muhimlaridan biridir. Kesilgan o'rmonlarning taxminan uchdan bir qismi tabiiy ravishda tiklanadi. Qolganlari faol choralarini talab qiladi. Biroq, mamlakatimizda o'rmonlarni qayta tiklash ishlari hali ham sust olib borilmoqda. Ko'pgina hududlarning o'rmon qoplamini me'yordarda nazarda tutilgan ko'rsatkichlardan past.

O'rmon xo'jaligi fan va amaliyotining sa'y-harakatlari seleksiya yutuqlaridan foydalangan holda qimmatbaho o'rmon turlarining o'sish vaqtini qisqartirishni topishga qaratilgan. O'rmonlarni parvarish qilish, kesish, tozalash, yoritish, sanitariya kesish, yong'in, zararkunandalar va

kasalliklardan himoya qilishda ifodalanadi. Bularning barchasi o'mmonning holatini yaxshilaydi va unumdorligini oshiradi.

Insonning o'simliklarga ta'siri juda xilma-xildir. Daraxt kesish, o'tlar va mevalarni yig'ish jarayonida yovvoyi o'simlik turlarining soni kamayadi. Inson ko'plab o'simliklar va ularning jamoalarining yashash sharoitlarini yomonlashtiradi. Atrof-muhitning ifloslanishi o'simliklar hayotiga salbiy va zararli ta'sir ko'rsatadi. Nafaqat o'mmonlar, balki boshqa o'simlik majmualari, birinchi navbatda, shahar aholisi hayotida ijobiy rol o'ynaydigan shahar yashil maydonlari va shaharlar atrofidagi yashil maydonlar, shuningdek, o'tloq va yaylovlar ham puxta muhofazaga olinadi.

### **Topshiriqlar:**

- 1.Biologik resurslarni o'rganish.
- 2.O'zbekiston biologik resurslarini o'rganish.
- 3.Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solishni o'rganish.

### **Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

### **Muhokama savollari**

- 1.Biologik resurs haqida tushuncha bering ?
- 2.O'zbekiston biologic resurslari haqida tushuncha bering ?
- 3.Biologik resurslardan soydalanishni tartibga solish haqida tushuncha bering ?

- 4.Resurs nima?
5. Tugaydigan resurslar nima?

### **31-AMALIY MASHG‘ULOT**

#### **MAVZU: TABIATDAN FOYDALANISH SOHASIDA RUXSAT BERISH TARTIB-TAMOILLARI.**

**Mashg‘ulot maqsadi:** Talabalarga tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-tamoillari to‘g‘risida amaliy bilim va ko‘nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo‘yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** Tabiatdan foydalanish huquqi turli sifatlarda baholanishi mumkin: yuridik universitet sifatida, huquqiy munosabatlar sifatida va tabiatdan foydalanuvchining o‘ziga xos huquqi. Tabiatdan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi normalar majmuasi tabiatdan foydalanish huquqining murakkab yuridik universitetini tashkil qiladi. Huquqiy munosabatlar sifatida tabiiy resurslardan foydalanish huquqi tomonlarning yerdan, yer qa‘ridan, suvdan va hokazolardan foydalanish bo‘yicha muayyan jihatdan tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatları yig‘indisi bilan belgilanadi. Huquq sifatida tabiatdan foydalanish huquqi tabiatdan foydalanuvchiga tegishli bo‘lgan sub‘ektiv huquq bo‘lib, uning mazmuni foydalanishga berilgan tabiiy resursga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini o‘z ichiga oladi.

**Ekologik monitoring –** Yer kurrasi, ma’lum bir mintaqqa, mamlakat yoki joyda atrof muhit holatini maxsus vakolatli idoralar, tashkilotlar va organlar yordamida kuzatib borish. Ushbu kuzatuvni amalgalashirishda ya’ni monitoring tizimida: tabiiy ob‘ekt va resurslarni hisobga olish, ularni baholash, istiqbolini va ularga ta’sir etuvchi salbiy hodisa va jarayonlarning oldini olish chora-tadbirlarini belgilash kerak bo‘ladi.

Ekologik monitoring kuzatuv maydoniga ko'ra: global, regional (mintaqaviy) va lokal (mahalliy) turlarga ajratiladi hamda stasionar va harakatdagi kuzatuv shahobchalar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ekologik monitoring tuzilmasi, mazmuni va amalga oshirilish tartibi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va Vazirlar Mahkamasining tasdig'iga binoan O'zboshgidromet, Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zgeodezkadastr, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi kabi maxsus vakolatlangan davlat organlari tomonidan va tegishli idoralar ko'magi orqali olib boriladi.

Monitoring tizimida litomonitoring, gidrometrologik monitoring, biomonitoring bo'limlari bo'lib, ular har xil mutaxassislikdagi tashkilot va vazirliklar tomonidan o'rganiladi. Monitoringni tashkil etishda eng muhim ishlardan biri, nazorat maydonlarini tanlash va uni tegishli asboblar bilan jihozlashdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Stokgolmda qabul qilingan Deklarasiyasida (1981), atrof-muhitga toksik va boshqa moddalarni chiqarmaslik, issiqlikni me'yordan oshirmaslik, tabiat o'zini tiklay olmaydigan holga kelib qolish holatlarini tugatish lozimligi ko'rsatilgan. Buning uchun texnologik jarayonlarni takomillashtirish, kam chiqindili va kelajakda chiqindisiz texnologiyalarga o'tish zarur. Kam chiqindili texnologiyaga o'tish faqat sanoat korxonalarigagina tegishli bo'lmay, balki chovchilikka ham tegishlidir. Chiqindisiz ishlash texnologiyasi deganda, chiqindilarni yig'ib olish, zararsizlantirish, ularni qayta ishlab, biror foydali mahsulotga aylantirish ishlari kiradi. Buning uchun korxonalarning har xil bo'limidan chiqadigan turli tarkibli chiqindi gaz va oqova suvlarini tozalash inshootlarida birdaniga tozalamay, alohida-alohida yig'ib olib, ulardan kerakli moddalarni ajratib olish osonlashadi. Tozalangan gaz va suv esa qayta ishlatilishi mumkin. Xuddi shuningdek, bir korxonadan chiqqan chiqindi ikkinchi korxona uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingen ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### Topshiriqlar:

1. Tabiatdan foydalanish haqida qonun-qoidalarni o'rganish.
2. Tabiatdan foydalanish sohalari o'rganish.
3. Tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-tamoillari o'rganish.

### Muhokama savollari

1. Tabiatdan foydalanish haqida tushuncha bering ?
2. Tabiatdan foydalanish sohalari haqida tushuncha bering ?
3. Tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-tamoillari haqida tushuncha bering ?
4. Chiqindisiz ishlash texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Global ekologik muammolar.

## 32-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: Yorug'lik va fotosintez

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga yorug'lik va fotosintez haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlamalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Quyosh energiyasi yorug'lik tartibi (rejimi) ni yaratadi. U geografik kenglik va rel'efga bog'liq ravishda o'zgaradi. Yerning aylanishi bilan bog'liq holda yorug'lik tartibi aniq kunlik va mavsumiy davriylikka ega. Kecha va kunduzning ma'lum davomiyligining davriy o'zgarishi natijasida organizmning yoritishning sutkalik tartibiga reaksiyasi fotodavriylik (fotoperiodizm) deyiladi. Fotodavriylik biologik soatlar mexanizmi bilan bog'liq. Organizmlar funksiyalarini siklik o'zgartirishga qodir. Biologik soatlar xuddi ana shu jarayonda namoyon bo'ladi. Biologik soatlar atrof-muhitdag'i o'zgarishlarga mos holda fiziologik muammoni belgilab beradi. O'simliklardagi sutka (kun) lik fotodavriylik fotosintez jarayonlarini nazorat qiladi. Fotosintez jarayoni yerdagi hayotning asosiy manbai hisoblanadi.




Fotosintez mahsuldarligi deganda, sutka davomida barg massasi yoki sathi birligi hisobiga yutilgan CO<sub>2</sub> ning umumiy miqdori tushuniladi. U o'simlikning assimilyatsiya-dissimilyatsiya faoliyatini ko'rsatkichi hisoblanadi, bu ko'rsatkich o'simliklar tomonidan organik moddalar to'planishini baholashda asosiy rol o'ynaydi. Ekologiya va fiziologiyada yo'rug'lik miqdori, undagi o'simliklarga fiziologik ta'sir ko'rsatadigan nurlar orqali hisoblanadi. Quyosh nuri spektridagi fotosintetik aktiv radiatsiya (FAR) – fotosintezda ishlataladigan asosiy nurlardir. Quyosh nuri yer yuzasiga tik va tarqoq holda tushadi. O'simliklar asosan tarqoq holdagi nurlardan ko'proq foydalanadi. Chunki tik tushuvchi nurlar kuchli ta'sir ko'rsatib, o'simlikning sitoplazmasi va xlorofillining yemirilishiga sabab bo'ladi. Tarqoq nurlar foydali bo'lib, ularning 50-60% i fotosintez uchun zarur bo'lgan sariq-qizil nurlardan iborat.

Fotosintez (foto... va sintez) - yuksak o'simliklar, suvo'tlar va ayrim fotosintezlovchi bakteriyalarda xlorofill va boshqa fotosintetik pigmentlar o'zlashtiradigan yorug'lik energiyasi hisobiga oddiy birikmalardan murakkab moddalar hosil bo'ladi. Fotosintez tabiatda sodir bo'ladigan eng muhim biologik jarayonlardan biridir. Fotosintezda quyosh energiyasi organik birikmalardagi kimyoviy energiyaga

aylanadi. Fotosintezda hosil bo'lgan organik birikmalar barcha tirik organizmlar uchun asosiy hayot manbai hisoblanadi.

Fotosintezda barcha tirik organizmlarning nafas olishi uchun zarur bo'lgan kislorod atmosferaga ajralib chiqadi. Fotosintez haqidagi dastlabki ma'lumotlar ingliz botanigi va kimyogari S. Geyls (1727), rus olimi M.V. Lomonosov (1753) ishlarida keltiriladi. Ammo fotosintezni tajribalar orqali o'rghanish ingliz kimyogari J. Pristli (1771), golland tabiatshunosи J. Senebye (1782), shveysariyalik olim T. Sossyur (1804) va boshqalarning ishlari bilan boshlandi. Nemis fiziologi Yu. Saks (1863) barglardagi xloroplastlarda kraxmal sintezlanishini ko'rsatadi.



6-rasm Fotosintez jarayoni.

Fotosintezda kislorod hosil bo'lishi jarayonini nemis fiziologi T.V. Engelmann (1881) o'rgangan. Fotosintezda yorug'lik nurining ahamiyati 19-asrning o'rtalaridan o'rghanila boshlandi. Rus olimi K.A. Timiryazev (1875) yorug'lik energiyasining o'simlikdagi xlorofill orqali fotosintetik o'zgarishlar jarayonida ishtirok etishini ko'rsatdi. 19-asrning o'rtalaridan boshlab fotosintezni o'rghanishda yangi metodlar (gaz analizi, izotop metodi, spektroskopiya, elektron mikroskopiya usullari va boshqalar) qo'llanila boshlangandan so'ng fotosintezda xlorofillning qatnashish mexanizmlari ishlab chiqildi.

**Muammoli savol ? Fotosintez haqida ma'lumot bering ?**

Fotosintezning bu xili fotoreduksiya deyiladi. Yashil yoki purpur oltinugurt bakteriyalari uchun fotosintezning umumiy formulasi quyidagicha bo'ladi.

Fotosintezning dastlabki jarayonlari xloroplastlar tilakoidlarida ro'y beradi, uglevodlar esa stromada sintezlanadi. Keyinchalik AQSH olimi D.I. Arnon xloroplastlar membranasini ajratib olib, uning stromasida NADFN va ADF ishtirokida CO<sub>2</sub> assimilyatsiyasi ro'y berishini kuzatadi: CO<sub>2</sub> + ADF + [C] uglevod qorong'ulik fotosintezlovchi bakteriyalar molekulyar kislorod ajratmaydi va qabul qilmaydi, ularning ko'pchiligi anaerob oziqlanadi. Turli xil organizmlardagi fotosintez jarayonining umumiy sxemasi quyidagicha: Bunda DN2 - donor, A - akseptor, AN2 - fotosintez mahsulotidir.

#### **Topshiriqlar:**

1. Yorug'likning ahamiyatini o'rganish.
2. Fotosentezni o'simliklar hayotidagi ahamiyatini o'rganish.
3. Fotosentez va uning bosqichlarini o'rganish.

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

#### **Muhokama savollari**

1. Yorug'likning ahamiyati haqida tushuncha bering ?
2. Fotosentez haqida tushuncha bering ?
3. Fotosentez va uning bosqichlarini o'rganish haqida tushuncha bering ?
4. Fotosentezni o'simliklar hayotidagi ahamiyatini o'rganish.
5. Fotosintez haqidagi dastlabki ma'lumotlar

## 33-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: Suv - ekologik omili.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga suv - ekologik omili to'g'risida amaliy bilim va ko'nikmalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars bo'yicha jadvallar, tarqatma materiallar.

**Ish tartibi:** Suvning aylanishi okeandagi yirik rezervuarlar orqali harakatlanadi. N2O molekulasingin okeanda asosiy joylashish vaqtini (MRT) taxminan 37000 yil, deb hisoblashadi. Suvning asosiy joylashish vaqtি yerosti suvlari uchun taxminan 300 yil bo'lib, suv bog'لامи muzlikda 16000 yilni tashkil qiladi; atmosferada suvning mavjudlik vaqtி 3 xil tartibda bo'ladi (MRT: 9 days), suvning mavjudlik vaqtி tuproqda esa 280 kunni o'z ichiga oladi. Suv bug'ining okendan yerga almashishi yer massasi yoki okeanni kesib o'tadigan vaqtiga qaraganda kichikroqdir. Bu Shuni anglatadiki, sohil joylaridagi bug'lanish tezligi va bu bug'langan suv yer massasiga ichki tomonida xarakatlanadi. Yomg'ir yog'ishi, to'planishi, bug'lanishi qit'a bo'ylab sodir bo'ladi. Yevropaning Sibir xududlarida bir xil suv molekulalar Tinch okeaniga yetib borishidan oldin 5 dan 7 martagacha bug'lanish bilan jarayonlarini boshidan kechiradi. Bu jarayondagi yo'qotishlar suv toshqini va qurg'oqchilik sababidir. Shuning uchun Germaniya tumanlaridagi 1000 mm atrosidagi ko'tarilishlar sharqiy Sibirda 150 mm va markaziy Sibirda 3000 mm gacha kamaygan. Xududiga ko'ra, yer yuzasidagi suv miqdori okean suv miqdoridan ancha kamaygan.

#### Tuproqdagi suv va uning harakatlanishi

O'simliklar tanasining 50-90% suvdan iborat bo'ladi. Ayniqsa uning sitoplazmasi suvgaga juda boy (85-90%), hujayra organellalarida ham suv ko'p bo'ladi. O'simlikning sersuv mevalari, yumshoq barglari va ildizlari suvgaga juda boy. Lekin urug'larda, ayniqsa moyli ekinlar urug'ida suv juda kam bo'ladi. Suv o'simliklar hayotida nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki ular tanasidagi barcha biokimyoiyiv

jarayonlar suvli muhitda boradi. Suv deyarli barcha moddalarni o'zida yeritgan holda o'simliklarda transport vositasi sifatida xizmat qiladi. O'simliklarning suv bilan ta'minlanishi ularning o'sish sharoiti bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu ekologiyannng birdan-bir muhim muammoni hisoblanadi. O'simliklar suv bilan ta'minlanishining bir oz izdan chiqishi ham o'simlik qoplamida tuzatib bo'lmaydigan darajadagi o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Suv o'simliklarning o'sishida bevosita muhim rol' o'ynaydi. Hujayralar ichida suv ta'sirida hosil bo'ladigan turgor bosim hujayralarning hali elastik bo'limgan yosh qobig'ining cho'ziluvchanligini ta'minlaydi. Bu esa hujayralar hajmining kattalashishiga imkon beradi. Shuning uchun suvsizlik o'sishni sekinlashtiradi, chunki bunda hujayralar to'liq cho'zilmaydi. Hujayralar qobig'ining elastikligi kamayib borishi (selluloza to'planishi) tufayli o'simlik suv bilan yetarli ta'minlangan taqdirda ham ular to'liq kattalashmaydi.

**Muammoli savol ?** Suvning o'simliklar hayotida tutgan o'mini tushuntirib bering ?

Suv tanqis bo'ladigan kunduzgi vaqtida o'simliklar poyasining diametri tungi vaqtdagiga qaraganda kichikroq bo'ladi, bu esa turgor holatlar farqiga bog'liq. Shuning uchun o'simliklarning yer ustki qismlari asosan tungi soatlarda o'sadi, chunki bu vaqtida suvning transpiratsiya tufayli sarflanishi kamayadi va turgestsentsiya tiklanadi. O'simliklar hosil qilgan quruq modda mahsuloti ular suv bilan qanchalik ta'minlanganini ifodalaydigan asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'simliklarning suv bilan ta'minlanishi ularning tashqi morfologiyasida, anatomik strukturasida, guruhlardagi holatida va o'simlik qoplaming xududl tarqalishida chuqrizmiz qoldiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingen ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Muhokama savollari**

1. Tirik organizmlarga suvning ahamiyati haqida tushuncha bering ?
2. Suv ekologik omil sifatida ahamiyati haqida tushuncha bering ?
3. Suvning yer yuzida taqsimlanishi haqida tushuncha bering ?
4. Tuproqdagi suv va uning harakatlanishi
5. O'simliklarning suv bilan ta'minlanishi

## **34-AMALIY MASHG'ULOT**

### **MAVZU: Tuproq ekologik omillari**

**Mashg'ulot maqsadi:** Ta'abalarga tuproq ekologik omillari haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlamalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Tuproq qoplami yerning mustaqil qobig'i (pedosfera) bo'lib, u biosferaning energiya balansida muhim rol o'ynaydi. V. V. Dokuchaev tuproqlarni yerning ustki qobig'ini hosil qiduvchi alohida tabiiy jismlar deb ta'riflaydi. Tuproqlar yuza tog' jinslariga fizik geografik muhit bilan organizmlarning ta'siri ostida paydo bo'lgan.

Tuproqning asosiy xususiyati o'simliklar organik moddalar hosil qilishini, ya'ni uning unumdorligini ta'minlash uchun sharoit yaratishdan iborat. Tuproqning ana shu unumdorligi tufayli o'simliklar bema'lol o'sa oladi va quyosh energiyasidan foydalaniib, yangi organik moddalar sintezlaydi.

Tuproqning tog' jinslaridan farq qiladigan ba'zi xususiyatlarini aytib o'tish mumkin. Bular tuproq qatlamining vertikal bo'yicha bir xil emasligi, ya'ni gorizontlarga ajralishi tuproqning muhim botanik-geografik ahamiyatga ega bo'lgan bo'shlilqlarida sodir bo'ladigan o'zgaruvchanlikning keskin namoyon bo'lishi; tog' jinslariga xos bo'Imagan fizik xususiyatlar, suv o'tkazuvchanlik, fazo o'tkazuvchanlik kabi xossalarning mavjudligi; tuproqning o'ziga xos fizik va kimyoviy xossalarga ega bo'lishi, ayniqsa ustki qatlaminiki organik moddalarga boy bo'lishi va o'simliklar uchun muhim bo'lgan oziq elementlarini to'plash qobiliyat; tuproqda juda ko'p sondagi organizmlar yashashi va o'simliklarning ildiz tizimi bilan o'zaro bog'liqligi; tuproqning mavsumiy dinamikasi va yil fasllarinnng o'zgarishi, chunonchi, o'simliklarning rivojlanish fazalari, mikroorganizmlarning hayot faoliyati dinamikasi ob-havo sharoiti bilan bog'liqligi va nihoyat, tuproqning boshqa barcha xususiyatlariga bog'liq holda uning unumdorligi katta ahamiyatga ega.

XIX asrdayoq fitogeograflar o'simliklar xarakteri bilan tuproq orasidagi bog'liqlikni o'rganishga harakat qilganlar. O. Deckandol (1832) tuproqning organik moddalariga katta ahamiyat bergen; Unger (1836) tuproqning kimyoviy xossalarni; Turman (1849) fizik xossalarni birinchi o'ringa qo'ygan; To'la tuproq yeritmasining osmotik bosimiga ko'proq e'tibor bergen. Lekin o'simlik uchun ham, umuman o'simliklar uchun ham tuproqning barcha asosiy xossalari, chunonchi, uning ximizmi (mineral oziqlanishidagi elementlar, kislotaliligi va hokazolar), mekanik tarkibi, tuzilmasi, tuproq hosil qilish xarakteri, tuproqning kelib chiqish tarixi va tuproq tiplari katta ahamiyatga ega. Xossalari bilan bir-biridan farq qiladigan tuproq gorizontlari tuproqning vertikal profilini hosil qiladi. Bu farqlar o'simliklar ildizining o'sishi va rivojlanishida, tuproqdagi barcha organizmlarning hayot faoliyatida o'z aksini topadi.

Masalan, tabiiy podzal tuproqli yerlarda podzollashgan gorizont, sho'rtob tuproqli yerlarda esa yuvilib ketgan zich gorizont o'simliklarniig hayoti uchun bir oz yaroqli hisoblanadi. Tuproqning qalinlig'i ham muhim ekologik omil hisoblanadi. U Shuning uchun muhimki, o'simliklar ildizining tarqalishiga ta'sir etadigan tuproq ona jinsining va tuproq osti qatlaming joylashish darajasini ifodalaydi. Iqlim sharoiti ko'proq hosil bo'tishi uchun noqulay bo'lgan joylarda, masalan, Arktikada sayoz tuproq qatlami hosil bo'tadi.

Tuproqning yoshini bilish shuning uchun muhimki, vaqt o'tishi bilan tuproq hosil qilish omillari ta'sirida tuproq sezilarli darajada o'zgarib boradi. Tuproq faqat yuksak o'simliklar ta'sirida rivojlanib boradi, Fitotsenozsiz (yoki umuman biosenozsiz) tuproq bo'lmaydi va faqat fitotsenozgina tuproqning fizik va kimyoviy xossalari o'zgartiradi, uning unumtdorligini shakkantiradi. Tuproqning yoshi oshib borgan sari tarkibidagi karbonatlar kamayib boradi, ishqoriy reaksiyasi ko'pincha kislotali reaksiyaga o'tadi, organik moddalar miqdori ortadi va hokazo. Bu o'zgarishlarning hammasi o'simliklar qoplamiga va uning turlariga ta'sir etadi.

**Muammoli savol ? Tuproq haqida ma'lumot bering ?**

#### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingan ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Topshiriqlar:**

1. Tuproq va uning tuzilishini o'rganish.
2. Tuproq va uning tarkibini o'rganish.
3. Tuproq ekologik omillarini o'rganish.

**Topshiriqni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

Nº	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

### **Muhokama savollari**

1. Tuproq va uning tuzilishi haqida tushuncha bering ?
2. Tuproq va uning tarkibi haqida tushuncha bering ?
3. Tuproq ekologik omillari haqida tushuncha bering ?
4. Tuproq deb nimaga aytildi?
5. Tuproq va uning tuzilishini o'rganish.

### **35-AMALIY MASIIG'ULOT**

**MAVZU: O'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'siri.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'siri haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Bular bilvosita omil bo'lib, o'simliklarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmay, balki boshqa omillar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, ular iqlim omillari orqali ta'sir etishi mumkin. Orografik omillarga dengiz sathiga nisbatan balandlik, yonbag'irlarning ekspozidiyasi (quyoshga nisbatan joylashganligi) va qiyalik kiradi. Orografik omillarning o'simliklar qoplamiga ta'siri faqat yerning geografik kengligiga (hududlarga) qarab emas, balki dengiz sathidan qanchalik balandlikda joylashganligiga qarab ham o'zgarib turadi. Bu holat ayniqsa tog'li hududlarda keskin namoyon bo'ladi. Ma'lumki, tog'ga har 100 metr ko'tarilib borgan sari, temperatura  $0,5^{\circ}$  ga pasayib boradi. Shunga ko'ra, o'simliklar qoplami ham o'zgarib boradi. O'rta Osiyo o'simliklar qoplamini o'rgangan. Botaniklar, tekislikdan tog'lar tomon ko'tarilgan sari o'simliklar qoplami xuddi geografik xududlarga qarab o'zgargani singari ma'lum qonuniyatga muvofiq o'zgarib borishini aniqlaganlar.

O'rta Osiyoda dengiz sathidan ko'tarilish darajasiga qarab, o'simliklar mintaqalari ketma-ket keladi. Masalan, cho'llar, adirlar, yaylovlari. Shu bilan birga har qaysi mintaqaga o'z navbatida ikki bosqichga bo'linadi: pastki va yuqorigi (bu O'zbekistonlik botanik olim, akademik Q. Zokirov tomonidan taklif qilingan). Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har qaysi o'simlik mintaqasining chegarasida dengiz sathidan balandlikga ko'tarilgan sari o'simliklarning balandligi, tanasining diametri, shox-shabbasining shakli, ba'zan hosilga kirish tezligi ham o'zgarib boradi.

#### O'simliklarning tarqalishida ekspozitsiya va yonbag'irlarning qiyaligining ahamiyati

O'simliklarning tarqalishida ekspozidiya va yonbag'irlarning qiyaligi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, Shimoliy yonbag'irlar Janubiy yonbag'irlarga qaraganda sernam bo'lib, o'simlik qoplamining qalinligi bilan xarakterlanadi. Janubiy yonbag'irlarda issiqsevar va yorug'sevlar o'simliklar o'sadi. Adabiyotlarda, odatda, tog'lardagi daraxtzo'r Shimoliy yonbag'irlar bilan bog'lanib ketgan deb qayd qilinadi. Buni faqat tabiiy sharoit, yuqori darajadagi namlik va xilma-xil bo'ladigan tuproq sharoitining muvofiq kelishi bilan izohlash mumkin. Lekin tog'lardagi o'simliklar qoplami qanday joylashganligiga diqqat bilan nazar tashlasak, tog'ning qishloqdan ancha uzoq va odam borishi

ancha qiyin bo'lgan Shimoliy va Janubiy yonbag'irlari o'simliklar bilan qoplanganligini ko'ramiz. Janubiy yonbag'irlarning o'rmonsizligini odam ta'siridan deb tushunsa bo'ladi. Ma'lumki, Janubiy yonbag'irlarda qor ancha yerta yerbek ketadi va O'rta Osiyo aholisi ilgaridan bu yerlardan dehqonchilik maqsadlarida foydalanib kelgan. Buning natijasida Janubiy yonbag'irlar o'rmonsizlanib qolgan.

Yuqorida aytiganidek, o'simliklarning tarqalishida yonbag'irlarning qiyaligi muhim rol o'ynaydi. Yonbag'irning qiyaligi asosan tuproqning suv bilan ta'minlanish darajasiga, yog'in miqdoriga, ayniqsa kuchli bo'ladigan yog'lnarga bog'liq. Ma'lumki, anchagina tik yonbag'irlardan suv juda tez oqib tushadi va tuproqni hamda u bilan birga o'simliklarni ham ma'lum darajada yuvib ketadi. Kamroq qiya bo'lgan yonbag'irlarda esa namlik ko'proq ushlanib qoladi va tuproqniig chuqur qatlamlarigacha nam kirib boradi. Bunday yonbag'irlarda o'simliklar qalin bo'lib o'sadi va rivojlanadi. Olib borilgan ko'plab kuzatishlarda aniqlanishicha, yonbag'irlar qiyaligining kritik burchagi 10-12° ga teng bo'ladi. Yonbag'irlarda Shunday qiyalikdan boshlanib eroziya egatlari kuzatiladi. Yonbag'ir qancha qiya bo'lsa, shuncha ko'p isiydi, shunga mos ravishda o'simliklari ham shuncha kam bo'ladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingen ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Topshiriqlar:**

1. Orografik omillarni o'rganish.
2. O'simliklar va orografik omillarni o'rganish.
- 3.O'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'sirini o'rganish.

### **Muhokama savollari**

1. Orografik omillar haqida tushuncha bering ?
2. O'simliklar va orografik omillar haqida tushuncha bering ?
- 3.O'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'siri haqida tushuncha bering ?
4. Orografik omillarni o'rganish.
5. .O'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'sirini o'rganish.

## **36-AMALIY MASHG'ULOT**

### **MAVZU: O'simliklarni muhofaza qilish aspektlari.**

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga o'simliklarni muhofaza qilish aspektlarini o'rganish haqida tushuncha va tavsiyaalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmaları, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Yer sharida o'simliklar turi juda ko'p bo'lib, ularning juda oz qismidan kishilar xo'jalik faoliyatlarida foydalanmoqdalar. Yer sharidagi 300 ming o'simlik turidan faqat 6000 turini inson kundalik hayotida foydalansa, shuning 1500 turi esa dorivor o'simliklarga to'g'ri keladi.

Inson xo'jalik faoliyatida yangi o'rmonzorlar tashkil etish, madaniy o'simliklarni ko'paytirish, yaylov va o'tloqlar sifatida yaxshilash va territoriyasini kengaytirish hisobiga o'simliklar maydonini ko'paytirib boradi. Buning ustiga ilgor agrotexnikani qo'llab ekilgan ekinlarda yashil massalar miqdori tabiiy o'simliklarga nisbatan yuqori bo'ladi, yashil o'simlik massalarining miqdori botqoqlik va zahkash erlarni quritish, tuproq sho'rini yuvish, yerlarni sug'orish, o'simliklarga mineral va organik o'g'itlar solish, o'simlik kasalliklariga va

zararkunandalariga qarshi kurashish, madaniy o'simliklarni yangi navlarini yaratish orqali ko'paytirib boriladi. Bularning hammasi insonning o'simliklar dunyosiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siridir.

Yog'och bizning asrimizda universal materialga aylanib, undan xalq xo'jaligini turli sohalarida, jumladan oziq-ovqat etishtirishda, kimyo va yoqilgi sanoatida, mudofada, madaniy-oqartuv ishlarida, har xil dorilar tayyorlashda ham keng foydalilmoqda. Agar bundan 30 yil ilgari yog'ochdan 4-5 ming xil narsa tayyorlangan bo'lsa, Hozir undan 20 ming xil narsalar ishlamoqda.

Fan va texnika taraqqiy etgan sari hozirgi zamonda yog'och kimyo sanoatining xom ashyo resursiga aylanib qoldi. Kimyoviy yo'l bilan yog'ochdan qogoz, sun'iy shoyi va jun, tutunsiz porox, selluloza, fotokinoplyonkalar, nitrolak, sun'iy charm, plastmassalar, etil va metil spirti, uksus kislotasi, glyukoza, yonuvchi gaz, sun'iy kauchuk va boshqa juda ko'p mahsulotlar olinmoqda. 1 m<sup>3</sup> yog'ochni kamyoviy yo'l bilan qayta ishlaganda quyidagi mahsulotlarni olish mumkin: 200 kg selluloza yoki 200 kg qogoz, yoki 6000 m<sup>3</sup> sellofan yoki 5-6 l yogoch spirti, yoki 20 l sirka kislotasi yoki 70 l vino spirti, yoki 160 km sun'iy tola.

O'rmonlar kishilik hayotida oziq-ovqat manbai hamdir. Chunki juda ko'p daraxtlar sifatlari meva (kedr, grek va pekan yongogi, non daraxti, kakao daraxti, yovvoyi olma, olcha, do'lana, bodom, pista va boshqalar) beradi. So'nggi paytlarda o'rmondan kamyoviy yo'l bilan yog'ochdan qand moddasi ham ajratib olinmoqda. 1 t yogochdan gidrolizlash yo'li bilan 550-650 kg gacha qand olish mumkin. Shuningdek, yog'ochdan oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan achitqilar ham olinmoqda.

O'zbekistonda dorivor o'simliklar juda ko'p bo'lib, eng muhimlari shalfey, etmak, ermon, itjumrut, gazanda, suvqalampir, qoqi o't, momaqaymoq, na'matak, itburun, bangidevona, rovach, yantooq, zira va boshqalar. Shuningdek O'zbekistonda yovvoyi holda o'suvchi foydali o'simliklardan pista, bodom, do'lana, olcha, yong'oq, shashir, togasiz, qamish kabilari ko'plab o'sadi.

O'simliklarning, xususan o'rmonlar maydonining qisqarishi va holatini yomonlashuvi kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ibtidoiy jamiyatda kishilar o'zi uchun zarur bo'lgan narsalarning bir qismini o'simliklardan olib, uning qisman bo'lsada, o'zgarishiga sababchi bo'lgan. Feodalizm va kapitalistik davrlarda Yer sharidagi o'rmonlar shafqatsizlarcha kesildi, undan yoqilg'i sifatida, qurilishda va kema ishslashda keng ko'lamda foydalanishi tufayli uning maydoni keskin qisqardi. Ayniqsa Yer sharining aholi zinch yashaydigan joylarida o'rmonlarning 2/3 qismi yo'q qilindi. Natijada 500 mln. ga yerdagi o'rmonlar maydoni qisqarib, dasht biyobonga aylantirildi.

### **Topshiriqlar:**

1. Muhofazaga muhtoj o'simliklarni o'rganish.
2. O'zbekistonda o'simliklar muhofazaga muhtoj turlarini o'rganish.
3. O'simliklar dunyosiga orografiq omillar ta'sirlarini o'rganish.

### **Topshiriqn ni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

<b>№</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
1			
2			
3			
4			
5			

### **Muhokama savollari**

1. Muhofazaga muhtoj o'simliklar haqida tushuncha bering ?
2. O'zbekistonda o'simliklar muhofazasi haqida tushuncha bering ?
3. O'simliklar dunyosiga orografiq omillar ta'siri haqida tushuncha bering ?

4. O'zbekistonda yovvoyi holda o'suvchi foydali o'simliklar
5. Muhofazaga muhtoj o'simliklarni o'tganish.

### 37-AMALIY MASHG'ULOT

#### MAVZU: Biologik xilma-xillikda o'simliklarning roli.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga biologik xilma-xillikda o'simliklarning roli haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlasmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Biologik xilma-xillik — tirik organizmning murakkabligi, o'z funksiyalarini o'zi so'zlash qobiliyati va ulardan har tomonlama foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi biologik ob'yektlarning farqlanadigan turlari yoki hodisalari soni hamda ularning fazo va vaqtning qayd etilgan oralig'ida uchrashining takroriyligi. Biologik xilma-xillik barcha hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar, mikroorganizmlar va ekotizimlar hamda ularda hayot kechayotgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Biologik xilma-xillik uch darajaga bo'linadi: genetik xilma-xillik, turlar xilma-xilligi hamda ekotizimlar xilma-xilligi.

Tabiatni asrash maqsadlariga erishish uchun barcha miqyoslarda harakat qilish kerak. Chunonchi, masalan, faqat ilmiy yoki tabiatni muhofaza qilish faoliyatini ilgarilatib, buning barobarida moddiy-teknik bazani kuchaytirmaslik yoki qonunchilik bazasini yaxshilamaslik mumkin emas.

4 yil davomida BMTTD va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Global Ekologik Fond moliyaviy ko'magida amalga oshirilayotgan "Global ahamiyatga ega bioxilma-xillik uchun muhim asosiy tog'li hududlarda tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va o'rmonlarni boshqarish" qo'shma loyihasi bioxilma-xillikni asrash va undan barqaror foydalanish sohasida

mavjud qonunchilikni yaxshilashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ustida ishladi.

Ushbu ishlarning natijalari bilan biz davra suhbati davomida O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, O'zbekiston Ekologiya partiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, qo'riqlanadigan tabiat hududlari va boshqa hamkor davlat organlari rahbariyatlari bilan o'rtoqlashdik.

Bajarilgan ishlar doirasida:

- 2019-yilda O'zbekistonda ilk qo'riqlanadigan hudud – Hisor davlat tog'-archa qo'riqxonasi tuzilishiga asos bo'lgan hujjatlar ishlab chiqildi;
- Qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilish tartibi, shuningdek ular to'g'risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi;
- Qo'riqxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlari va tabiiy jarayonlar monitoringi tartibi belgilandi;

• O'zbekiston Respublikasidagi barcha qo'riqlanadigan tabiat hududlarini tashkil qilinishi va faoliyat yuritishining asosiy jihatlarini qamrab oluvchi qo'riqlanadigan tabiat hududlari to'grisidagi qonunning yangi tahriri loyihasi tayyorlandi;

- Ugom-Chotqol tabiiy milliy bog'ini hududlashtirish va Surxondaryo viloyatida yangi qo'riqlanadigan tabiat hududini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi va davlat organlariga taqdim etildi;
- O'zbekiston tarixida birinchi marta biz tomonimizdan ilvirsni asrash bo'yicha transchegaraviy anglashuv memorandumi tayyorlandi, u 2021-yilda O'zbekiston, Qirgiziston va Tojikiston hukumatlari tomonidan qabul qilindi va tasdiqlandi;
- O'zbekiston hukumati tomonidan O'zbekiston Respublikasida ilvirsni asrash bo'yicha harakatlar rejasini tasdiqlandi.

#### **Muammoli savol ? Bioxilma-xillik haqida ma'lumot bering ?**

Loyihamiz faoliyati hamkor davlat idoralari tomonidan yuqori baholandi. 2022-yil mobaynida davlat hamkorlari bilan yanada yaqin hamkorlik qilish, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunning yangi tahrirdagi loyihasini asosiy manfaatdor shaxslar bilan

kelishish va uni tasdiqlash uchun Oliy Majlisga o'tkazish jarayoni nihoyasiga yetkazilishi kutilmoqda.

Bugun yurtdoshlarimiz Vatanimizning betakror nabotot va hayvonot olami bilan haqli ravishda faxrlanadi. Diyorimizga tashrif buyuradigan sayyoqlar ham yurtimizning azim tog'lar, cho'llar, suv havzalari, to'qayzorlar, bog'u rog'lar, boshqa madaniy ekotizimlar, ularda uchrovchi barcha tirik organizmlar majmuidan tarkib topgan bioxilma-xilligi o'ziga xos hamda noyob ekanligini hamisha e'tirof etadi,

#### **Topshiriqlar:**

1. Biologik xilma-xillikni o'rghanish.
2. Respublikamizda biologik xilma xillik o'rghanish.
3. Biologik xilma xillikda o'simliklarning rolini o'rghanish.

#### **Topshiriqn ni mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

Nº	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

#### **Muhokama savollari**

1. Biologik xilma xillik haqida tushuncha bering ?
2. Respublikamizda biologik xilma xillik haqida tushuncha bering ?
3. Biologik xilma xillikda o'simliklarning roli haqida tushuncha bering ?
4. Biologik xilma-xillikni o'rghanish.
5. Qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilish

## 38-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlamalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Qizil kitob - yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjati. Qizil kitobda o'simlik va hayvon turlari sonining kamayishi, arecallarining qisqarib borishi sabablari yoritiladi; ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar berib boriladi.

1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini amalga oshirishga kirimishdi. Turlarni saqlab qolish bo'yicha maxsus xalqaro komissiya tuzilib, 1966-yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi.

O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar 1974-yil ta'sis etilgan Qizil kitobda o'z aksini topgan. O'zbekiston Qizil kitobi 1978 da ta'sis etildi. Birinchi marta O'zbekiston Qizil kitobining faunaga bag'ishlangan qismi 1983-yil nashrdan chiqdi. Unga umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar) ning 63 turi kiritilgan edi. O'simliklar olamining kamyob, yo'qolib ketish xavfida bo'lgan 163 turi haqida ilk bor mukammal ma'lumotlar 1984-yil bosmadan chiqqan Qizil kitobda keltirilgan. Qizil kitob — davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan 4 guruha ajratiladi: 1) yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar; 2) yo'qolib borayotgan (areali va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar; 3) kamyob,

bevosita yo‘qolish xavfi bo‘lmasada, kichik maydonlarda kamdankam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar; 4) muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga ko‘ra yoki inson ta’sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar. Qizil kitobga, unga kirgan turlar maqomining o‘zgarishi, maxsus muhofaza choralar tufayli ba’zi turlar sonining tiklanishi, aksincha, yashash sharoitining o‘zgarishi va boshqalar omillar ta’sirida sonining kamayishi natijasida boshqa toifaga o‘tkazilishini yoritish maqsadida qayta nashr etiladi. O‘zbekiston florasining yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan 301 turining hozirgi holatini tavsiflaydigan Qizil kitob 1998-yilda qayta bosmadan chiqdi. Keyingi yillarda O‘zbekiston faunasi turlari maqomini baholashga imkon beruvchi ma’lumotlar to‘planib, yangi Qizil kitob 2003-yilda chop etildi. Qizil kitobning so‘nggi nashriga sut emizuvchilarining — 24, qushlarning — 51, sudralib yuruvchilarining — 16, baliqlarning — 18, halqali chuvalchanglarning — 3, mollyuskalarning — 15, bo‘g‘imoyoqlilarning — 62 turi va kenja turi kiritilgan.

**Muammoli savol ? Qizil kitob haqida ma’lumot bering ?**

O‘zbekiston faunasi va florasining ba’zi turlari Xalqaro Qizil kitobda ham o‘z aksini topgan. Unda har bir tur uchun alohida sahifa ajratilgan bo‘lib, unda mazkur o‘simlik yoki hayvon turining o‘zbekcha, ruscha, lotincha (ilmiy) nomlari, ularning sistematik o‘rni, qisqacha morfologik tavsifi, tarqalishi, yashash muhiti, tabiatdagi soni, ko‘payishi, areali va sonining o‘zgarishi sabablari, muhofaza qilish choralarini va boshqalar bayon etilgan.

Qizil kitobga kiritiladigan hayvon va o‘simlik turlari bo‘yicha taklifni ilmiy tekshirish muassasalari, davlat va jamoat tashkilotlari, ayrim olimlar tavsiya qilishi mumkin. Muhofaza qilinishi natijasida o‘z arealini qaytadan tiklagan va yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilmaydigan o‘simlik va hayvon turlari Qizil kitobdan chiqariladi.

Qizil kitobga kiritilgan turlar davlat qonuni asosida muhofaza qilinadi; uni buzgan yuridik va jismoniy shaxslar qonunga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **Mavzuni mustahkamlash.**

Mavzu yuzasidan olingan ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Topshiriqlar:**

1. Qizil kitob va uning ahamiyatini o'rganish.
2. Noyob va endemik turlarni tarqalgan joylarini o'rganish.
3. O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar o'rganish.

### **Muhokama savollari**

1. Qizil kitob va uning ahamiyati haqida tushuncha bering ?
2. Noyob va endemik turlar haqida tushuncha bering ?
3. O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar haqida tushuncha bering ?
4. Qizil kitobning ahamiyati
5. O'zbekiston faunasini va florasining ba'zi turlari

## 39-AMALIY MASHG'ULOT

### MAVZU: Qo'riqxonalarda saqlanayotgan o'simliklar turlari.

**Mashg'ulot maqsadi:** Talabalarga qo'riqxonalarda saqlanayotgan o'simliklar turlari haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlannmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Qo'riqxona - belgilangan qonunlarga muvofiq, davlat tomonidan ajratilgan, alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan (tipik yoki noyob landshaft, o'simliklar va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va boshqalar), tabiiy ob'yekt joylashgan yer (hudud) yoki suv kengliklari; i. t. va madaniy-ma'rifiy maqsadlar uchun ajratilgan va to'laligicha xo'jalik ishlaridan xoli tabiiy majmua.

Qo'riqxonalar hududidagi mavjud komplekslar tabiiy holatda saqlanadi. Ular inson tomonidan o'zlashtirilayotgan va o'zgargan qo'shni hududlar uchun etalon bo'lib xizmat qiladi. Bunday etalonlar inson xo'jalik faoliyatining biz uchun qulay yoki noqulay ekanligini taqqoslashga, tabiatdan amaliy foydalanish u yoki bu usulining naqadar maqsadga muvofiqligini nazorat qilishga imkon beradi.


Qo'riqxonalarning asosiy vazifasi tabiatni har tomonlama o'rganishdir. U landshaft komponentlari o'rtasidagi uzziy aloqadorlikni bilib, tabiiy boyliklardan unumli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun zarur. Masalan, Kursk yaqinidagi Markaziy Qoratuproq qo'riqxonasi o'rmon-dasht zonasini uchun harakterli bo'lgan tabiiy-hududiy komplekslarning etaloni bo'lib, bu yerda Rossiya Fanlar akademiyasi Geografiya instituti tabiiy jarayonlarni ko'p yillardan buyon tekshiradi.

Qo'riqxonalardagi tabiiy jarayonlarni o'rganish landshaft geografik jihatdan o'xshash bo'lgan hududlarning tabiiy boyliklari va tabiiy sharoitidan unumli foydalanishni tashkil qilishni yengillashtiradi. Shuning uchun qo'riqxonalar tabiiyhududiy komplekslarning hamma tipida bo'lishi kerak. Asosiy muhofaza qilish ob'ektiga bog'liq holda qo'riqxonalar oldiga kompleks va maxsus vazifalar qo'yiladi. Kompleks

qo'riqxonalarda butun tabiiy-hududiy komplekslar tabiiy holda muhofaza qilinadi. O'rta Osiyodagi qo'riqxonalarning asosiy qismi oldiga kompleks maqsadlar qo'yilgan. Maxsus vazifalarni bajaradigan qo'riqxonalar asosan katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lган ayrim ob'ektlarni muhofaza etish uchun tashkil qilinadi. Masalan, Orol dengizidagi tashkil etilgan Borsakelmas qo'riqxonasi, eng avval, shu yerda iqlimlashtirilgan qulon hamda sayg'oq va jayronlarni qo'riqlash va biologiyasini o'rganish uchun tashkil qilingan edi. Pitsunda qo'riqxonasi asosan relikt qarg'aylarini muhofaza qilish uchun bunyod etilgan. Chelyabinsk oblastidagi Ilmen qo'riqxonasi uncha katta bo'lmanan hududda 200 dan ortiq noyob minerallar to'plangan maydonni saqlash uchun tashkil qilingan. Zarafshon tizmasining janubiy yon-bag'irdagi Kitob davlat paleontologik-stratigrafik qo'riqxonasi geologik maqsadlar uchun tashkil etilgan. Qo'riqxona tabiiy-hududiy komplekslarning dahilsizligini ta'minlovchi tabiiy etalondir. Hozirgi sharoitda planetamizning turli-tuman tirik organizmlar genofondini saqlashda qo'riqxonalarning roli katta. Qo'riqxona hududida ko'pgina hayvon va o'simlik turlarining hayoti uchun zarur bo'lgan optimal sharoit mavjud. Shuning uchun qo'riqxonalar hayvon va o'simliklarning ayrim turlarini saqlash va ularni ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi.

Inson tomonidan o'zgartirilgan landshaftlarga moslasha olmagan hayvonlarni faqat qo'riqxonalarda saqlash mumkin bo'lmoqda. Bular – zubr, qulon, goral, begemot, yo'llbars, arslon, qoplon, ilvirs (bars), suv kalamushi, turach, qizil g'oz, gaga va boshqalardir. Shuningdek, bir qancha o'simlik turlari faqat qo'riqxonalarda saqlanmoqda. Masalan, AQShda mamont (sekvoyya) daraxti, Livanda livan kedri, Rossiya hududida tis, shamshod, nilufar va boshqa turlar ana shunday o'simliklardandir. Qo'riqxonalar ovlanadigan hayvonlarni saqlash va ularni ko'paytirishda katta rol o'ynaydi. Masalan, Baykalda Barguzin qo'riqxonasi tashkil qilingan paytda (1916 yil) qurum toshlarda hammasi bo'lib 20-30 suvsar yashardi. Muhofaza qilish natijasida hozir bu hayvon ko'payib, qo'riqxonadagina emas, balki qo'shni hududlarda ham ovchilik ahamiyatga ega.

## Alovida muhofaza qilinadigan hududlar



Muhofaza qilinadigan hududlar o‘q asos tashhishga. O‘zbekiston respublikasida alovida muhofaza qilinadigan hududlarning umumiy nasdori 1355,6 ming ga. Shangi so‘nchalar, bo‘sot va melli y bog‘lar, abut buyurtmalar, tabiat va qo‘sma shaxslardan tashqari. Xalqiy mamlakatlaricha urning qiziqan bosqich va xirslar nafa davriyot qilinadi. O‘sishni qurashishda hisoblanat qurigiga hamda tarjikil etiladi. O‘sishxana hukumatagi haradha barchasi va yoyzdarlar xalq va fabkiyadan farrishib va davlat tashxonalariga qayd qilinadi.

7-rasm Muhofaza qilinadigan hududlar

Voronej qo‘riqxonasi barpo qilingan vaqtida (1927 yil) bir necha juft qunduz bor edi. Shu qo‘riqxona tashkil etilgandan buyon undan Rossiyaning 73 rayoniga 3 mingdan ortiq qunduz tarqatildiki, ular 70 mingdan ortiq nasl berdi. Shunday qilib, qo‘riqxona hududlari turli xil hayvon va o‘simgilik turlarini, ovlanadigan hayvonlarning miqdori va genetik fonlini saqlash uchun xizmat qiladi. Mamlakatimizda hamma qo‘riqxonalar ilmiy muassasalar hisoblanadi. Qo‘riqxonalarda yuzlab xodimlar tabiiy komplekslarni va ularning ayrim komponenntlarini tekshiradilar, tabiiy hodisalarini qayd qiladilar, ilmiy tajribalar o’tkazadilar. Qo‘riqxonalar bilan mamlakati-mizning ilmiy muassasa va oliy o‘quv yurtlari yaqin aloqa o‘matgan. Qo‘riqxonalarda bo‘lajak biologlar, geograflar, o‘rmonshunoslar, geologlar dala praktikasini o’taydi. Qo‘riqxona hududlaridagi tabiiy jarayonlarga inson doimo aralashib turishi kerak. Jumladan, qo‘riqxonadagi yirtqichlar, ularning o‘ljalari hamda tuyoqlilar soni va yem-xashak bazasi ustidan nazorat qilib turilishi lozim.



*8-rasm Hisor qo'riqxonasi*

**Topshiriqlar:**

- 1.Respublikamizda joylashgan qo'riqxonalarni joylashgan o'mini o'rganening.
2. Qo'riqxonalarda saqlanayotgan o'simliklar turlarini o'rganish.
3. Qo'riqxonalarning ahamiyatini o'rganening.

**Topshiriqni mustaqil bajaring !**

B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.

No	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			
5			

**Muhokama savollari**

1. Respublikamizda joylashgan qo'riqxonalar haqida tushuncha bering ?
2. Qo'riqxonalarda saqlanayotgan o'simliklar turlari haqida tushuncha bering ?

3. Qo‘riqxonalarning ahamiyati haqida tushuncha bering ?
4. Inson tomonidan o‘zgartirilgan landshaftlar
5. O‘rta Osiyodagi qo‘riqxonalarning asosiy qismi

#### **40-AMALIY MASHG‘ULOT**

**MAVZU:** Mamlakatimizda “yashil makon” umummilliy loyihasi  
doirasida belgilangan vazifalar.

**Mashg‘ulot maqsadi:** Talabalarga mamlakatimizda “yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar haqida tushuncha va tavsiyalar berish.

**Kerakli ashyolar va jihozlar:** Dars ishlanmalari, tarqatma materiallar va mavzuga oid jadvallar.

**Ish tartibi:** Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilonqa foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta’minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, bu borada o‘tkazilgan tahlil natijalari atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsий javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi (keyingi o'rirlarda — Konsepsiya) I- ilovaga muvofiq tasdiqlansin va unda quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutilsin:

atrof muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sir hamda boshqa salbiy ta'sir qiluvchi ormillardan saqlash va sisatini ta'minlash;

ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, ishlab chiqarish obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish;

qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish;

zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash;

chiqindilar bilan bogliq ishlarni amalga oshirishning ekologik xavfsiz tizimini takomillashtirish;

aholining ekologik madaniyatini shakllantirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining shaffoflik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish;

b) 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019 — 2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rirlarda — "Yo'l xaritasi") 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichlar va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tegishli davrga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan uch yil muddatga alohida-alohida tasdiqlanadigan "yo'l xaritalari" asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriładi.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rirlarda — Davlat ekologiya qo'mitasi):

2021-yil 1-dekabrgacha bo'lgan muddatda "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish yakunlarini puxta o'rganish asosida keyingi davrga

mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" loyihasining ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilishini ta'minlasin;

"yo'l xaritalari" amalga oshirilishi bo'yicha ta'sirchan monitoring yuritsin.

### 3. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari — transport vaziri A.J. Ramatov zimmasiga — Konsepsiya va "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish doirasida mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish yuzasidan;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi B.T. Qo'chqorov zimmasiga — Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

4. Davlat ekologiya qo'mitasi, O'zbekiston Ekologik partiyasi va jamoatchilikning davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriy (keyingi o'rnlarda — moratoriy) joriy etish to'grisidagi taklifi ma'qullansin.

#### Belgilansinki:

a) moratoriy 2019-yil 1-noyabrdan 2020-yil 31-dekabrgacha amal qiladi;

b) moratoriy amal qilish davrida vakolatli davlat organlariga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga ruxsatnomaga berish man etiladi, ushbu bandda belgilangan holatlar bundan mustasno;

#### v) moratoriy:

tabiiy omillar yoki zararkunandalar, o'simliklar kasalliklari ta'sirida zararlangan, qurib borayotgan yoki qurib qolgan, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog'ligiga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga xavf tug'diruvchi daraxtlar va butalarni sanitar kesish va qirqishga;

yog'och va mevalar olish uchun o'stirilayotgan daraxtlar hamda butalarni (terak va tez o'suvchi boshqa navlar, tut plantatsiyalari, mevali daraxtlar va butalar) kesishga;

plantatsiyalarda o'stirilayotgan va/yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulki hisoblangan daraxtlar hamda butalarni kesishga joriy etilmaydi.

Vazirlar, idoralar, shuningdek, xo'jalik boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari obyektlarni qurish va qurishni loyihalashtirish uchun yer maydonlarini tanlash va ajratish bosqichida, shuningdek, muhandislik-kommunikatsiya insratuzilmasini (elektr, gaz va suv ta'minoti, kanalizatsiya, temir yo'l hamda avtomobil yo'llari va boshqalar) barpo etishda, shu jumladan daraxtlar va butalarni ko'chirib o'tkazish amaliyotini qo'llash orqali ularning saqlab qolinishini qat'iy ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga daraxtlar va butalarni himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha, shu jumladan daraxtlar va butalarni noqonuniy kesish, ularga zarar yetkazish yoki yo'q qilish uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni ikki hafta muddatda tasdiqlasin.

O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi Davlat ekologiya qo'mitasi va "Hunarmand" uyushmasi bilan birgalikda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'at mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hunarmandlarni yog'och, shu jumladan daraxtlarning qimmatbaho navlaridan olingan yog'och bilan ta'minlash bo'yicha bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

Davlat ekologiya qo'mitasi 2020-yil 1-noyabrgacha bo'lgan muddatda daraxtlar va butalarni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligidan kelib chiqqan holda, moratoriyning amal qilishini uzaytirish maqsadga muvofiqligi yuzasidan taklif kiritsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Davlat ekologiya qo'mitasi bilan birgalikda hamda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etgan holda, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari komissiyalari tomonidan yashil dov-daraxtlarni sanitар qirqish va

kesishda, shuningdek, ularni qayta ishlash va chiqindilarini utilizatsiya qilish, shu jumladan yogochlardan tijorat maqsadida foydalanishda ekoliya talablariga rioya etilishi yuzasidan nazorat amalga oshirilishini ta'minlasin.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-martdag'i PF-6188-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son)

#### 7. Quyidagilar:

O'zbekiston yoshlar ittifoqining O'zbekiston Ekologik partiyasi bilan birgalikda yoshlarda atrof muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirish, tabiatni saqlash, havo, suv va tuproq ifloslanishiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga ziyon yetkazilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan ekologik aksiyalarni tashkil etish;

"Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish respublika markazining atrof muhitni muhofaza qilishning dolzarb masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish yuzasidan yiliga kamida bir marta ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish to'grisidagi takliflari ma'qullansin.

8. 2019-yil 1-noyabrdan boshlab shunday tartib o'matilsinki, unga muvofiq:

Qoraqalpogiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish qo'mitasining raisi, viloyatlar hamda Toshkent shahar ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining boshliqlari har yili hududda atrof muhitni muhofaza qilishning holati to'grisida tegishli ravishda Qoraqalpogiston Respublikasi Jo'qorgi Kengesiga, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga hisobot taqdim etadi;

ekoliya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida nazorat bo'yicha tuman (shahar) inspeksiyalarining boshliqlari har yili tumanda (shaharda) atrof muhitni muhofaza qilishning holati to'grisida tegishli ravishda xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga hisobot taqdim etadi.

9. 2019-yil 1-noyabrdan boshlab shunday tartib o'matilsinki, unga muvofiq Davlat ekoliya qo'mitasining davlat inspektorlari quyidagi holatlar aniqlanganda tezkor nazorat tadbirlarini nazorat organlari

faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ bilan oldindan kelishmasdan, o'tkazilgan tekshiruv haqida Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali tekshiruv boshlangan paytdan boshlab yigirma to'rt soat ichida vakolatli organni majburiy ravishda xabardor qilgan holda amalga oshiradi:

yonuvchi moddalar va qurilish materiallarini bir joyga to'plash yoki ochiq olovda yoqishda atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha talablarga rioya etmaslik;

dalalar va aholi punktlarida maxsus texnik vositalarni qo'llamasdan bitumni eritish, angizni, to'kilgan barglarni va daraxt shoxlari yoki boshqa o'simlik qoldiqlarini yoqish;

oqava suvlarni joy relyefiga yoki ochiq havzalarga, shuningdek, kommunal kanalizatsiya tizimiga normadan ortiqcha yoki ruxsatsiz oqizish;

tabiiy suv obyektlaridan suvdan maxsus foydalanish yoki suv iste'moliga ruxsatnomasiz suv olish;

daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesish, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni yigish va tayyorlash yoki yo'q qilish, yovvoyi hayvonlarni (shu jumadan baliqni) ovlash yoki qo'lga kiritish;

chiqindilar bilan bogliq ishlarni amalga oshirish sohasida qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik;

daryolar, soylar, kichik daryo va ko'llarning o'zanlari va suvni muhofaza qilish zonalarini tozalash, shuningdek, ularning qirg'oqlarini mustahkamlash ishlarini amalga oshirishda qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik.

#### 10. Quyidagilar:

2020-yil 1-yanvardan boshlab "Yevro-4"dan past ekologik toifadagi motor yoqilgisini ishlab chiqarish bo'yicha yangi quvvatlarni ishga tushirish;

2022-yil 1-yanvardan boshlab "Yevro-3"dan past ekologik toifadagi motor yoqilgisini, 2023-yil 1-yanvardan boshlab esa "Yevro-4"dan past ekologik toifadagi motor yoqilgisini "vaqtincha olib kirish" va "erkin muomala (import) uchun chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirish;

2022-yil 1-yanvardan boshlab zaharlilik darajasi “Yevro-4” ekologik toifa talablariga mos kelmaydigan gaz, benzin va dizel dvigatellari bilan jihozlangan “M” va “N” toifalaridagi gildirakli transport vositalaridan foydalanish va ularni sotish maqsadida “vaqtincha olib kirish” va “erkin muomala (import) uchun chiqarish” bojxona rejimiga joylashtirish man etilsin.



9-rasm Yashil makon



### **Mavzuni mustahkamlash.**

**Mavzu yuzasidan olingen ma'lumotlar asosida insert jadvalini to'ldirish.**

V	+	-	?
men bilgan ma'lumotlarga mos	men uchun yangi ma'lumot	men bilgan ma'lumotlarga zid	men uchun tushunarsiz.

### **Topshiriqlar:**

1. Ekologik loyihalar haqida o'rghanish.
2. Xalqaro ekologik loyihalarning bajarilishini o'rghanish.
3. Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasini vazifalarini o'rghanish.

**Topshiriqnini mustaqil bajaring !**

**B/BX/B - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim jadvalini to'ldirish.**

Nº	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1			
2			
3			
4			

### **Muhokama savollari**

1. Ekologik loyihalar haqida tushuncha bering ?
2. Xalqaro ekologik loyihalarning bajarilishi haqida tushuncha bering ?

3. Mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi haqida tushuncha bering?
4. Yo'l xaritaasi nima?
- 5 Ekologik ekspertiza nima?

## FAN BO'YICHA GLOSSARIY (IZOXLI LUG'ATI)

**EKOLOGIK TA'RIXIY USUL** - bu usul introdutsent o'simliklar ob'ekt tabiiy florasini tarixiy analiz qilish bo'yicha o'rGANILADI va baxolanadi.

**EKOLOGIK GENETIK USUL** - bu usulda introduksiya qilinadigan o'simliklar ekologik sistema va kelib chiqish holati bo'yicha o'rGANILADI.

**EKOLOGIK-INTRODUKSIYA USULI** - bu usulda o'simliklar introduksiya sharoitning ekologik omillarga bo'lgan munosabatiga ko'ra eksperimental tajribalar asosida o'rGANILADI va baholanadi.

**EKOTIP** - o'simlik areali doirasida muayyan tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan va irlaridan barqaror o'simlik shakllari.

**ENDEMIK** - tor areaiga ega va faqt kichik geografik hududda tarqalgan o'simlik turi.

**FARMAKOGNOZIYA** - asosan o'simliklar, qisman hayvonlardan olinadigan dorivor xomashyolar-yog'lar, efir moylari, daraxt yelimi, mum, lanolin va boshqalarni o'rGANUVCHI fan.

**FENOLOGIYA** - daraxt-butalarda vegetatsiya davrida fasllar o'zgarishiga bog'liq sodir bo'luvchi mavsumiy o'zgarishlarni o'rGANUVCHI fan.

**FITOTSENOZ** - turli hayoliy shakllar va turlarga ega bo'lgan o'simliklar majmui. U turlararo va tur ichidagi o'simliklar o'rtasida yashash uchun kurash natijasida shakllanadi.

**FLAVONOIDLAR** - benzo - piron (xromon) hosilasi. Flavonidlar o'simliklar dunyosida keng tarqalgan bo'lib, asosan gul va barglarda to'planadi. Flavonoid preparatlari va ularni saqlovchi o'simliklardan tayyorlangan dorivor vositalari va tibbiyotda vitamin yetishmovchiligidagi qon tomirlarni o'tkazuvchanligi buzilishida kelib chiqadigan kasalliklarni davolashda ishlataladi.

**FORMATSIYA** - yagona dominant daraxt turidan iborat turli assotsiatsiyalarni birlashmasi.

**GABITUS** - o'simlik shox-shabbasini morfologik tashqi tuzilishi, o'simlikning umumiy ko'rinishi.

**GALEN PREPARATLARI** - tibbiyotda keng ishlataladigan dorivor o'simliklardan ajratib olingan turli farmakologik xususiyatga ega dorivor vositalar. Qadimgi rimlik vrach Klavdiy Galen nomi bilan atalgan.

**GALOFITLAR** - Cho'l va sahrolarda, daryo vodiylari va dengiz bo'yalarida Genotip - Sho'rxoq yerlarda o'sishga moslashgan o'simliklar. O'simliklar filogenesini aks ettiruvchi irlar asos.

**GEOBOTANIKA** - botanikaning o'simliklar fitotsenozlarini tuzilishi, tarkibi, rivojlanishi va tarqalishini tuproq, iqlim va boshqa omillarga bog'lab o'rGANUVCHI fan.

Glikozidlari - parchalanganda qand va qand bo'lмаган(aglikon) qismini hosil qiluvchi murakkab organik moddalar. Glikozidlarni parchalanishi gidroliz jarayoni deyiladi. Hamma glikozidlari suvda yaxshi, spirtda yomon eriydi, organik eritmalarda erimaydi. Aglikonlari aksincha suvda erimaydi, spirtda turlicha,

organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Qand qismi (manosaxaridlar, disaxaridlar va boshqalar) aglikonga kislород, oltингугурт orqali yoki bevosita uglerod atomiga birikadi.

**GIGROFITLAR** - namsevar o'simliklar ya'ni namlik darajasi haddan ziyot yuqori bo'lgan sharoitlarda ham yashay oladigan o'simliklar.

**GIPOKOTIL** - urug'palla osti- poyaning ildiz bo'g'ini bilan urug', barg orasidagi pastki qismi.

**INULIN** - ba'zi o'simliklarda to'planish xususiyatiga ega zaxira polisaxaridi. Asosan murakkabguldoshlar oilasiga mansub o'simliklarda uchraydi. D- fruktoza goldiqlaridan hosil bo'ladi, fruktoza olishda foydalaniadi.

**INTRODUKSIYA** - biror o'simlikni o'z arealidan tashqarida u avval o'smagan mintaqaga yoki geografik hududga keltirib o'stirish.

**INTRODUKSIYA OMILLARI (TABIIY VA ANTROPOGEN)** - Introduksiya sharoitining tabiiy (iqlim, rel'yf, geologik, gidrogeologik, tuproq, tabiiy o'simliklar qopqlamlari, shamol, hayvonot olami) omillari.

**ILDIZ BO'G'INI** - o'simlik bosh ildizi bilan poyasi qo'shilish joyi

**KALLYUS** - o'simlik novdasini kesilgan quyi (bazal) qismida yuzaga keladigan yo'g'onlashgan buqoqsimon bo'rtiq yoki qadoq. Undan ildiz shakllanadi.

**KAROTINOIDLAR** - tetraterpenlarga tegishli yog'da eruvchan sariq, olovrang va qizil rangdag'i pigmentlar keyinchalik A vitamin hosil bo'lishiha zamin bo'ladi.

**KLON** - vegetativ ko'paytirish usulida hosil qilingan va ota-onalik xususiyatlarini o'zida to'liq mujassam qilgan yosh o'simlik.

**KRAXMAL** - zahiradagi polisaharid bo'lib, hidsiz, mazasis mayin oq kukun. Sovuq suv, spirit va organik erituvchilardan erimaydi. Tibbiyotda kartoshka, bug'doy, makkajo'xori va guruch kraxmal ishlatalindi.

**KLONAL MIKROKO'PAYTIRISH** - o'simliklarni stiril sharoitlarda invitro usulida jinsiz ko'paytirish.

**LIPIDLAR** - o'simlik va xayvonlardan olinadigan moy va moysimon moddalar. Lipidlар organizmida energetik zahira hosil qiladi hamda o'simlik va xayvonlarda suv yuqtirmaydigan himoya qatlarnini yuzaga keltiradi.

**MIKOLOGIYA** - zambarug'larni o'tgatuvchi fan, botanikaning bo'limlaridan biri.

**MIKROELEMENTLAR** - o'simlik oziqlanishi uchun juda oz miqdorda zarur bo'ladigan mineral elementlar (bor, rux, mis, marganets, alyuminiy, molibden)

**MUSBAT SHAKL** - qimmatli xo'jalik- biologik xususiyatlarga ega va boshqa turdoshlaridan ustun o'simlik individi.

**NORMATIV TEHNİK XUJJAT** - dorivor o'simliklar maxsulotlarini sifatini rasmiylashtiruvchi (reglamentga soluvchi) xujjat yig'indisi. Ularga davlat standartlari farmakopiya maqolalari va boshqa xujjatlar kiradi.

**NEKTAR** - o'simlik gullaridagi asal bezchalari, ya'ni nektar bezchalari tomonidan ajratiladigan shirin xushbo'y shira, u gulni changlanishi uchun hashoratlarni jalg etishga xizmat qiladi.

**OSHLOVCHI MODDALAR, (TANIDLAR)** - o'simliklarni yuqori molekulyar murakkab fenol birikmalari (molekulyar massasi 3000-5000 ba'zan 20000 gacha) aralashmasi bo'lib o'simliklarning hamma organlarida 70% gacha to'planishi mumkin. Ular hayvonlarni xom terilarini oshlash xususiyatiga ega. Tibbiyotda burushtiruvchi va bakteritsid vosita sifatida ishlataladi.

**O'RMON** - daraxtlar, butalar, o't o'simliklar, hayvonat olami va mikroorganizmlardan iborat, bir-biriga biologik bog'liq, bir-biriga, hamda tashqi muhitga ta'sir etuvchi geografik landshaftning asosiy elementi.

**O'RMONCHILIK** - xalq ho'jaligi va aholini yog'och va boshqa yog'och bo'lmagan o'rmon mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hamda o'rmonni yaxshilash, muhofaza etish va uning suvni, tuproqni, muhofazalovchi- himoya, muhit yaratuvchanlik va ijtimoiy funksiyalarni oshirish maqsadida o'rmondan foydalanish va o'rmon yetishtirishining nazaryasi va amalyoti.

**O'RMON RESURSLARI** - o'rmonning yog'och va yog'och bo'lmagan mahsulotlari (qo'shimcha mahsulotlari) hamda uning foydali (rekreatsion) xususiyatlarining majmuasi.

O'simlik resurslari- o'simliklarning mahsulotlari va zaxiralari

**PARTENOKARPIYA** - daraxt-butalar o'simliklarda urug'lanmasdan turib meva hosil bo'lish hodisasi.

**POLISAXARIDLAR** - bir xil monosaxaridlar (gomopolisaxaridlari) bir xil bo'lmagan monosaxaridlar (getropolisaxaridlari) va ba'zan uglevod bo'lmagan birikmalar (getropolisaxaridlari) qoldiqlaridan tarkib topgan yuqori molekulali organik moddalar. Ularga kraxmal, gilikogen, selluloza, inulin, pektin, shilliq moddalar kiradi.

**POPULYATSIYA** - tabiiy tanlash jarayonida shakillangan va muayyan arealiga ega o'simlik turlari. Populyasiya turning yashash shakli hisoblanadi.

**SAPONINLAR** - ular gemolitik va yuza faolligiga ega bo'lib, sovuqqonli hayvonlar uchun zaharlidir. Aglikoni tuzilishiga ko'ra stroid va triterpene saponinlarga ajratiladi. Saponinlar keng spektrli farmokologik xususiyatlarga ega, ular sedative, stimullahtiruvchi shamollahsga qarshi vosita sifatida ishlataladi.

**TABIY TANLANISH** - o'simliklarni tabiiy sharoitlarga maksimal moslashib o'z turi, hayoti va taraqqiyoti uchun foydali belgi va xususiyatlarini saqlab qolishi.

**TURKUM KOMPLEKS (METOD RODOVOY KOMPLEKS) USULI** - bu kompleks usul bo'lib, turkum doirasidagi o'simlik turlar introduksiya sharoitida eksperimental asosida o'rganiladi va baholanadi.

**VEGETATIV KO'PAYTIRISH** - o'simliklarni novda, ildiz, ildiz poya, piyozi, tugunagi orqali ko'paytirish va o'z ildiziga ega yosh o'simlik yuzaga keltirish.

**VEGETATSIYA DAVRI** - o'simlikni qishgi tinim davridan uyg'onishidan toki kuzgi tinim davrigacha o'sish uchun qulay bo'lgan sovuq bo'lmaydigan davr.

**VITAMINLAR** - inson va hayvonlar uchu muhim ahamiyatga ega bo'lgan turli kimyoviy tuzilishga ega organic birikmalar. Oqsil, yog'va uglevodlarga nisbatan kam miqdorda talab etiladigan bu birikmalar fermentlar molekulasi tarkibiga kirib, to'qimalardagi moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi. Ular 2 sinfga suvda criydigan va yog'da criydigan vitaminlarga ajratiladilar.

**ZAHARLI O'SIMLIKLER** - tarkibida odam va hayvonlar uchun zaharli bo'lgan moddalari mavjud o'simliklar. Yershari florasida 10000 turga yaqin zaharli o'simliklar mavjudligi aniqlangan. O'zbekistonda aylqtovon, bangidevona, mingdevona, ko'kmaraq, parpi, talxak, tarvuzpalak, o'rmonqora, qo'shyaproq kabi zaharli o'simliklar uchraydi.

## TEST SAVOLLARI

1. Maxmud Qoshg'ariy asarlarida nechta o'simlik turi haqida ekologik ma'lumotlar berilgan?  
A) 200  
B) 250  
C) 300  
D) 480
2. Organizmlarning muhitiga moslashishi:  
A) Adaptatsiya  
B) Evribiont  
C) Stress  
D) Gomeostaz
3. Produtsentlarning roli:  
A) Anorganik birikmalar xisobiga organik moddalar xosil qiladi  
B) Tayyor organik moddalarni parchalaydi  
C) O'lik moddalarni parchalaydi  
D) Anorganik elementlar zaxirasini yaratadi
4. O'simliklarning hayotiy shakllari:  
A) Daraxti, buta, chala buta, o't o'simliklar  
B) Bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik  
C) Chala buta, suv o'simliklari, yaylovlari  
D) Cho'l, tropik, tundra «hududi o'simliklari
5. O'zR "O'simliklarning dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" qonuni qachon qabul qilingan?  
A) 1997 yil  
B) 1999 yil  
C) 2001 yil  
D) 2006 yil.
6. Ekologiya faniga asosiy hissa qo'shgan yunon olimlari?  
A Aristotel, Gippokrat  
B Beruniy  
D Qashqarov  
E Ibin Sino
7. Biosfera qaysi so'zdan olingan?  
A yunoncha  
B lotincha  
D turkcha  
E ingilizcha
8. Biosfera nima degan manoni bildirdi?  
A bios-hayot sfera-shar  
B oykos yashash joy  
D logos san  
E barcha javob to'g'ri
9. Biosfera atamasini fanga birinchi kim kiritdi?

- A E.Zyuss  
B E.Gekkel  
C V.I.Vernadskiy  
D CH. Darven
10. Biosfera haqidagi talimotni kim yaratgan?  
A V.I.Vernadskiy  
B E.Gekkel  
C E.Zyuss  
D CH. Darwin
11. Biosferaning yuqori chegarasi nechi kilometr?  
A 22-25 km  
B 20 km  
C 15 km  
E 29 km
12. Biosferada tirik organizmlarni funksiyasini V.I.Vernadskiy nechiga bo'lib o'rGANADI?  
A 4 ga  
B 5 ga  
D 6 ga  
E 2 ga
13. Gidrasfera nima?  
A suv qobiq  
B tosh qobiq  
D gassimon qismi  
E barchasi to'g'ri
14. Gidrosfera chegarasi qanchani tashkil qiladi?  
A 11 km  
B 8 km  
D 5 km  
E 6 km
15. Litosfera nima?  
A tosh qobiq  
B suv qobiq  
D gazsimon qatlam  
E barchasi to'g'ri
16. Trik organizmlar litosferaning qancha chuqurlikda uehratish mumkin?  
A 3-5 km  
B 5-7 km  
D 2-4 km  
E 5-8 km
17. Biosfera...nima bu?  
A Yer sharining tirik organizmlar ta'sirida bo'lgan qismi  
B Yer sharining hayvonlar ta'sirida bo'lgan qismi  
D Yer sharining noorganik moddalar ta'sirida bo'lgan qismi

- E Yer sharining insonlar ta'sirida bo'lgan qismi
18. Biosferaning tirik tarkibini ko'rsating?
- A O'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar.
- B Hayvon va tuproq
- D O'simliklar va suv muhiti
- E O'simlik va havo
19. Biosferaning notirik tarkibiy qismlarini ko'rsating?
- A Tuproq, suv va havo
- B Hayvon va tuproq
- D O'simliklar va suv muhiti
- E O'simlik va havo
20. Biosferadagi tirik organizmlarning umumiy massasi ..... deyiladi?
- A Biomassa
- B zoomassa
- D fitomassa
- E to'g'ri javob yo'q
21. Hayvonlarning umumiy massasi .....deyiladi?
- A zoomassa
- B fitomassa
- D Biomassa
- E to'g'ri javob yo'q
22. Geterotrof organizmlar majmuasining boshqacha nomlanishi qanday?
- A konsumentlar
- B redutsentlar
- D destruktiorlar
- E produtsentlar
23. Bakteriyalar, zamburug'lar, mikroorganizmlar qaysi organizmlar guruhiiga kiradi?
- A redutsentlar
- B produtsentlar
- D konsumentlar
- E geterotroflar
24. Hayvonlar va xlorofillsiz o'simliklar qaysi organizmlar guruhiiga kiradi?
- A konsumentlar
- B produtsentlar
- D redutsentlar
- E destruktiorlar
25. Produtsentlarga qaysi organizmlar kiradi?
- A yashil o'simliklar va fotosintezlovchi bakteriyalar
- B sianobakteriyalar
- D hayvonlar
- E xlorofilsiz o'simliklar
26. Moslashmagan inson organizmi dengiz sathidan qancha balandlikda o'zini noxush sezadi, ya'ni ahvoli yomonlashadi, ishlash qobiliyati pasayadi?

- A 3000 m  
B 300 m  
D 4000 m  
E 5000 m
27. Qancha balandlikda inson hushidan ketadi?
- A 6000 m  
B 4000 m  
D 3000 m  
E 2000 m
28. Bir kishi bir sutkada o'zining nafas organlari orqali qancha havo o'tkazadi?
- A 20 m<sup>3</sup>  
B 15 m<sup>3</sup>  
D 10 m<sup>3</sup>  
E 25 m<sup>3</sup>
29. Yer yuzidagi organizmlarning yashashi, rivojlanishi va tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim abiotik omillardan biri haroratdir?
- A harorat  
B vodorod  
D kislord  
E azod
30. Tana haroratini saqlay olish xususiyatlariغا ko'ta hayvonlar qanday turlarga bo'linadi?
- A issiq qonllilar va sovuq qonllilarga  
B yirtqichlilar va sovuq qonllilarga  
D issiq qonllilar va sudralib yuruvechilar  
E barja javob to'g'ri
31. Ekologik omillar necha guruhga bo'linadi?
- A ikki guruhga  
B besh guruhga  
D bitta guruhga  
E to'rt guruhga
32. Abiotik omillar necha guruhga bo'linadi?
- A uch guruhga  
B ikki guruhga  
D to'rt guruhga  
E besh guruhga
33. Tugaydigan qayta tiklanadigan tabiiy resurslar sirasiga qaysi resurs turlari kiradi?
- A tuproq, o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi  
B yer osti qazilma boyliklari  
D suv, havo  
E iqlim resurslari
34. Atmosferani ifloslovchi manbalar qaysilar?
- A tabiiy va sun'iy manbalar

B tabiiy manbalar

D sun'iy manbalar

E antropogen manbalar

35. Okeanlar yer yuzining necha foizini egallaydi?

A 70

B 40

D 50

E 100

36. Inson faoliyati natijasida paydo bo'ladigan ekosistemalar nima deb yuritiladi?

A sun'iy ekosistemalar

B tabiiy ekosistemalar

D tabiiy va madaniy ekosistemalar

E tabiiy va sun'iy ekosistemalar

37. Gazlar juda siyrak joylashgan atmosfera qatlaming nomi nima?

A ionosfera

B troposfera

D stratosfera

E ekzosfera

38. Ozon qatlami atmosferaning qaysi qavatida joylashgan?

A stratosferada

B troposferada

D ionosferada

E termosferada

39. «Ozon qatlami» ning ahamiyati nimada?

A quyoshdan kelayotgan ultrabinafsa nurlarining ortiqchasi tutib qoladi

B yer yuzida haroratni mo'tadillashtirib turadi

D yer yuzini isitib turadi

E o'zidan ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi moddalar ajratib turadi

40. Ozon gazi zaharlimi?

A konsentratsiyasi optimumdan oshganda

B yo'q

D yozning issiq kunlarida zaharli

E qishning sovuq kunlarida zaharli

41. Ozon qatlaming shartli qalinligi qancha?

A 2-4 mm

B 1-2 km

D 5-10 m

E 5 sm

42. Ozon qatlamini qanday modda ko'proq yemiradi?

A freon

B mishyak

D karbonat angidrid

E kislород

43. Ozon qatlamini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiya qachon va qayerda

- imzolangan?
- A 1993 yil Venada  
B 1995 yil Bazelda  
D 1995 yil Bonnda  
E 1997 yil Monrealda
44. Yer yuzida «issiqxona effekti»ni oshiruvchi sabablar nima?
- A atmosferada issiqxona gazlarining to'plana borishi  
B organik moddalarning parchalanish jarayonida ajraladigan energiya  
D atmosferada kislorodning kamayishi  
E havoda kislorodning kamayishi
45. Atmosferani ifloslovchi manbalar qaysilar?
- A tabiiy va sun'iy manbalar  
B tabiiy manbalar  
D sun'iy manbalar  
E antropogen manbalar
46. Ozuqa zanjiri nechta bo'g'indan iborat?
- A 3-5  
B 5  
D 10  
E 2
47. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabo'l qilingan?
- A 1992 yil 9 dekabrda  
B 1991 yil 9 yanvar  
D 1994 yil 10 sentyabr  
E 1995 yil 10 dekabrda
48. O'zbekiston Respublikasi hukumati ekologik siyosatining bosh maqsadi ...?
- A o'z fuqarolari va butundunyo hamjamiyatini hayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhit bilan ta'minlash  
B o'z hududida tabiatni muhofaza qilish ishlarini tashkil qilish  
D tabiat muhofazasini bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish  
E ekologiyaga doir tadbirlarni tashkil qilish
49. MDH mamlakatlari orasida O'zbekiston aholi zichligi bo'yicha nechanchi o'rinda?
- A uchinchi  
B ikkinchi  
D beshinch  
E oltinchi
50. Tabiat muhofazasi bo'yicha Maxsus davlat boshqaruvi organlari orasida qaysi tashkilot yetakchi o'rinni egallaydi?
- A Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi  
B Yer resurslari davlat qo'mitasi  
D Gidrometeorologiya davlat qo'mitasi  
E Sog'liqni saqlash vazirligi

51. Suv o'rta yoshdagi erkak organizmi vazning o'rtacha qanchasini tashkil qiladi?

- A 61%
- B 55%
- D 80%
- E 65%

52. Suvning geologik roli nimada?

- A tog' jinslarini nuratadi, yuvadi va boshqa yerlarga ko'chiradi
- B fotosintez jarayoniga qatnashadi

D atmosfera yog'inlarini paydo qiladi

E tirik organizmlarni namlik bilan ta'minlaydi

53. Suvning yerdagi umumiy zaxirasi qancha?

- A qariyb 1,5 mlrd km/kub
- B 1,0 mlrd km/kub dan ortiq
- D 2,0 mlrd km/kub
- E 5,0 mlrd km/kub

54. Umumiy suv zaxiralaridan qanchasi chuchuk suv?

- A 2 %
- B 1%
- D 3%
- E 5%

55. Dunyo bo'yicha qaysi soha suvdan eng ko'p foydalananadi?

- A qishloq xo'jaligi
- B sanoat
- D energetika
- E maishiy turmush

56. Chuchuk suv muammosining kelib chiqish sababi?

- A suv sarfining ko'payishi va suvning ifloslanishi
- B chuchuk suv qayoqqadir ketib qolayotganligi
- D yer qobig'idagi tektonik harakatlar
- E demografik o'sish

57. BMT tomonidan qaysi yil «Chuchuk suv yili» deb e'lon qilingan?

- A 2003 y.
- B 1950 y.
- D 1998 y.
- E 2000 y.

58. Suvning nest va nest mahsulotlari bilan ifloslanishi nimasi bilan xavfli?

- A suvning beti moyli pylonka bilan qoplanib, aeratsiya (gaz almashish jarayoni) buziladi

B suv ichishga yaroqsiz holga keladi

D suv zaharlanib, gidrobiontlar qirilib ketadi

E suvda evtrofikatsiya hodisasi ro'y beradi

59. Oqava suvlarni tozalashning ko'p qo'llaniladigan usullari qaysilar?

- A mexanik , fizik-kimyoviy va biologik

B kimyoviy va biologik

- D mexanik va kimyoviy  
E fizikaviy va kimyoviy  
60. Tabiiy resurs nima?  
A inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan yoki kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha vositalar  
B gazsimon qazilma boyliklar  
D mineral qazilma boyliklar  
E barcha turdag'i qazilma boyliklar  
61. Tabiiy resurslar chekli-cheksizligiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?  
A ikki guruhga  
B uch guruhga  
D besh guruhga  
E yetti guruhga  
62. Qazilma boyliklar tabiiy resurslarning qaysi turiga mansub?  
A tugaydigan qayta tiklanmaydigan turiga  
B tugaydigan turiga  
D tugarmaydigan turiga  
E qayta tiklanadigan turiga  
63. Tugaydigan qayta tiklanadigan tabiiy resurslar sirasiga qaysi resurs turlari kiradi?  
A tuproq, o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi  
B yer osti qazilma boyliklari  
D suv, havo  
E iqlim resurslari  
64. O'zbekistonda oltinning asosiy zaxiralari qaysi hududda joylashgan?  
A Qizilqum hududida  
B Toshkentoldi hududida  
D Olmaliq hududida  
E Nurobod hududida  
65. O'zbekistonda misning asosiy zaxiralari qaysi hududda joylashgan?  
A Olmaliq hududida  
B Qizilqum hududida  
D Toshkentoldi hududida  
E Nurobod hududida  
66. Ekologik omillar necha guruhga bo'linadi?  
A ikki guruhga  
B besh guruhga  
D uch guruhga  
E to'rt guruhga  
67. Abiotik omillar necha guruhga bo'linadi?  
A uch guruhga..  
B ikki guruhga ..  
D to'rt guruhga.  
E besh guruhga.

68. Abiotik va biotik omillarni bog'lovchi asosiy abiotik omil nima?

- A harorat
- B yorug'lik
- C iqlim
- D tuproq

69. Abiotik omil xillari?

- A iqlim, tuproq, yorug'lik, harorat, atmosfera
- B edafik, iqlim, topografik
- C iqlim, antropogen, topografik
- D edafik, topografik, tuproq

70. Markaziy Osiyoda eng sersuv daryo?

- A Amudaryo
- B Sirdaryo
- C Zarafshon
- D Qoradaryo

71.O'zbekiston Respublikasining dastlabki Qizil kitoblari qachon nashr etildi?

- A 1983-1984 yillar
- B 1986-1987 yillar
- C 1988-1989 yillar
- D 1991-1992 yillar

72. Tabiatga antropogen ta'sir tushunchasi...?

- A tabiatga inson faoliyatining ta'siri
- B tabiatga hayvonot olamining ta'siri
- C tabiatga o'simliklarning ta'siri
- E tabiatga sanoat korxonalarining ta'siri

73. Odamning tashqi muhitga ta'siri nima deyiladi?

- A antropogen omil
- B biotik omil
- C abiotik omil
- E edafik omil

74.Tuproqni o'rganuvchi tashqi muhit omiliga nima deyiladi?

- A edafik
- B biotik
- C antropogen
- E abiotik

75. Abiotik va biotik omillarni bog'lovchi asosiy abiotik omil nima?

- A harorat
- B yorug'lik
- C iqlim
- E tuproq

76. Abiotik omil xillari?

- A iqlim, tuproq, yorug'lik, harorat, atmosfera
- B edafik, iqlim, topografik

- D iqlim, antropogen, topografik  
E edafik, topografik, tuproq
77. Tabiiy resurs nima?
- A inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan yoki kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha vositalar  
B gazsimon qazilma boyliklar  
C mineral qazilma boyliklar  
D barcha turdag'i qazilma boyliklar
78. «Ozon qatlami» ning ahamiyati nimada?
- A quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarini tutib qoladi  
B yer yuzida haroratni mo'tadillashtirib turadi  
C yer yuzini isitib turadi  
D o'zidan ijobji ta'sir ko'rsatuvchi moddalar ajratib turadi
79. Yer yuzida «issiqxona effekti»ni oshiruvchi sabablar nima?
- A atmosferada issiqxona gazlарining ( $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$ ) to'plana borishi  
B organik moddalarning parchalanish jarayonida ajraladigan energiya  
C atmosferada kislorodning kamayishi  
D havoda kislorodning kamayishi
80. Ozon qatlami atmosferaning qaysi qavatida joylashgan?
- A stratosferada  
B troposferada  
C ionosferada  
D termosferada
81. Tugaydig'an qayta tiklanadigan tabiiy resurslar sirasiga qaysi resurs turlari kiradi?
- A tuproq, o'simliklar dunyosi, hayvonot dunyosi  
B yer osti qazilma boyliklari  
C suv, havo  
E iqlim resurslari
82. Yer yuzidagi barcha omillar ilmiy jihatdan necha guruhga bo'linadi?
- A 2 ga abiotik, biotik  
B 3 ga abiotik, biotik, neytralizm  
D biotik, neytralizm  
E neytralizm
83. Tabiiy resurs nima?
- A inson o'zining hayot faoliyati uchun tabiatdan oladigan yoki kelajakda olishi mumkin bo'lgan barcha vositalar  
B gazsimon qazilma boyliklar  
C mineral qazilma boyliklar  
E barcha turdag'i qazilma boyliklar
84. Tabiiy resurslar chekli-cheksizligiga ko'ra necha guruhga bo'linadi?
- A ikki guruhga  
B uch guruhga  
D besh guruhga

E etti guruhga

85. Qazilma boyliklar tabiiy resurslarning qaysi turiga mansub?

A tugaydigan qayta tiklanmaydigan turiga

B tugaydigan turiga

D tugamaydigan turiga

E qayta tiklanadigan turiga

86. Tabiiy resurslardan foydalanishning uchta qoidasini ko'rsatib bering?

A ko'p qirralilik, regionallik, o'zaro bog'liqlik

B ko'p qirralilik, samaradorlik, o'zaro bog'liqlik

D tejamkorlik, ko'p qirralilik, o'zaro bog'liqlik

E o'zaro bog'liqlik, regionallik, samaradoorlik

87. Biosferaning tirik tarkibini ko'rsating?

A O'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar.

B Hayvon va tuproq

D O'simliklar va suv muhiti

E O'simlik va havo

88. Biosferaning notirik tarkibiy qismlarini ko'rsating?

A Tuproq, suv va havo

B Hayvon va tuproq

D O'simliklar va suv muhiti

E O'simlik va havo

89. Biosferadagi tirik organizmlarning umumiy massasi..... deyiladi?

A Biomassa

B zoomassa

D fitomassa

E to'g'ri javob yo'q

90. Hayvonlarning umumiy massasi .....deyiladi?

A zoomassa

B fitomassa

D Biomassa

E to'g'ri javob yo'q

91. Geterotrof organizmlar majmuasining boshqacha nomlanishi qanday?

A konsumentlar

B redutsentlar

D destrukturolar

E produtsentlar

92. Bakteriyalar, zamburug'lar, mikroorganizmlar qaysi organizmlar guruhibiga kiradi?

A redutsentlar

B produtsentlar

D konsumentlar

E geterotroflar

93. Hayvonlar va xlorofillsiz o'simliklar qaysi organizmlar guruhibiga kiradi?

A konsumentlar

- B produtsentlar  
D redutsentlar  
E destrukturolar
94. Produtsentlarga qaysi organizmlar kiradi?
- A yashil o'simliklar va fotosintezlovchi bakteriyalar  
B sianobakteriyalar  
D hayvonlar  
E xlorofilsiz o'simliklar
95. Moslashmagan inson organizmi dengiz sathidan qancha balandlikda o'zini noxush sezadi, ya'n ni ahvoli yomonlashadi, ishslash qobiliyati pasayadi?
- A 3000 m  
B 300 m  
D 4000 m  
E 5000 m
96. Qancha balandlikda inson hushidan ketadi?
- A 6000 m  
B 4000 m  
D 3000 m  
E 2000 m
97. Abiotik va biotik omillarni bog'lovchi asosiy abiotik omil nima?
- A harorat  
B yorug'lik  
D iqlim  
E tuproq
98. Abiotik omil xillari?
- A iqlim, tuproq, yorug'lik, harorat, atmosfera  
B edafik, iqlim, topografik  
D iqlim, antropogen, topografik  
E edafik, topografik, tuproq
99. Markaziy Osiyoda eng sersuv daryo?
- A Amudaryo  
B Sirdaryo  
D Zarafshon  
E Qoradaryo
- 100.O'zbekiston Respublikasining dastlabki Qizil kitoblari qachon nashr etildi?
- A 1983-1984 yillar  
B 1986-1987 yillar  
D 1988-1989 yillar  
E 1991-1992 yillar

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, e兹gulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdag'i "Veterinariya va chovchachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdag'i "Veterinariya va chovchachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, e兹gulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 400 bet.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" i. I-2 torn. T., "Chinor ENK". 2009.
11. Gorshina T.K. –Ekologiya rasteniy. M. «Vissaya shkola». 1979.
12. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
13. G'appor Bobonazarov. "Bioxilma – xillik" Qarshi "Nasaf"-NMU 2021 y
14. To'xtayev A. Ekologiya. T.: O'qituvchi. 1998., 2001.
15. Tursunov X. Ekologiya va barqaror rivojlanish: o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2009. – 120 b. 8.
16. Qayumov A.A., Yakubov O'.Sh., Raximov A.K. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish. Toshkent, O'quv –qo'llanma. «Fan» 2011.
17. I.H. Hamdamov, E.I. Hamdamov, G.A. Suvanova, M. Begmatova "Botanika va o'simliklar fiziologiyasi" Darslik" Sano -Standart" Toshkent 2017 й.368-b.
18. Shernazarov Sh.Sh va boshqalar "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ilotlari uchun uslubiy qo'llanma. Samarqand 2021
19. Yunusov X.B, Elmurodov A.A.,Shernazarov Sh.Sh va boshqalar "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ilotlari uchun o'quv qo'llanma. Samarqand 2023
20. A.S. To'xtayev "Ekologiya" o'quv qo'llanma. Toshkent2001
21. Usmonob M.B. va bosh "Ekologik huquq" darslik Toshkent2006

### Axborot manbaalari

- 22.<http://www.Environment.ru>.
- 23.<http://www.Ecology.ru>.
- 24.<http://www.Environ.com>.
- 25.<http://www.Ecolog.com>.
26. <http://www.FAO.ru>

## MUNDARIJA

1	Kirish.....	4
2	O'simliklar ekologiyasi fanining maqsadi, vazifalari.....	6
3	O'simliklar ekologiyasining qisqacha tarixi.....	12
4	O'simliklarga ekologik omillar ta'siri.....	16
5	O'simliklarga biotik omillar ta'siri.....	19
6	O'simliklarga abiotik omillar ta'siri.....	23
7	O'simliklarning ekologik guruhlarini o'rganish.....	26
8	O'simliklar olamida moslanishlar.....	30
9	Atrof-muhit omillarintop o'simliklar ko'payishiga ta'siri.....	33
10	Turli balandlik mintaqasida o'simliklarning tarqalishi.....	36
11	Cho'l o'simliklarning ekologiyasi.....	38
12	To'qay mintaqasi o'simliklarning ekologiyasi.....	42
13	Tog' mintaqasi o'simliklari.....	45
14	Yaylov mintaqasi o'simliklari.....	48
15	Tuproq hosil bo'lishida o'simliklarning ahamiyati.....	51
16	Dorivor o'simliklar ekologiyasi.....	53
17	Manzarali o'simliklar ekologik xususiyatlari.....	56
18	Suv o'simliklarning ekologik guruhlar.....	59
19	Miqroiqlim izlanishlarini olib borish.....	61
20	Turli joylarda o'suvchi o'simliklarning morfologik xususiyatlarini taqoslash.....	65
21	O'simliklarning namlik omiliga nisbatan ekologik guruhlarini o'rganish.....	69
22	O'simliklarning tuproq sho'rланishiga chidamliligi bo'yicha ekologik tavsifini o'rganish.....	71
23	Adir sharoitida kserofit o'simliklarning ekologik tasnifini o'rganish.....	74
24	O'simliklar o'sishiga yorug'likning ta'sirini aniqlash.....	77
25	O'simliklarning yuqori haroratga chidamliligini aniqlash.....	80
26	O'simliklarning hayot shakkllari tasnifi bilan tanishish.....	83
27	O'simlik bargidagi suvning migdorini aniqlash.....	86
28	Transpiratsiya jadalligini aniqlash.....	90
29	Bargda suv tangisligini aniqlash.....	92
30	Tuproq namligini aniqlash.....	94
31	Biologik resurslardan foydalanishni tartibga solish.....	98
32	Tabiatdan foydalanish sohasida ruxsat berish tartib-tamoillari.....	101
33	Yorug'lik va fotosintez.....	103
34	Suv - ekologik omili.....	107
35	Tuproq ekologik omillari .....	109
36	O'simliklar dunyosiga orografik omillar ta'siri.....	112
37	O'simliklarni muhofaza qilish aspektlari.....	115
38	Biologik xilma-xillikda o'simliklarning roli.....	118
39	O'zbekiston qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar.....	121
40	Qo'riqxonalarda saqlanayotgan o'simliklar turlari.....	124
41	Mamlakatimizda "yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar.....	128
44	Fan bo'yicha glossariy (izoxli lug'ati).....	137
45	Test savollari.....	141
46	Foydalanilgan adabiyotlar.....	153

X. B. Yunusov, A. A. Elmurodov, M. X. Begmatova,  
A. A. Nurniyozov, Y. Sh. Tashpulatov, Sh. Sh. Shernazarov

## O'SIMLIKALAR EKOLOGIYASI FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

o'quv qo'llanma

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi

Nashr-matbaa faoliyatini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 10.05.2024 y. № 273109  
va 24.05.2024 y. № 283607-sonli tasdiqnomalar berilgan



Direktor

J.Shukurov

Muharrir

L.Xoshimov

Tex. muharrir

A.Umarov

ISBN: 978-9910-9180-6-3

0987



Bosishga ruxsat etildi 19.12.2024 yil.

Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

Times New Roman garniturasи.

Shartli hisob tabog'i – 17,5. Nashriyot hisob tabog'i – 18,0

Adadi 20 nusxa. Buyurtma № 14

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Nashr matbaa markazida chop etildi.

Samarqand sh., Mirzo Ulug'bek k., 77

Tel. 93 359 70 98

ISBN 978-9910-9180-6-3

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9910-9180-6-3.

9 789910 918063